

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVESITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

UMUMIY PEDAGOGIKA

**MODULI BO‘YICHA
O‘QUV USLUBIY MAJMUA**

BUXORO – 2024

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug‘i bilan tasdiqlangan **pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun mo’ljallangan** pedagogik qayta tayyorlash 4 oylik kursining Namunaviy o‘quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ishchi o‘quv dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024 yil 30-avgustdagi 1– sonli yig‘lish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: - BuxDU pedagogika fanlari doktori, prof. **B.R.Adizov**

Taqrizchi: BuxDU pedagogika kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori **Sh.Sh.Olimov**.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024 yil 30-avgustdagi 1– sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I	ISHCHI DASTUR
II	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL O‘QITISH METODLARI
III	NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI
IV	AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI
V	GLOSSARIY
VI	ADABIYOTLAR RO‘YXATI
VII	NAZORAT SAVOLLARI

I Ishchi dastur

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi «Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi PF-5789-sonli, 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan.

“Umumiy pedagogika” kursi pedagog-mutaxassislarni ilg‘or pedagogik g‘oyalar bilan tanishtirish va malumotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu maqsad kasb egalarini pedagogik nazariya va ilmiy metodologik asoslari to‘g‘risidagi mavjud bilimlar tizimini kengaytirish ,mutaxassislariga mukammal bilim berish, pedagog-tarbiyachilarni kasbiy ijod , mahorat, odob va pedagogik munosabat hamda o‘quv –tarbiya jarayonini boshqarishda o‘qituvchini pedagogik –psixologik tayyorgarligi to‘g‘risida ilmiy bilimlar bilan qurollantirish , egallangan bilimlar asosida shaxsiy pedagogik mahoratni oshirish malakalarini shakllantirish, tinglovchilarga har bir ixtisos yo‘nalishga doir modullarning o‘qitish jarayonini optimallashtirish ,ta’lim-tarbiya metodlari, o‘qitishning shakl va usullarini amalda qo‘llash bo‘yicha malakalarini hosil qilish ,ko‘nikmalarini rivojlantirish ,pedagogik tasir ko‘rsatish va talabalar tarbiyalanganlik darajasini aniqlash bshyicha malumot berib,tarbiyachilik mahoratini oshirishdan iboratdir.

Mazkur modulni o‘zlashtirish pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy ishlar metodikasi ,pedagogik psixologiya asoslari ,yoshlar psixologiyasi ,informatika ,ixtisosliklar bo‘yicha o‘qitish metodikasi, falsafa, sotsiologiya modullaridan olingan bilimlarga bog‘liqlikda olib boriladi.

“Umumiy pedagogika” modulining maqsadi, vazifasi

-Tinglovchilarni hzirgi zamon pedagogika modulining nazariy asoslari bilan qurollantirish;

-Respublikamizda komil insonni voyaga yetkazishning bir butun holatdagi muammolarini hal qilish;

-Umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini etiborga olib, ta'lim-tarbiya azmunini, milliy mafkurani shakillantirib borish imkonini yaratish;

-Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal etish

-tinglovchilarning pedagogik fikrlash qobiliyatini yuqori darajaga ko'tarish;

-ta'limning pedagogik qonuniyatlari hamda tamoyillariga tayangan holda tegishli qarorlar qabul qilish;

-buyuk allomalar al Farobiy, al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino A.Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, K.D Ushinskiy va boshqa mutafakkirlarning ta'lim tarbiyaga doir pedagogik qarashlarini umumbashariy qadriyatlar hamda Quroni Karim va Hadisi Sharifda qayd etilgan umuminsoniy va manaviy –axloqiy tamoyillarini mushoxada qilish;

-jahon xalqlari tomonidan G'arb va Sharqda yaratilgan xalq og'zaki ijodiyoti, etnopedagogikasi buyuk alloma va donishmandlar marifatparvar pedagogolar olimu –fozillarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini tahlil qilib komil insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish;

-komil inson tarkib toptirishning qonuniyat qoida va zaruriy sifatlarini aniqlash;

-ta'lim –tarbiya nazaryasi va tarixidagi qoida, qonun tamoyil, metod va usullarni o'quv muassasasi amaliy hayoti bilan bog'lab tinglovchilarga o'rgatish,

-ta'lim muassasalarini boshqarish va rahbarlik qilish masalalarini chuqur o'rganib, tinglovchilar salohiyatini yuqori saviyada tayyorlash muammolarini hal qilish;

-rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim – tarbiya tizimlari hamda ta'limni boshqaruv jarayoniga doir eng ilg'or tajribalarni tinglovchilarga chuqurroq o'rgatish va amaliyotda qo'llashni tashkil etish;

1.2 “Umumiy pedagogika” modulni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar

“Umumiy pedagogika “ o'quv modulini o'rganish jarayonida quyidagi pedagogik tushunchalarni bilish va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur:

-ta'lim tarbiya ishlarini mustaqillik g'oyalaridan foydalanilgan holda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga uyg'un hold o'tkazish:

-pedagogik faoliyatni rejalashtirishda, yaqin o'rta davrni va istiqbolni ko'zlab maqsad ,vazifalarni belgilash;

-amaliyotda o'qitish hamda manaviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy akllarini qo'llash;

-amaliytda o‘qitish va tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo‘llash ,malum vaziyatlarda ulardan to‘g‘ri foydalana olish;

-ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar .Sharq va G‘arbning ilg‘or pedagogik tajribalaridan foydalanilgan holda tashkil etish;

-o‘quvchilar jamoasini o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni to‘g‘ri bajarilishini tashkil etish;

-shaxs faoliyati va hulqin rag‘batlantirib borish ;

-pedagogik vaziyatlar ,ta’lim va tarbiya natijalarini tahlili eta olish ,jamoani o‘rganish,o‘zlashtirmaslik sabablarini ,kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali tadbirlarni belglash;

-o‘z bilimini oshirib borish ,amaliyotda pedagogika modulidagi yutuqlar ,ilg‘or tajribalardan foydalanish ,qulay pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish pedagogik faoliyatda yuzakichilik va bir qolipda ishlashga yo‘l qo‘ymay ,ishga ijobiy munosabatni namoyon etish;

-guruh rahrabari va tarbiyachi –murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish ,tashqi ta’lim ,ota-onalar ,mahalla ,jamoatchilik ,bilan o‘z-o‘zini boshqarishni ashkil etish.

1.3 “Umumiy pedagogika” modulining boshqa modullar bilan aloqasi

Umumiy pedagogika moduli –falsafa ,iqtisod,O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti ,siyosatshunoslik ,madaniyatshunoslik ,sotsiologiya ,huquqshunoslik , mantiq,etika va estetika ,manaviyat va marifat asoslari,o‘zbekiston tarixi o‘quv modullarini o‘qitish metodikasi gigiyena va fiziologiya ,o‘zbek va rus tillari kabi modullar bilan uzviy aloqada o‘rganiladi.

1.4 Modulni o‘qitishdagi yangi texnologiyalar

Umumiy pedagogika modulini o‘rganishda kompyuter o‘qitish texnologiyasining axborot va boshqa usullari pedagogik vaziyatlarni shakllantirish, pedagogika mazmunining rasmiy jihatlari ,o‘quv tadqiqot vazifalari va ko‘rgazmali ashyolar ,didaktik o‘yinlar qo‘llaniladi.Shuniningdek ,darslik o‘quv qo‘llanmalari so‘rovnomalar pedagogik ensiklopediyava lug‘atlar,maruza mantlari ,tarqatma materiallar ,ta’limning texnik vositalari kabilardan foydalaniladi.

Modul buyicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular nomi	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya soati			
		Jami	Ma'ruza	Amaliy	Seminar
1	O'zbekistonda ta'lim tizimi.	4	2	2	
2	Hozirgi davrda o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni.	4	2	2	
3	Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.	2			2
4	Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.	4	2	2	
5	Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.	4		2	2
6	Didaktika - ta'lim nazariyasi. Didaktikaning vazifalari.	4	2		2
7	Ta'limning mazmuni.	2			2
8	O'qitish jarayoni, malumot mazmuni va ta'lim mazmuni haqida tushuncha.	2		2	
9	O'qitish metodlari.	2			2
10	Kreativ ta'lim.	4	2		2
11	Tarbiya nazariyasi va usullari.	4	2	2	
12	Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan.	2			2
13	Ilmiy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.	2			2
14	Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.	2		2	
15	Yaxlit pedagogik jarayon.	2		2	
16	O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.	2		2	
17	Ta'lim metodlari va vositalari.	2		2	
18	Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari.	4	2	2	
19	O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.	4	2	2	
20	Ta'lim muassasasi menejmenti.	2			2
21	Xalqaro baholash dasturlari	2		2	
22	Pedagogik fikrlar tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari	2			2
23	Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari	4	2		2
24	O'qituvchi faoliyatida pedagogic qobiliyat	2		2	

25	Kommunikativ malakalar va ta'sir etish	2		2	
26	Korreksion pedagogika asoslari	4		2	2
27	Inklyuziv o'qitish	2	2		
28	Xorijiy mamlakatlarda ilg'or pedagogik g'oyalar	2			2
29	G'arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikr taraqqiyoti	2			2
30	Pedagogik mahorat va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati	2		2	
31	Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogic psixologik tasnifi	2			2
JAMI:		84	20	34	30

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. O'zbekistonda ta'lim tizimi.

O'zbekistondagi ta'lim tizimi haqida tushuncha. Ta'lim tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonun. Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimidagi islohotlar.

2-mavzu. Hozirgi davrda o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni

O'qituvchi va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining kasbiy va axloqiy sifatlari. O'qituvchining muomala madaniyati. O'qituvchi–murabbiyning o'ziga xos fazilatlari: ilmiy dunyo qarashi va insonparvarligi. Uning ijtimoiy–pedagogik nuqtainazari, barkamol avlod uchun o'qituvchi–murabbiyning jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning kasbiy bilimlari va ko'nikmalari.

3-mavzu. Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari

Pedagogika fanining vazifalari fanlari tizimi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Pedagogika tarbiya haqidagi modul. Pedagogikaning predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. Asosiy pedagogik kategoriyalar. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish. Pedagogik tadqiqot metodlari tizimi va ularga tavsif.

4-mavzu. Didaktika-ta'lim nazariyasi. Didaktikaning vazifalari

Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta'lim mazmuni. Ta'limni tashkil etish shakllari, metod va vositalari. Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayoni umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limidir. Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar. Ta'lim tushunchasi va mohiyati. Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatidagi tavsifi. Pedagog va tarbiyalanuvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari. Pedagog faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Dars – ta'lim tashkil etishning asosiy shakli.

5-mavzu. Kreativ ta'lim

Kreativ ta'limning mazmun va mohiyati. Kreativ ta'limni ijodkorlikka yo'naltirilganligi. Evristikaning fan sifatida vazifalari. Kreativ ta'lim texnologiyasi. Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

6-mavzu. Tarbiya nazariyasi va usullari.

Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida. Tarbiya jarayonining mohiyati. Tarbiya va ma'naviyatning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi. Ma'naviyatni shakllantirishning muhim mezonlari. O'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash. Tarbiyaviy ishlarning izchilligi, tizimlilik hamda birligi.

7-mavzu. Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari.

Ta'limning tashkiliy shakllarining umumiy tavsifi. Ta'limning tashkiliy shakllarining tarixiy taraqqiyoti. Ta'limning tashkiliy shakllarining tasnifi

8-mavzu. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari. Metodik, didaktik, pedagogik talablarning mazmun-mohiyati

9-mavzu. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari

Pedagogik mahorat – pedagogik kategoriya sifatida. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari. Pedagogik mahoratning tashkil etuvchi komponentlari. Tarbiyachilik mahoratining mohiyati.

10-mavzu. Korreksion pedagogika asoslari

Korreksion pedagogika fanining maqsadi. Korreksion (maxsus) pedagogika. Korreksion-pedagogik faoliyat. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Aqliy rivojlanishi, eshitish, ko'rish, nutkida nuqsoni bor bolalar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI.

1-mavzu. O'zbekistonda ta'lim tizimi.

1. O'zbekistondagi ta'lim tizimi haqida tushuncha.
2. Ta'lim tizimi rivojlanishiga tasir etuvchi omillar.
3. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonun.
4. Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi.
5. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimidagi islohotlar.

2-mavzu. Hozirgi davrda o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni.

1. O'qituvchi va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.
2. O'qituvchining kasbiy va axloqiy sifatlari.
3. O'qituvchining muomala madaniyati.

4. O'qituvchi–murabbiyning o'ziga xos fazilatlari:ilmiy dunyo qarashi va insonparvarligi.

5. Uning ijtimoiy–pedagogik nuqtainazari, barkamol avlod uchun o'qituvchi-murabbiyning jamiyat oldidagi mas'ulyati, uning kasbiy bilimlari va ko'nikmalari.

3-mavzu. Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.

1. Pedagogika fanining vazifalari fanlari tizimi.
2. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari.
3. Pedagogika tarbiya haqidagi modul.
4. Pedagogikaning predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari.
5. Asosiy pedagogik kategoriyalar.
6. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.
7. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish.
8. Pedagogik tadqiqot metodlari tizimi va ularga tavsif.

4-mavzu. Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

1. Shaxs haqida tushuncha.
2. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Inson kamoloti va shaxsning rivojlanishida muhitning roli.
4. Insonning kamol topishida tarbiyaning roli.

5-mavzu. O'qitish jarayoni, ma'lumot mazmuni va ta'lim mazmuni haqida tushuncha.

1. O'qitish jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar.
2. Ta'lim tushunchasi va mohiyati.
3. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatidagi tavsifi.
4. Pedagog va tarbiyalanuvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari.
5. Dars – ta'lim tashkil etishning asosiy shakli.
6. Ma'lumot mazmuni va ta'lim mazmuni haqida tushuncha.
7. Ma'lumot mazmunini tanlashga oid nazariyalar.
8. Ta'lim mazmuni va uni moddiylashtirish yo'llari.

6-mavzu. Tarbiya nazariyasi va usullari.

1. Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilmasi.
2. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari .
3. Tarbiya tamoyillari va ularga qo'yiladigan talablar tavsifi
4. O'zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari.
5. Tarbiyada ibrat-namuna ko'rsatishning tutgan o'rni. Ishontirish metodlari,hikoya,
6. munozara, suhbat, ma'ruza va boshqalar. Tarbiya usullari muhokama ,ishonch bildirish, tushunish, hamdarlik bildirish, rag'batlantirishi tanqid va boshqalar.

7. Ijtimoiy hulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari.Bolalar hayotini uyushtirish va ular bilan hamkorlik qilishning mohiyati .

7-mavzu. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.

1. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ va shaxs tushunchasi
2. Shaxsning biologik va psixologik rivojlanishi.
3. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.
4. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuvi bilan aloqadorligi.
5. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit vatarbiyaning tutgan o'rnini.
6. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

8-mavzu. Yaxlit pedagogik jarayon.

1. Pedagogik jarayon va uning tuzilishi
2. Yaxlit pedagogik jarayon
3. Pedagogik jarayon qonuniyatlari.
4. Yagona pedagogik jarayonning etaplari.

9-mavzu. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.

1. Ta'lim jarayoni yagona tizim sifatida.
2. Ta'lim tamoyillari.
3. Ta'lim jarayonining mazmun – mohiyati.
4. Ta'lim jarayoni – yagona dinamik tizim sifatida.
5. Ta'lim – borliqni bilishning o'ziga xos shakli sifatida.

10-mavzu. Ta'lim metodlari va vositalari.

1. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari.
2. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar.
3. Ta'lim metodlarining mohiyati.
4. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari.
5. Ta'lim vositalari va ularning funktsiyalari.

11-mavzu. Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari

1. Sharq mutafakkirlari ta'lim metodlari haqida.
2. Ta'lim turlari.
3. Ta'limni tashkil qilish shakllari haqida tushuncha.
4. Ta'limni tashkil qilishning an'anaviy sinf-dars shakli

12-mavzu. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.

1. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.
2. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funktsiyalari.
3. Ta'lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari.
4. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari.
5. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

13-mavzu. Xalqaro baholash dasturlari

1. Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati.
2. Xalqaro baholash dasturlari turlari.

14 –mavzu. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat

1. Qobiliyatning psixologik tavsifi.

2. Pedagogik qobiliyat va uning tuzilishi.
3. O'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari tizimi.

15-mavzu. Kommunikativ malakalar va ta'sir etish

1. Kommunikatsiya metodlari.
2. O'qituvchining kommunikativ malakasi.
3. Kommunikativ ta'sir etish yo'li.
4. O'qituvchining kommunikativ madaniyati.
5. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari.

16-mavzu. Inklyuziv o'qitish

1. Inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asoslari.
2. Inklyuziv ta'lim tamoyillari. Muvaffaqiyatli inklyuziya resurslari.
3. Inklyuziyaning komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari.
4. Inklyuziv ta'lim variantlari: doimiy, to'liq; doimiy, noto'liq; vaqtinchalik, qisman; epizodik; masofaviy ta'lim.

17-mavzu. Pedagogik mahorat va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati

1. Pedagogik mahorat – pedagogik kategoriya sifatida
2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.
3. Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari.
4. Qobiliyatning psixologik tavsifi.
5. Pedagogik qobiliyat va uning tuzilishi.
6. O'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari tizimi.

2.3 SEMINAR MASHG'ULOTLAR MAVZULARI.

1-mavzu. Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.

Pedagogikaning metodlari. Pedagogikaning tarmoqlari. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Zamonaviy pedagogikaning metodologiyasi. Pedagogikaning ilmiy - tadqiqot metodlari.

2-mavzu. Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Shaxs haqida tushuncha. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Inson kamoloti va shaxsning rivojlanishida muhitning roli. Insonning kamol topishida tarbiyaning roli.

3-mavzu. Didaktika - ta'lim nazariyasi.

Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta'lim mazmuni. Ta'limni tashkil etish shakllari, metod va vositalari. Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayoni umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limidir. Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar. Ta'lim tushunchasi va mohiyati. Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatidagi tavsifi.

4-mavzu. Ta'limning mazmuni.

Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. Davlat ta'lim standartlari. O'quv rejalari va dasturlari.

Darslik va unga qo'yilgan talablar. Dars turlari va darsga bo'lgan talablar.

5-mavzu. O'qitish metodlari

Pedagogik fanlarni o'qitish metod va vositalari. Ta'lim metodi va usullari tushunchalari.

Pedagogik fanlarni o'qitish metodlari tasnifi.

6-mavzu. Kreativ ta'lim.

Kreativ ta'limning mazmun va mohiyati. Kreativ ta'limni ijodkorlikka yo'naltirilganligi. Evristikaning fan sifatida vazifalari. Kreativ ta'lim texnologiyasi. Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

7-mavzu. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan.

Yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlari, tamoyillari va bosqichlari. "Individ" va "shaxs" tushunchasi. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

8-mavzu. Ilmiy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.

Pedagogika fanining vazifalari fanlari tizimi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Pedagogika tarbiya haqidagi modul. Pedagogikaning predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. Asosiy pedagogik kategoriyalar. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish. Pedagogik tadqiqot metodlari tizimi va ularga tavsif.

9-mavzu. Ta'lim muassasasi menejmenti.

Ta'lim muassasasini boshqarish. Boshqarish funksiyalari. Boshqaruv metodlari. Boshqaruv uslublari. Pedagogik Kengash – ta'lim muassasasining boshqaruv organi.

10-mavzu. Pedagogik fikrlar tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari

Pedagogika tarixi fani haqida ma'lumot. Fanning maqsadi va vazifalari. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim -tarbiya masalalari. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim -tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablari va unda ta'lim -tarbiya mazmuni. Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo'lishi.

11-mavzu. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari

Pedagogik mahorat – pedagogik kategoriya sifatida. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari.

12-mavzu. Korreksion pedagogika asoslari

Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Aqliy rivojlanishi, eshitish, ko‘rish, nutkida nuqsoni bor bolalar. Inklyuziv ta’lim siyosatining huquqiy asoslari. Inklyuziv ta’lim tamoyillari. Muvaffaqiyatli inklyuziya resurslari. Inklyuziyaning komponentlari, mezonlari va ko‘rsatkichlari. Inklyuziv ta’lim variantlari: doimiy, to‘liq; doimiy, noto‘liq; vaqtinchalik, qisman; epizodik; masofaviy ta’lim.

13-mavzu. Xorijiy mamlakatlarda ilg‘or pedagogik g‘oyalar

Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi. Modulli ta’limning ahamiyati va mohiyati. Zamonaviy ta’lim shakllari.

14-mavzu. G‘arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikr taraqqiyoti

Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimi. Uning pedagogika fani taraqqiyotidagi ahamiyati. Rus pedagog olimlarining pedagogik g‘oyalari. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi.

15-mavzu. Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi

Qobiliyatning psixologik tavsifi. Pedagogik qobiliyat va uning tuzilishi. O‘qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlar tizimi.

FOYDALANILGAN VA TINGLOVCHILARGA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi yangi tahrirdagi Qonun. 2020.

2. Mirziyoyev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016.

3. Mirziyoyev Sh.M. «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: O‘zbekiston, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston. – 2017.

5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

7. Mirziyoyev Sh.M. «Konstitutsiya– erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.

8. Abdullayeva Sh.A .va boshq.Pedagogika .-Toshkent .”Modul” 2004

9. Asqarova O‘ .Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar .T: Istiqlol .2005

10.Davletshin M.G .”O‘quvchilarda qobiliyatni tarkib toptirish” .Toshkent “O‘qituvchi” 1996y.

11.Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. T.: Fan, 2006.

12.Omonov X., Xo‘jaev N., Madyarova S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009. Darslik

13.Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011. Darslik

14.Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg‘ulotlari. - T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

15.Niyozov G‘., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. - T.: NOSHIR, 2011.

16.Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. - T.: Fan, 2001.

17.Yo‘ldoshev J., Xasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009.

18.Mahmudov N. Pedagog nutqi madaniyati Tinglovchialar uchun darslik. - Toshkent: Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

19. <http://www.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

20. <http://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi sayti.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlardeganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;


- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi

– ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o’quv materialini o’rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo’llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo’lishga, bir-biridan o’rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo’ladi.

Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo’llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo’ladi. Chunki

ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. "Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

“DAVRA SUHBATI” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbatı” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni

oʻrnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining ogʻzaki va yozma shakllari mavjuddir. Ogʻzaki davra suhbatida taʼlim beruvchi mavzuni boshlab beradi va taʼlim oluvchilardan ushbu savol boʻyicha oʻz fikr-mulohazalarini bildirishlarini soʻraydi va aylana boʻylab har bir taʼlim oluvchi oʻz fikr-mulohazalarini ogʻzaki bayon etadilar. Soʻzlayotgan taʼlim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim boʻlsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib boʻlingandan soʻng muhokama qilinadi. Bu esa taʼlim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir taʼlim oluvchiga konvert qogʻozi beriladi. Har bir taʼlim oluvchi konvert ustiga maʼlum bir mavzu boʻyicha oʻz savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga oʻz javobini yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi. Shundan soʻng konvertni soat yoʻnalishi boʻyicha yonidagi taʼlim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan taʼlim oluvchi oʻz javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi va yonidagi taʼlim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana boʻylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yigʻib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan

“Davra suhbat” metodining tuzilmasi

“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashgʻulot mavzusi eʼlon qilinadi.
2. Taʼlim beruvchi taʼlim oluvchilarni mashgʻulotni oʻtkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir taʼlim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha taʼlim oluvchi boʻlsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qoʻyiladi. Taʼlim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga oʻz ismi-sharifini yozadi.
4. Taʼlim oluvchi konvert ustiga mavzu boʻyicha oʻz savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga oʻz javobini yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi.
5. Konvertga savol yozgan taʼlim oluvchi konvertni soat yoʻnalishi boʻyicha yonidagi taʼlim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

"Davra suhbat" metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

"Davra suhbat" metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlashtalab etiladi.

"AQLIY HUJUM" metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir.

"Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri

o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar.

Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi.

“Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda-yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi



“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo’yicha o’z javoblarini (fikr, g’oya va mulohaza) bildirishlarini so’raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo’yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g’oyalari (elektron, videotasmaga, rangli qog’ozlarga yoki doskaga) to’planadi;
4. Fikr-g’oyalar ma’lum belgilar bo’yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo’yilgan savolga aniq va to’g’ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g’oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g’oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini tekshirib ko’rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg’otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to’g’ri qo’ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“ROLLI O‘YIN” metodi -ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko’rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga "Rolli o'yin" metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan stsenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, "Ishbop o'yin" metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

"Rolli o'yin" metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Quyida "Rolli o'yin" metodining tuzilmasi keltirilgan.


"Rolli o'yin" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun stsenariy ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham stsenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Stsenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni

yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o'yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o'yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o'yin” metodining afzallik tomonlari:

- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- ta'lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o'yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning o'yinga tayyorgarligi turlicha bo'lishi mumkin;
- barcha ta'lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

“BAHS-MUNOZARA” metodi- biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki

ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ☐ barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ☐ “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;

- ☐ fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- ☐ bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- ☐ bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.

Muammoli savol tashlanadi

Turli fikrlar tinglanadi

Fikr-g'oyalar to'planadi

Tahlil qilinadi

Aniq va maqbul yechimni topish

“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“MUAMMOLI VAZIYAT” metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi

qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o‘rganadilar;
- ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.


“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.

“LOYIHA” metodi - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhli bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.
2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalashtirishlari lozim.
3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta'lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.
4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.
5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb

etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta’lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og‘zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko‘rinishidagi yozma hisobot.

6. Muhandis-pedagog va ta’lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarida erishilgan ko‘rsatkichlarni me‘yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me‘yoriy ko‘rsatkichlarga erisha olinmagan bo‘lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog “Loyiha” metodini qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta’lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta’minlanishi lozim. “Loyiha” metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- ☐ yakka tartibdagi ish; ☐ kichik guruhli ish; ☐ jamoa ishi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMI (2s).

Reja:

- 1.O‘zbekistondagi ta’lim tizimi haqida tushuncha.
- 2.Ta’lim tizimi rivojlanishiga tasir etuvchi omillar.
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonun.
4. Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi. Mustaqillik yillarida ta’lim tizimidagi islohotlar.

Tayanch tushunchalar: uzluksiz ta’lim, ta’lim prinsiplari, ta’limning uzluksizligi, ta’lim tizimi, ta’lim turlari.

O‘zbekistonda ta’lim tizimi O‘zbekiston Respublikasining “**Ta’lim To‘g‘risida**” Qonuni asosida tashkil etiladi.

Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar:

Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta’lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;
- ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi;
- ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’lim ga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;
- ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik tashkil etadi.

Ta’lim tizimining rivojlanishi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va texnologik taraqqiyotini belgilab beruvchi eng muhim jarayonlardan biridir. Ta’lim

tizimi o'z-o'zidan shakllanmaydi va rivojlanmaydi; unga juda ko'p ichki va tashqi omillar doimiy ravishda ta'sir ko'rsatib turadi.

Ushbu omillarni bir necha asosiy guruhlariga ajratib, ularning mazmunini quyidagicha yoritish mumkin:

1. Iqtisodiy omillar

Iqtisodiyot va ta'lim tizimi o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Iqtisodiy omillar ta'limning moddiy-texnik bazasini va sifatini belgilaydi:

Moliyalashtirish hajmi. Davlat tomonidan ta'limga ajratiladigan yalpi ichki mahsulot (YIM) ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, maktablar, universitetlar shunchalik zamonaviy uskunalar bilan jihozlanadi, o'qituvchilarning ish haqi ortadi.

Mehnat bozori talablari. Iqtisodiyotning qaysi sohalari (masalan, IT, muhandislik, biotexnologiya) rivojlanayotgan bo'lsa, ta'lim tizimi ham o'sha sohalar uchun kadrlar tayyorlashga moslashadi.

Aholi farovonligi. Oila daromadlarining yuqoriligi farzandlarning qo'shimcha ta'lim olishi, xorijda o'qishi va sifatli o'quv qurollariga ega bo'lishiga imkon yaratadi.

2. Siyosiy va huquqiy omillar

Davlatning siyosiy irodasi va qonunchilik bazasi ta'lim tizimining strategik yo'nalishini belgilaydi.

Davlat siyosati va strategiyasi. Hukumatning ta'limni rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan dasturlari, islohotlari va strategik maqsadlari (masalan, majburiy ta'lim muddatini belgilash, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash).

Huquqiy baza. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, milliy o'quv dasturlari va standartlarining zamon talablariga mos ravishda yangilab borilishi.

Xalqaro aloqalar: Global ta'lim maydoniga integratsiyalashuv, xalqaro tajribalarni (masalan, Finlyandiya, Singapur ta'lim modellari) o'rganish va joriy etish.

3. Texnologik va innovatsion omillar

Raqamli asrda texnologiyalar ta'lim shakli va mazmunini butunlay o'zgartirmoqda.

Raqamlashtirish (Digitalization): Masofaviy ta'lim platformalari, onlayn kurslar, elektron darsliklar va multimedia vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi.

Sun'iy intellekt va AKT. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limni personallashtirishda (har bir o'quvchining o'zlashtirish tezligiga moslashish) qo'llanilishi.

Infratuzilma. Maktab va oliygohlarning yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlanganligi.

4. Demografik omillar

Aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlar ta'lim tizimiga to'g'ridan-to'g'ri bosim o'tkazadi:

Aholi o'sishi. Tug'ilish darajasining yuqoriligi (masalan, O'zbekistonda bo'lgani kabi) yangi maktablar, bog'chalar qurish va qo'shimcha o'qituvchi o'rinlarini yaratish zaruriyatini tug'diradi.

Urbanizatsiya. Aholining shaharlarga ko'chishi natijasida shahar maktablarida yuklamaning ortishi va qishloq joylarda o'quvchilar kamayishi muammosi yuzaga keladi.

5. Ijtimoiy va madaniy omillar

Jamiyatning ta'limga bo'lgan munosabati va qadriyatleri ta'lim samaradorligini belgilaydi.

Jamiyatda ta'limning qadri. Agar jamiyatda bilimli, diplomli va malakali insonlar yuksak qadrlansa va munosib rag'batlantirilsa, yoshlarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi ortadi.

Mentalitet va an'analar. Gender tengligi (o'g'il va qiz bolalarning teng ta'lim olishi), oilada ota-onaning farzand ta'limiga e'tibori va mas'uliyati.

Inklyuzivlik: Jamiyatning imkoniyati cheklangan (nogironligi bo'lgan) bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga jalb eta olish darajasi.

6. Pedagogik va kadrlar omili (Ichki omil)

Tizim ichidagi eng muhim omil bu – inson kapitali, ya'ni pedagoglardir:

O'qituvchilar salohiyati va malakasi. Ta'lim sifati hech qachon o'qituvchi sifatidan yuqori bo'la olmaydi. Pedagoglarning zamonaviy metodikalarni bilishi va ularni qo'llay olishi.

Metodologiya va darsliklar. O'quv dasturlarining yodlashga emas, balki tanqidiy fikrlash, mantiq va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga (masalan, STEAM ta'lim yondashuvi) yo'naltirilganligi bilan bog'liq.

Ta'lim olish huquqi

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limniva boshlang'ich professional ta'limnibepul olish;

oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi:

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini;

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;

ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim va tarbiya;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim ;

professional ta'lim;

oliy ta'lim;

oliy ta'lim dan keyingi ta'lim ;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta'lim .

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'lim ga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'lim ga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limnidavom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

boshlang'ich professional ta'lim;

o'rta professional ta'lim;

o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim i (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim i) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim i (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim i) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim dan keyingi ta'lim

Oliy ta'lim dan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'lim dan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'lim dan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'lim dan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'lim dan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'lim dan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Oliy ta'lim dan keyingi ta'limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim olish shakllari

Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
dual ta'lim ;

oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

inklyuziv ta'lim ;

eksternat tartibidagi ta'lim ;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Masofaviy ta'lim

Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Masofaviy ta'limnitashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Dual ta'lim

Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta'limnitashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish tartibi, shuningdek ta'lim oluvchilarning toifalari ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Oilada ta'lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta'lim muassasasi hamda ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berish davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi.

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'lim dir.

Norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan bo'lib,

shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'lim ga qo'shimcha va (yoki) uning muqobilidir.

Informal ta'lim aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'lim dan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limnitashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Eksternat tartibidagi ta'lim

Eksternat tartibidagi ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi.

Eksternat tartibidagi ta'lim olishni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston ta'lim tizimi chuqur tarkibiy, mazmuniy va tashkiliy islohotlarni boshidan kechirdi.

Bu davrni shartli ravishda uchta asosiy bosqichga bo'lib o'rganish mumkin: **milliy poydevor qo'yish davri (1991–1997), Kadrlar tayyorlash milliy dasturi davri (1997–2016) va Yangi O'zbekiston davridagi tub burilishlar (2017-yildan hozirgacha).**

1-bosqich: Mustaqillikning ilk yillari va poydevor yaratish (1991–1997)

Sobiq ittifoq parchalanganidan keyin ta'lim tizimini mafkuraviy tazyiqlardan xoli qilish va milliy qadriyatlarga asoslangan yangi tizim yaratish zarurati tug'ildi.

Huquqiy asos: 1992-yilda mustaqil O'zbekistonning ilk "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

Lotin alifbosiga o'tish: 1993-yilda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida qonun qabul qilindi va ta'lim tizimi asta-sekin ushbu alifboga moslashtirila boshlandi.

Darsliklarni yangilash: Kommunistik mafkuradan xoli bo'lgan tarix, adabiyot va ijtimoiy fanlar bo'yicha yangi avlod darsliklari yaratildi.

2-bosqich: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 12 yillik majburiy ta'lim (1997–2016)

1997-yilda O'zbekiston ta'lim tarixida burilish yasagan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Bu bosqichda tizim butunlay modernizatsiya qilindi:

12 yillik majburiy ta'lim: Dunyoda kam kuzatiladigan 9+3 ko'rinishidagi bepul va majburiy ta'lim tizimi joriy etildi. Bunda o'quvchilar 9-sinfidan keyin o'z xohishiga ko'ra akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlari o'qishni davom ettirdilar.

Infratuzilmani yangilash: Mamlakat bo'ylab minglab zamonaviy kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar binosi yangitdan barpo etildi, maktablar rekonstruksiya qilindi.

Oliy ta'limda ikki bosqichlilik: Oliy ta'lim tizimi xalqaro standartlarga mos ravishda Bakalavriyat va Magistratura bosqichlariga ajratildi. Ilk bor xorijiy oliygohlar (masalan, Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti) filiallari ochila boshladi.

3-bosqich: Yangi O'zbekistonda tub burilishlar va zamonaviy islohotlar (2017-yildan hozirgacha)

2017-yildan boshlab ta'lim tizimida oldingi bosqichlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish va tizimni xalqaro talablarga moslashtirish bo'yicha keskin islohotlar boshlandi.

A) Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar.

2017-yilda alohida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi (hozirda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tarkibida).

Davlat-xususiy sheriklik tizimi joriy etilishi natijasida xususiy bog'chalar soni keskin ko'paydi. Bolalarni bog'chalarga qamrab olish darajasi 2017-yildagi 27% dan bugungi kunda 74% dan oshdi.

B) Umumiy o'rta ta'limdagi o'zgarishlar.

11 yillik ta'limning qaytarilishi: Samarasiz deb topilgan 12 yillik tizimdan voz kechildi va yana 11 yillik majburiy maktab ta'limi tiklandi. Kollejlari o'rnini ixtisoslashtirilgan texnikumlar va monomarkazlar egalladi.

Prezident va ijod maktablari: Iqtidorli yoshlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi – Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i yaratildi.

Milliy o'quv dasturi. Ta'lim mazmuni faqat yodlashga emas, balki mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan A.Avloniy nomidagi milliy o'quv dasturiga o'tkazildi. PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish yo'lga qo'yildi.

O'qituvchi maqomini oshirish. Majburiy mehnat (paxta terimi, ko'cha tozalash) butunlay taqiqlandi. O'qituvchilarning maoshi va jamiyatdagi nufuzi qonun darajasida himoyalandi ("Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi).

V) Oliy ta'limdagi transformatsiya.

Qamrovning kengayishi: Oliy ta'lim muassasalari soni 70 tadan 210 tadan oshdi. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9% dan 40% dan yuqori ko'rsatkichga ko'tarildi.

Akademik va moliyaviy mustaqillik: Ko'plab yetakchi oliygohlarga o'z o'quv dasturlarini mustaqil belgilash va o'zini o'zi moliyalashtirish huquqi berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurash: Hujjat topshirish va test sinovlari to'liq raqamlashtirildi (Bilim va malakalarni baholash agentligi orqali onlayn shaklda). Kirish imtihonlari shaffof va ochiq maydonlarda o'tkaziladigan bo'ldi.

Xususiy va xorijiy oliygohlar: Mahalliy xususiy universitetlar tashkil etilishiga ruxsat berildi va dunyoning nufuzli top-universitetlari filiallari soni ko'paydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston ta'lim tizimi sovet ittifoqidan qolgan bir qolipli tizimdan dunyo andozalariga mos keluvchi, bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan moslanuvchan tizimga aylandi. Bugungi islohotlarning bosh maqsadi – ta'limning faqat son ko'rsatkichini emas, balki bevosita uning sifatini xalqaro raqobatbardosh darajaga olib chiqish hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Informal ta'lim nima va u rasmiy yoki norasmiy ta'lim turlaridan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?

2. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi nima va u qanday bolalar (shaxslar) uchun tashkil etiladi?

3. Eksternat tartibidagi ta'limning o'ziga xosligi nimada va unda ta'lim oluvchilardan nima talab etiladi?

4. Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlash qanday tartibga solinadi?

5. O'zbekistonda mustaqillik yillaridagi ta'lim islohotlari qaysi 3 ta asosiy bosqichga bo'linadi?

6. Islohotlarning 1-bosqichida (1991–1997) ta'lim tizimini sobiq ittifoq mafkurasidan xoli qilish uchun qanday muhim qadamlar qo'yildi?

7. 1997-yilda qabul qilingan qonunga ko'ra qanday majburiy ta'lim tizimi joriy etildi va u necha yil davom etdi?

8. Yangi O'zbekiston davrida (2017-yildan keyin) maktabgacha ta'lim tizimida qamrab olish ko'rsatkichi necha foizga o'zgardi?

9.Umumiy o'rta ta'limdagi islohotlar davrida o'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini himoya qilish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rildi va qaysi qonun qabul qilindi?

10.Mustaqillik yillarida oliy ta'lim muassasalari soni va yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi qanchaga o'sdi hamda tizimda korrupsiyaga qarshi qanday kurashildi?

2-MAVZU. HOZIRGI DAVRDA O'QITUVCHILIK KASBI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI (2s)

Reja:

1.O'qituvchi va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining kasbiy va axloqiy sifatleri.

2.O'qituvchining muomala madaniyati. O'qituvchi–murabbiyning o'ziga xos fazilatlari:ilmiy dunyo qarashi va insonparvarligi.

3. Uning ijtimoiy–pedagogik nuqtai nazari, barkamol avlod uchun o'qituvchi-murabbiyning jamiyat oldidagi mas'ulyati, uning kasbiy bilimlari va ko'nikmalari.

Tayanch tushuncha: Kompetensiya, klassifikatsiya, bakalavriyat, faoliyat, pedagogik faoliyat.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak. Yani doimo o'zining pedagogic mahoratini oshirib boorish ustida ish olib borishi talab etiladi. Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo'lishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889-1939) nomi bilan bevosita bog'liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida, ya'ni faqat tarbiyasini emas, ma'naviy qiyofasini ham yo'qotgan bolalar bilan ishlab, ularning benihoya hurmati va ishonchiga sazovor bo'ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo'lganligining o'zi ham A.S.Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho'qqisiga erishganligining yaqqol dalilidir. YUNESKO qarori bilan uning 100 yilligiga 1988 yil - «Makarenko yili» deb e'lon qilindi.

A.S.Makarenko bo'lajak pedagog talabalik davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o'rganishi zarurligini ta'kidlab, shunday deydi: «Tarbiyachi tashkil etishni,

yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin».

Buyuk pedagogning bu fikriga Ukraina pedagogika instituti olimlari katta mas'uliyat bilan qarashdi. Ular bir necha yillar davomida Makarenko pedagogik mahorati maktabini, mavjud bo'lgan ilg'or nazariya va amaliyotni atroflicha tahlil qilishdi. Natijada 1979 yili «Pedagogik mahorat asoslari» fani yaratildi va u barcha pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitila boshlandi. Bu fanning tuzilish prinsipining o'ziga xosligi shundaki, u pedagogda shaxs va jamoaga ta'sir eta olishni ta'minlaydigan va turli fanlarga bog'liq bo'lgan bilimlarni tanlab, ularni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham fan dasturiga pedagogik mahorat mohiyati, o'quvchiga ta'sir etish vositalari va usullari kabi pedagogik mahoratning odatdagi masalalaridan tashqari, teatr pedagogikasi va notiqlik san'ati haqidagi ma'lumotlar ham kiritilgan. Bu fanni o'rganish pedagogika, psixologiya, metodika va boshqa pedagogik fanlardan egallangan bilimlarga asoslanadi.

Pedagogik faoliyat bu mazmunini o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish tashkil qilgan faoliyatdir.

Shuni yodda tutish kerakki, pedagogik faoliyat bu bir tomonlama emas, balki ikkitomonlama (hamkorlikdagi) faoliyatdir. Unda ikkita faol tomon ishtirok etadi: o'qituvchi – o'quvchi (o'quvchi). Maqsad – o'quvchi, o'quvchi shaxsi, uning rivojlanishidir.

Mohir pedagog deb ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkillay oladigan, buning uchun o'quvchi psixologiyasini yaxshi bilgan, o'zida pedagog uchun zarur bo'lgan kasbiy fazilatlarni mujassam etgan, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar qonuniyatlari asosida samarali tashkillay oladigan va olib boradigan pedagogga ayta olamiz (shu sababli pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanlari bir o'quv faniga birlashtirilgandir).

Mahorat faoliyatda namoyon bo'ladi. Pedagogika fanida “pedagogik mahorat” tushunchasining turli ta'riflari mavjud:

- pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo'lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo'ladi. (N.V.Kuzmina., N.V.Kuxarev);
- “o'qituvchining ilmiy bilimlari, ko'nikmalari, metodik san'ati va shaxsiy fazilatlari sintezi” (A.I.Sherbakov);
- “pedagogik faoliyatni egallanganlikning yuqori darajasi, ixtisoslikka doir bilim, ko'nikma va malakalar hamda kasbiy ahamiyatli sifatlar majmui” (Pedagogik lug'at);
- “kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini ta'minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o'qituvchi faoliyatining gumanistik yo'naltirilgani, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlari va pedagogik texnikasi” (I.A.Zyazyun);
- “pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik–psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga

qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy–estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi” (I.P. Rachenko).

- pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi (N.N.Azizxo‘jaeva).

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta’lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o‘z o‘quvchilarini turli o‘quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o‘qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta’sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o‘quvchilar bilan muomalasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Odatda bularning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o‘qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o‘qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishini unutmazlik lozim.

Pedagogik adabiyotlarda o‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta’sir etuvchi mahsuldor sabablar (omillar) umumlashtirilib pedagogik madaniyat nomi bilan qayd etiladi. Boshqa tushunchalar singari pedagogik madaniyatning ham bir necha xil ta’riflari mavjud. Biroq barcha ta’riflarda pedagogik madaniyat tushunchasi uch ilmiy jihatdan, ya’ni aksiologik, faoliyat va shaxsga yo‘naltirilganlik nuqtai nazaridan talqin etilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aksiologik yondashuvga ko‘ra, pedagogik madaniyat – tarbiya haqidagi fan sifatida pedagogika tayanadigan pedagogik qadriyatlar majmuidir. Ushbu qadriyatlar moddiy va ma’naviy shakllarda mavjud bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv nuqtai nazariga ko‘ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik faoliyatdagi tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi subyekt sifatida kasbiy etuk pedagog shaxsining muhim sifati. Faoliyatli yondashuvga ko‘ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik qadriyatlarning tadbiq etilishini ta’minlovchi, o‘qituvchi kasbiy faoliyatining o‘ziga xos usullari majmuidir.

Pedagogik madaniyatning mufassal tavsifi L.D.Stolyarenko tomonidan quyidagicha ochib berilgan: “Pedagogik madaniyat – bu umuminsoniy madaniyatning bir bo‘lagi bo‘lib, unda eng avvalo, avlodlar almashinuvi va shaxsning ijtimoiylashuvi kabi tarixiy jarayon uchun xizmat qilishda insoniyat uchun zarur bo‘lgan ma’naviy va moddiy qadriyatlar aks etgan”.

O‘qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo‘lishini taqozo etadi:

1) shaxsga yoʻnalganlik: eʼtiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik tuygʻusining mavjudligi;

2) kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyjanoblilik, xolislik;

3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuygʻusi, fidokorlik, berilib ishlay olish va oʻz pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;

4) qiziqishlar va maʼnaviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va maʼnaviy ehtiyojlarning koʻpqirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud boʻlishi, tashqi koʻrinish va nutq madaniyati.

Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, taʼlim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan oʻqituvchilar mehnati faoliyatidir.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda boʻlmagan oʻqituvchi taʼlim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini taʼminlovchi fikrga ega boʻlmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish boʻlib, oʻqituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. Oʻqituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obyektlari boʻlmish tarbiyalanuvchi insonga, oʻquvchi va oʻquvchilar guruhiga hamda alohida oʻquvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari — ota-onalar, oʻqituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoamasʼuldirlar va ular jamiyat talablari asosida taʼlim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. A.Xoliqov tomonidan eʼtirof etilganidek, oʻqituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, yaʼni egallagan bilimlarini oʻzining hayotiy va amaliy faoliyatida nechogʻlik qoʻllay bilishi bilan belgilanadi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi asrlar davomida yuksak maʼnaviyatli shaxsni shakllantirishning umuminsoniy gʻoyasi sifatida xizmat qilib kelayotgan tarbiyaviy ishni amalga oshirish bilan bogʻliq. Pedagogik faoliyatning asosiy turlari sifatida tarbiyaviy ish va oʻqitish aks etadi. Tarbiyaviy ish — bu tarbiyaning tizimlilik, toʻlaligi, uzviyligi va uzluksizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchilarning muaiyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir. Tarbiyaviy ishning asosiy xususiyati — zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat.

Tarbiyaviy ishlar asosida ikkita: faol va majmuaviy yondashuvlar yotadi. Yondashuvlarning birinchisi, faoliyatning bilish, mehnat, ijtimoiy, badiiy, sport va erkin muloqot kabi turli koʻrinishlarini tashkil etishni talab etadi. Ikkinchi majmuaviy yondashuv esa, faoliyatning barcha koʻrinishlarining yagona jarayonga

ta'siri bilan tabiiy "ko'shilib" ketishida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy ishlar, ayni paytda, o'ziga axlokiy, estetik, hissiy va aqliy (intellektual) ta'sirlarni kamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo'nalishiga ishora qilsa, majmuaviy yondashuv – uning mazmun tabiatini (pedagogik maqsad (vaziyat, tarbiyaviy maqsadning asosiy va bog'liq tomonlarini shakllantirish)ni; rsjallashtirish; tashkil etish va tayyorlashni; ishni bsvosita amalga oshirishni; erishilgan natijalar tahlilini) belgilaydi.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakatidir. O'rgatish – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyatini aks ettirsa, o'rganish anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni bo'lib, avval egallanganlari o'zgaradi.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatning o'zaro bir-biri bilan aloqador quyidagi uch tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadi: konstruktiv, tashkilotchilikka doir va kommunikativ. Konstruktiv faoliyat mazmunli (o'quv materialini tanlash va tizimlashtirish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv operativ (o'zining va o'quvchilarning harakatlarini rejalashtirish); konstruktiv-moddiy (pedagogik jarayonning o'quv-moddiy bazasini loyihalash) jihatlarni o'zida aks ettiradi. Tashkilotchilik faoliyati – o'quvchilarni faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish. Kommunikativ faoliyat – pedagogning ta'lim oluvchilar, o'qituvchilar jamoasi, jamoatchilik, mahalla va ota-onalar bilan munosabatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat

avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi».

3. Pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonda o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiqan o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar.

Kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillar (qiziqishlar, layoqat, qobiliyat) Jahon psixologiyasi fanining boy tajribasida amaliy psixologlar tayyorlash bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ijobiy, tatbiqiy ma'lumotlar muayyan darajada umumlashtirilgan. Yigirmanchi asrning 60-yillaridan boshlab AQSh, Angliya va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarda psixologik muammolarga juda katta e'tibor qaratila boshlandi. Hozirgi kunga kelib har bir sohada psixologlar jalb qilingan. Har bir sohada psixolog maslahatiga ehtiyoj sezilmoqda.

Inson qalbini qanday tushunmoq kerak?

Nima uchun insonlar turli xil qobiliyatlarga egalar?

Ruh nima va uning tabiati qanday?

Bunday savollar insonlarni asrlar davomida qiynab kelgan ular o'zlarining savollariga javob topa boshlashgan. Dunyoni o'rganishga bo'lgan qiziqish orta boshlagan va shu bilan birga insonni bilishga bo'lgan qiziqish ham ortgan. Bu holatni o'rganish uchun albatta insonning holatlarini tahlil qilish talab qilinadi. ko'pgina olimlar insonning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilishga katta e'tibor qaratganlar. Psixologiya fanida inson haqidagi nazariy qarashlar ham albatta mavjuddir. Kasb tanlashga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilishdan avval kasb tushunchasiga ta'rif berilishi kerak. Taniqli psixolog Ye.A.Klimov kasbning turli xil holatlarini tahlil qilib chiqqan:

Kasb bu insonlarni ma'lum bir holatlaridagi bir xilligidir. To'g'ri turli xil kasb egalarining yashash sharoitlari turlicha bo'lishi mumkin. Hattoki bitta kasbda ham yashash darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Bunda ularning oldiga qo'ygan maqsadlari ham muhim o'rin tutadi, biroq kasblaridagi boshlang'ich qadriyatlar bir biriga yaqin bo'ladi.

2. Kasb insonlarning xatti –harakatlarini ajratadigan holatdir. Bunda psixolog mutaxassis sifatida o'zini qanday namoyon qilishi ko'zda tutilgan. Ma'lumki

psixologiya sohasi xali ham o'rganilayotgan va qarimaydigan sohalardan biri hisoblanadi. Ularning usullari ham takomillashib bormoqda.

3. Shaxs xususiyatlarini aks ettiradigan kasb faoliyatidir. Biz ko'pgina holatlarda psixolog qandaydir xizmatlar ko'rsatishini sezib, uni o'zini shakllantirishda kerak ekanligini unutib qo'yamiz.

4. Kasb bu tarixiy rivojlanuvchi tizim hisoblanadi. "professiya" so'zi lotinchadan olingan bo'lib barchani oldida gapirmoq so'zini beradi. Kasbning o'zi insonlarning yashash sharoitlariga qarab o'zgaradi. Asosan psixologiya kasbi mashhur bo'lgan shaxslarning hayoti bilan bog'liq holda amalga oshirilgan.

5. Pedagoglik kasb reallikdir, bu subyektning o'zini shakllanish imkoniyatini yaratadi. Demak pedagog kasbida insonlarning xatti-harakati orqali xulosaga kelishi mumkindir. Bunda yo'riqnomalar ish bermasligi mumkin.

Kasb tushunchasidan tashqari yana bir nom mavjud bu mutaxassislik hisoblanadi. Masalan psixologiya sohasi ijtimoiy psixologiya mutaxassisligi bo'lishi mumkin. Umuman olganda kasb o'z ichiga quyidagi tavsiflarni kiritadi:

1. Bu mehnatning chegaralangan ko'rinishi bo'lib, psixolog uchun boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqdir.

2. Bu kasb doimiy maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan holat bo'lib, bunda mutaxassislar doimiy tarzda malakalarini oshirishlari talab qilinadi.

3. Bu ma'lum bir maqtoqlar, taqdirlash usullari kerak bo'lgan kasblardan biri hisoblanadi.

4. Jamiyat uchun foydali bo'lgan kasblardan biri hisoblanadi.

5. Bu kasb insonlarga ma'lum bir statusni berishi mumkin.

Pedagoglarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

Umumiy kompetentsiyalar:

-davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy iqtisodiy muammolar va

jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

-xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

-axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

-yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini

ilmiy asosda tashkil qila olish;

-sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

Kasbiy kompetentsiyalar:

-me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida

foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

-fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish

strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

-dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy-

iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi,

ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi,

-Vatan tarixi va geografiyasini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

-xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

-tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

-muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn

aloqalarni amalga oshirishni bilish;

-korporativ axborot tizimlarini, ta'limning statistik, moliyaviy-iqtisodiy tahlili va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

Mutaxassisning nazariy bilimlarga ega bo'lishi;

- gumanitar va ijtimoiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan musikiy jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi, Maxsus pedagogika tarixi, logopediya tarixi, nazariyasiga oid bilimlarni egallash, pedagogikaning dolzarb masalalarini ilg‘ay olish va tarbiyalanuvchilarga yetkaza olish;
- ota-onalarga bolada mavjud nuqsonlarning xususiyatlari va uning rivojlanish istiqboli haqidagi ma’lumotlar berishni, ularni korreksion-pedagogik faoliyat jarayoniga teng huquqli partnerlar sifatida jalb eta olishi, ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tomondan erta tashxis qilishni, ular uchun yakka korreksion- rivojlantiruvchi dasturni ishlab chiqishni bilishi kerak.
- tashviqot ishlarini olib borishni, o‘quv-metodik ishlar bo‘yicha munozara yuritishni, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning huquqlarini himoya qilishni bilishi;
- umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim umumiy turdagi davlat va nodvlat maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish metodikasiga muvofiq til o‘rgatish(ingliz tili);
- til o‘rgatish bo‘yicha bolalar uchun o‘yinlar va mashqlarni rejalashtirish va tashkil etish;
- til o‘rgatishda didaktik materiallarni bola yoshiga mos ravishda tanlash;
- oilada xorijiy tilni (ingliz tili) o‘rgatish bo‘yicha mustahkamlovchi mashqlarni o‘rgatish bo‘yicha ota-onalarga tavsiya va maslahatlar berish;
- bolalar tomonidan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish;
- bolalarning yosh xususiyatiga ko‘ra so‘z boyligini oshirish;
- ta’limi ta’limning bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Hozirgi davrda barkamol avlodni shakllantirishda o‘qituvchi-murabbiyning jamiyat oldidagi ijtimoiy-pedagogik mas’uliyati nimalardan iborat?
- 2.Zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan asosiy talablarni sanab o‘ting. Bugungi kun pedagogi sobiq davr o‘qituvchisidan nusi bilan farq qilishi kerak?

3.O'qituvchining kasbiy mahorati va axloqiy (deontologik) sifatlari o'rtasida qanday bog'liqlik bor? Ularning qaysi biri dars samaradorligiga ko'proq ta'sir qiladi?

4.Pedagogik jarayonda o'qituvchining muomala madaniyati va nutq odobi o'quvchilar bilan sog'lom muloqot o'rnatishda qanchalik ahamiyatga ega?

5.O'qituvchining yuksak ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi o'quvchilarda mustaqil va mantiqiy fikrlashni shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatadi?

6.Pedagogik faoliyatda insonparvarlik fazilati qanday namoyon bo'ladi va u "qiyin" (o'zlashtirishi past yoki xulqi yomon) bolalar bilan ishlashda qanday yordam beradi?

7.Hozirgi davr o'qituvchisi o'z fani bo'yicha chuqur bilimlardan tashqari, yana qanday zamonaviy ko'nikmalarga (masalan, raqamli savodxonlik, keystechnologiyalar) ega bo'lishi shart?

8.O'qituvchining shaxsiy ijtimoiy-pedagogik pozitsiyasi (qarashlari) uning dars o'tish uslubi va o'quvchilar ko'z o'ngida namuna (ideal) bo'lishiga qanday ta'sir qiladi?

3-MAVZU. PEDAGOGIKA FANINING ILMIY IZLANISH METODOLOGIYASI VA METODLARI (2s)

Reja:

1. Pedagogika fanining vazifalari fanlari tizimi.
2. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Pedagogika tarbiya haqidagi modul.
3. Pedagogikaning predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. Asosiy pedagogik kategoriyalar. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.
4. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish. Pedagogik tadqiqot metodlari tizimi va ularga tavsif.

Tayanch so'zlar: pedagogika, maqsad, vazifa, obyekt, predmet, kategoriya, pedagogikaning sohalari, pedagogika fani metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot metodlari.

Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paida – «bola» va gogike – «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar

tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika – ta'lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o'rganadigan fan sohasi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Shuningdek, pedagogikaning **didaktika** sohasi (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Pedagogika fanining **obyekti** – yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogika fanining **predmeti** – ta'lim -tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

Pedagogika fanining asosiy vazifalari

Analitik: - ta'lim va tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, sabab-oqibat aloqadorligini o'rganish;

- pedagogik tajribani tahlil etish, umumlashtirish va baholash.

Prognostik: - ilmiy asoslangan maqsadlarni belgilash va ta'lim -tarbiya tizimini rivojlantirish strategiyalarini belgilash;

- ta'lim siyosatini samarali boshqarishni ta'minlash

Tashkiliy: - yangi pedagogik texnologiya, innovatsion shakl va vositalarni ishlab chiqish;

- pedagogik tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish;

- ta'lim jarayonini boshqarishning ilmiy-metodik ta'minotini yaratish

Metodologik: pedagogik fanlarning umumnazariy asoslarini aniqlashtirish

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha **kategoriya** deb ataladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyo-qarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Ma'lumot – ta'lim -tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Shakllantirish – shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish jarayoni.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va tadqiqot metodlari. Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni hal etish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika fani metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalarning ishonchliligini ta'minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlarsiz pedagogik tadqiqotlarni samarli tashkil etish va o'tkazish mumkin emasligini uqtiradi.

Ijodiy jarayonda bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

Metodologiya alohida fan sifatida ikkita funksiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va perskriptiv (me'yorlovchi). Birinchisi – obyektning nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi – tadqiqotchi uchun aniq mo'ljallanishga shart-sharoit yaratadi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi – nazariy va me'yoriy.

Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagilarni kiritish mumkin: «metodologiya» tushunchasi ta’rifi; fan metodologiyasining umumiy tavsifi, uning darajalari; metodologik bilimlar va faoliyat tizim sifatida; pedagogika sohasidagi tadqiqiy faoliyatni metodologik ta’minlash manbalari; pedagogik tadqiqot obyekti va predmetining metodologik tahlili.

Me’yoriy asos quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:

pedagogikani obyektiv borliqni ma’naviy jihatdan o’zgartirishning boshqa shaklidan farqli tomonlarini ilmiy asoslash;

pedagogika sohasidagi ishlarni fanning fundamental asoslariga muvofiqligini aniqlash;

maqsadning aniqligi; maxsus tadqiqot obyekti ajratish; maxsus bilish metodlari va vositalarini qo’llash; atamalarning bir xil qo’llanilishi;

pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtirish;

tadqiqot asosnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazi, himoya qilinadigan holatlar, ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati;

pedagogik tadqiqotning tarkibi va mantiqiy ketma-ketligi;

pedagogik fanlar tizimi, ularning o’zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo’yicha qabul qilingan direktiv va me’yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiya nazariy asosini tashkil etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta’lim ot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog’i, metodologiya predmeti – faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya demakdir.

Pedagogika metodologiyasi o’zida pedagogikaning nazariy asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga doir yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo’lga kiritishga doir faoliyat tizimini o’zida mujassamlashtiradi.

Ko‘rinib turibdiki, bu ta’rifda ilmiy bilishning ikki jihati – bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki faoliyat turi – metodologik tadqiqot va metodologik ta’minot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlari va yo‘nalishlari, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplari, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi –metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi.

Shu bilan birgalikda pedagogik muammolarning umumnazariy muammolar bilan almashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki, birinchisi «qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo‘llash mumkin» degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi – umumnazariy savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ta’lim va tarbiya mohiyati kabi umumiy savollar yechimiga qaratiladi.

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalasi respublikamiz va jahon miqyosida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Mazkur muammo ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ta’lim jarayonini tashkil qilish texnologiyalari va usullarini optimallashtirish bilan chambarchas bog‘langan. Ularning to‘laqonli hal etilishiga esa pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishda yanada moslashuvchan va taraqqiyparvar yondashuvlarni keng joriy etish orqaligina erishish mumkin. O‘z navbatida pedagogika fani boshqa fanlar kabi yangi-yangi faktlar, yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi texnologiyalar asosida rivojlanib boradi. Buning uchun esa ilmiy asoslangan tadqiqot metodlariga tayanish talab etiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari esa o‘z navbatida metodologiya tushunchasi bilan ataluvchi nazariy prinsiplar majmuasiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik metodologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili «metodologiya», shuningdek, «pedagogik metodologiya» tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. Pedagogika fanida metodologiya tushunchasining gnoseologik talqini ko‘proq ustuvorlik kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra «metodologiya» tushunchasi, mazmunan «gnoseologiya» (bilish to‘g‘risidagi fan), «nazariy bilish» kabi tushunchalarga yaqin turadi. Ushbu

yoʻnalish tarafdorlari masalaga bir tomonlama yondashib, metodologiyani faqat «bilish metodlari toʻgʻrisidagi taʼlim ot» yoki hodisalarni bilish jarayoni sifatida talqin qiladilar. Shu oʻrinda, ushbu tushunchaning «borliqni oʻzgartirish metodlari toʻgʻrisidagi taʼlim ot» ekanligini eʼtibordan chetda qoldiradilar va metodologiyani gnoseologik qolip bilan cheklab qoʻyadilar.

Pedagogika fani metodologiyasi – jamiyatning rivojlanishi sharoitida uzluksiz taraqqiy etib boruvchi pedagogik muhit holatini haqqoniy aks ettiruvchi, pedagogika nazariyasi hamda amaliyoti, taʼlim olish hamda unga yondashuv mezonlari haqidagi bilimlar tizimi.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining gʻoyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga taʼminlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs maʼnaviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada oʻrganish, mavjud koʻrsatkichlar vositasida ularning sodir boʻlish sabablarini oʻrganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bogʻliq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali boʻlgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yoʻnalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obykti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, Oʻzbekiston Respublikasida pedagogik yoʻnalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayondlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib

borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir: muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi; ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi; vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi; tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv; tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi; tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o'tish; tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida,

uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim -tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish, muammoning echimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo echimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to‘la-to‘kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo‘lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta’minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma’lum to‘xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to‘g‘risida avvaldan muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo‘lish;
- 6) suhbatdoshning o‘z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko‘p hollarda, yozma ravishda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo‘ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;

3) anketa savollari o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) anketa savollari respondentlar tomonidan to‘la javoblar berilishini ta’minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta’minlaydi. Intervyu respondent e’tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta’lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi

ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollilik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

2) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejallishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod

ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) bilimlar bellashuvi;
- 2) fan olimpiadalari;
- 3) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 4) maktab ko'rgazmalari;
- 5) festivallar;
- 6) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo echimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan

foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fanining obyekti va predmetini izohlang.
3. Pedagogika fanining asosiy vazifalariga izoh bering.
4. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini asoslang.
6. Pedagogik fanlar tizimini shartli ravishda asosiy, yordamchi va mustaqil fan sohasi yo'nalishlariga turkumlang.
7. Pedagogika fani metodologiyasi tushunchasiga izoh bering.
8. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari haqida gapirib bering.

4-MAVZU. DIDAKTIKA-TA'LIM NAZARIYASI. DIDAKTIKANING VAZIFALARI (2s)

Reja:

1. Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.
2. Ta'lim mazmuni. Ta'limni tashkil etish shakllari, metod va vositalari.
3. Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayoni umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limidir. Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
4. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar. Ta'lim tushunchasi va mohiyati.
5. Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatidagi tavsifi. Pedagog va tarbiyalanuvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari. Pedagog faoliyatining vazifasi va tuzilishi.
6. Dars – ta'lim tashkil etishning asosiy shakli.

Tayanch tushunchalar: didaktika, o'qitish, o'qitish jarayoni, didaktikaning asosiy kategoriyalari, ta'lim paradigmalari, ta'lim qonuniyatlari, ta'lim mazmuni, kompetentsiya, Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dasturi,

Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktika pedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo'lib, unda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Didaktikaning so'zma-so'z tarjimai «ta'lim nazariyasi» ma'nosini anglatadi. Didaktika «yunoncha» so'zdan olingan bo'lib, «didacticos» – o'rgatish, o'qitish ma'nosini bildiradi.

Didaktika – ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati» deb tushuntirdi.

«**Didaktika**» atamasi ilk bor nemis pedagogi Wolfgang Ratkening «Didaktika yoki ta'lim san'ati» (1613-yil) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan.

Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» (1657-yil) asarida ochib berilgan.

Didaktikada ta'limnitashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

Didaktika “nimaga o'qitish?”, “nimani o'qitish?” “qanday o'qitish?” “qayerda o'qitish” kabi savollarga javob izlaydi.

Didaktikaning obyekti – o'sib kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy madaniyatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta'lim berishdir.

Didaktikaning predmeti sifatida o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchilarning bilish faoliyati), ularning o'zaro harakati aks etadi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu

jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o'quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. O'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida o'quvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi.

Didaktikaning **asosiy kategoriyalari** quyidagilardan iborat: *o'rgatish, o'rganish, o'qitish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija.*

O'rgatish – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.

O'rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

Ta'lim – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.

Bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

Ko'nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.

Malaka – avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi.

Kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.

Maqsad – o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi.

Mazmun – o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish – qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl – o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

Vosita – o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va tinglovchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt.

Natija – o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Zamonaviy ta‘lim paradigmalari. Paradigma (grekcha, paradeigma) so‘zining o‘zi keng ma’noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o‘ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.

Paradigma – aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya.

Ta‘limning yangi paradigmasining paydo bo‘lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari – har bir alohida inson hayotining o‘ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e‘tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o‘z-o‘zini realizatsiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e‘tirof etib, insonning o‘z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o‘zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo‘yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko‘radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o‘rnatish jarayonida sodir bo‘ladi.

Asosida ta‘limga yangicha yondashuv yotadigan g‘oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo‘shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta‘lim ot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar, shular jumlasidandir.

Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta‘lim iy, tarbiyaviy), ta‘limning bosh maqsadi – madaniyatga yondashuvga, o‘quv-tarbiya jarayoni

doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va tinglovchilar orasidagi o‘zarota‘ siretish tavsifiga ko‘ra paradigmalar farqlanadi.

Ta’limning keng tarqalgan **beshta paradigma** mavjud: an’anaviy (bilimga yo‘naltirilgan paradigma); fenomenologik (insonparvarlik paradigma); ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorga doir); texnokratik; ezoterik.

An’anaviy (bilimga yo‘naltirilgan) paradigma. Bilimga yo‘naltirilgan paradigmada ta’limning bosh maqsadi: «Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir». Shuning uchun ta’lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko‘proq mavjud unsurlari – ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko‘nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o‘tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta’minlashga asoslanadi.

Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigma an’anaviy paradigmaga qarama-qarshi o‘laroq, o‘zining diqqat markazida mazmunni emas, o‘quvchilarning turli turdagi bilimlarni o‘zlashtirishining samarali usullarini qo‘yadi. Ratsionalistik ta’lim paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta’lim muassasasining maqsadi – ta’lim oluvchilarda ijtimoiy me‘yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli «xulq-atvor majmui»ni shakllantiradi. Suning uchun «xulq-atvor» atamasi “barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrlashi, his-tuyg‘usi va harakati»ni bildiradi.

Mazkur paradigma ta’lim muassasasiga ta’lim oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o‘zlashtirish yo‘li sifatida qaraydi, ya’ni har qanday ta’lim muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta’lim iy mexanizmi. Bunday o‘qitishning asosiy metodlariga o‘rgatish, trening, test nazorati, individual o‘qitish, korrektsiyalash kiradi.

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasining diqqat markazida o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo‘lgan, hayot sub’ekti, shaxs erkinligi va ma’naviyati sifatidagi ta’lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o‘sishi uchun yordamga yo‘naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta’limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya’ni ta’lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e’tirof etish yagona yo‘nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta’lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta’lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik paradigmasi ham o‘qituvchi, ham o‘quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

- ta’limning ijtimoiylashuvi – o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o‘zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta’minlash, o‘qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g‘oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

- milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo‘lish;

- ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g‘oyalariga asoslanish;

- shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

- o‘qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o‘qituvchi hamda tinglovchilarning o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

– ta’lim (xususan, kasbiy ta’lim i) jarayonida o’quv dasturlarining tinglovchilar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko’ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

– pedagogik ta’limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya’ni, tinglovchilar tomonidan o’zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta’minlovchi invariant bilimlarning o’zlashtirilishiga erishish;

– mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o’zgarib turuvchi ehtiyojlarga to’laqonli javob bera oladigan ta’limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

– ta’limning uzluksizligi, ta’limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta’minlovchi kasbiy ta’lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta’limning u yoki bu bosqichida o’qitilishi yoki o’qishni boshqa tipdagi o’quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

– ta’limning ekvivalentligi, ya’ni uning davlat ta’lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me’yorlarga muvofiq darajasi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur «aniq» ilmiy bilimlarni uzatish va o’zlashtirishdan kelib chiqadi. «Bilim – kuch», shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o’zini o’zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o’rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o’quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi «ha – yo’q», «biladi – bilmaydi», «tarbiyali – tarbiyasiz», «egallagan – egallamagan» tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma’lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo’ladi.

Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta’limiy paradigmalardan biri. Mazkur so’zning yunonchadan so’zma-so’z tarjimai «sirli», «yashirin» ma’nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o’zgarmas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni

shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o'quvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo'lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta'lim oluvchilarning axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari. O'qitish – o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O'qitish (didaktik) jarayonining mohiyatini quyidagi formula yordamida to'liq anglash mumkin: $DJ = M + A_{O'f} + A_{O'fb}$

Bu yerda:

DJ – didaktik jarayon.

M – motivatsiya.

$A_{O'f}$ – o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyati algoritmi.

$A_{O'fb}$ – o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish.

O'qitish jarayoni uchta vazifani bajaradi: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

O'qitish jarayonining **ta'limiy vazifasi** o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishdan iborat. O'qitish natijasi sifatida bilimlarining to'liqligi, chuqurligi, tizimliligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

O'qitishning **tarbiyaviy vazifasi** ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o'z

ifodasini topadi. Ta'limning tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. O'qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O'qitishning **rivojlantiruvchi vazifasi** o'quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellectual sohalarini rivojlantirishda o'z aksini topadi. O'qitish jarayonida o'quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, obyektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirishni malakasini rivojlantirishga erishiladi.

O'qitish jarayonining bosqichlari. O'qitish o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqq olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo'lidan borib, ushbu bosqichlardan o'tishi kerak.

O'qitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan iborat:

- 1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;
- 4) hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash (kompetentsiyalarni tarkib toptirish).

Har bir bosqich uchun o'quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

O'rganilayotgan materialni idrok qilish. O'quvchilarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o'qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda

material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko'rsatadi.

O'rganilayotgan materialni fahmlab olish. O'rganilayotgan obyekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davom etadi. O'qitishning bu zvenosining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilimlarni mustahkamlanishi, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi. O'quv materialini idrok etish va fahmlab olish jarayonida o'zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish (kompetentsiyalarni shakllantirish). Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash jarayoni ta'limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san'at, o'yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o'z-o'zini bilish bilan bog'langan. O'qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o'qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati – bilim, ko'nikma malaka va kompetentsiyalarni hosil qilish, o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

O'rgatuvchilik faoliyati yoki o'qitish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi va ularni mashg'ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, hatti-harakati va hokazolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo'yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o'z ifodasini topadi.

O'quv faoliyati yoki o'qish bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. O'qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va o'quvchilarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta'lim jarayonida ijobiy natijalar bo'lishi mumkin emas. Ta'lim

jarayonining bu ikki tomoni (o'qitish va o'qish) bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o'quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ma'lumki, bilish faoliyatining sub'yekti o'quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta'lim da o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchilarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun harakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bema'lol aytish mumkin.

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o'quvchi jalb etilayotgan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; sub'yekt (o'quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktiv, boshqalarda izlanishli, uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xakteri – uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari xakterigata'siretadi.

O'quvchining bilishi xuddi etuk ilmiy bilish yo'li kabi haqiqat o'qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o'rganish ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat sub'yektining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va muhim boyliklar yaratuvchi

faoliyatining qayta yaratuvchi xarakteridir. O'quvchilarning ta'lim muassasasidagi bilish faoliyatining xarakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va o'quvchining o'zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib, «men o'qidim, o'rgandim! Adolatdan emas» degan fikrni qat'iy takrorlashi bejiz emas.

Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko'maklashadi.

O'quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o'ziga xos uzoq yo'liga ega bo'lishi mumkin. Ayrim o'quv-harakatlari ta'sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o'qishning etakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o'quv va h.k.) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiyta'siretadi.

1) o'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individualashtirish imkoniyatining mavjudligi; 2) aniq bir masalani hal etishda ta'lim oluvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi.	1) vaqtning tejimli emasligi; 2) o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat); 3) boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);

	4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.
--	---

XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini **ta'limning individual-guruhli shakli** egallashiga imkon berdi.

Ulardan biri bolalarning **guruhli (jamoali) ta'lim** i sanaladi. U G'arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) **birodarlik** maktablarida ilk bor qo'llanilgan va u sinf-dars shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga ***o'quv yili, o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari*** kabi tushunchalarni kiritdi.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;	1) tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi;
2) jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning echimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;	2) bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;
3) o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi;	3) o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual
4) ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchi-	

larning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi;	xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi;
5) bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.	4) katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda **tanlab o'qitish** shakli yuzaga keldi (AQShda Batov, Yevropada **Mangeym tizimi**).

Yevropa va AQShda, XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905 yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Elena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan **ta'limning individuallashtirilgan tizimi** ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim **dalton-reja** nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba'zan **laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi** deb ham ataydilar.

Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan **ta'limning ma'ruza-seminar tizimi** yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali deyarli hech bir katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha leksiya-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Leksiya-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi.

Dars – ta'lim tashkil etishning asosiy shakli. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida

o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunki: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning turlari va tuzilishi. Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar.

Aralash darsning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o'tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish);
- v) yangi mavzuni bayon qilish;
- g) o'rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) o'quvchilarni baholash;
- e) uy vazifasini berish.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) yangi mavzuni bayon qilish;
- v) o'rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) uy vazifasini berish.

O'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o'rganilgan mavzularga doir savol-javob o'tkazish;

- v) o'rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;
- g) o'quvchilarni baholash.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o'rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);
- v) nazorat ishini o'tkazish;
- g) uy vazifasi (o'rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

Laboratoriya darslarining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) laboratoriya ishini o'tkazish;
- g) o'quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Amaliy darslarning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;
- g) o'quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Darsga qo'yiladigan talablar. Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: **o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish**. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik (yoki ta'lim)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish,

operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan **tarbiyaviy talablar** o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan **rivojlantiruvchi talablarga** o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatleri, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Dars nima?
- 2.Ta'limning qanday tashkiliy shakllari mavjud?
3. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakllarini ayting.
4. Ta'limni tashkil etishning zamonaviy shakllarini izohlang.

8-MAVZU. O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH (2s).

Reja:

1. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. 2. Ta'lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari.

3. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari.

4. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari. Metodik, didaktik, pedagogik talablarning mazmun-mohiyati.

Tayanch tushunchalar: tashxis, tashxis etish, nazorat, hisobga olish, tekshirish, baholash, baho, ta'lim sifati, monitoring.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Didaktik tashxislashning **maqsadi** o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa **tekshirish** deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi *birinchi bo'g'in* ta'lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida

o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi.

Bilimlarni tekshirishning *ikkinchi bo'g'ini* har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir**. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv material mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning **uchinchi bo'g'ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutilgan samarani beradi.

Tizimning *to'rtinchi bo'g'ini* o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi – kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda *beshinch* *bo'g'in* ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi.

Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi.

O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va xokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish – bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish **vazifalarini** bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi.

Nazoratning **tarbiyalash vazifasi** shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning **rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. **Xolislik (obyektivlik)** tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o'tkazgan o'qituvchidan qat'iy nazar xamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga

xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilar-ni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini e'lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, nuqsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Hozirgi davr pedagogik amaliyotida o'quvchilar o'quv faoliyatini nazorat qilishning qo'yidagi **turlaridan** foydalaniladi: joriy nazorat; oraliq nazorat; yakuniy nazorat.

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini har bir o'quvchining o'quv faoliyati bo'yicha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlashtirmagan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha choralar belgilaydi.

Oraliq nazorat – bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda o'tkazadi.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

Yakuniy nazorat – choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Nazoratning shakli o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy **besh shakli** mavjud:

nazoratning ommaviy (frontal) shaklida o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchini nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

nazoratning guruhli shaklida o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham qatnashishi

mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o'quvchilar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

nazoratning individual shaklidan har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida, odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan) shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha o'quvchilardan so'rash kerak bo'lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

o'z-o'zini nazorat qilish shakli ta'lim jarayonida ichki aks aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish **metodlari quyidagilar:** og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Yozma tekshirish – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng oz vaqtning ichida barcha o'quvchilarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va b. yordamida olib boriladi. Ammo o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkoni bo'lmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish malakasi aniqlanadi.

Uy vazifalarini tekshirish. O‘quvchilarning o‘zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘quv ishiga bo‘lgan munosabatini, o‘rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetensiyalarini baholash mezonlari. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo‘lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5» baho qo‘yiladi, agar: a) o‘quvchi dasturdagi materialni to‘liq o‘zlashtirib olgan bo‘lsa; b) o‘rganilgan mavzu bo‘yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo‘llay olsa; g) o‘rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo‘l qo‘ymasdan, ma’lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4» baho qo‘yiladi, agar: a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; b) o‘qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olsa; g) og‘zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ymasdan, o‘qituvchining qo‘shimcha savollari bilan xatolarini to‘g‘rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo‘lmagan xatoga yo‘l qo‘ysa qo‘yiladi.

«3» baho yiladi, agar: a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzuni o‘zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o‘qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzulishini o‘zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo‘lsa.

«2» baho qo‘yiladi, agar: a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o‘zlashtirmagan, b) yozma ishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ysa qo‘yiladi.

Ta’lim sifati monitoring. “Monitoring” atamasi ilk marotaba Birlashgan Millatlar tashkilotining 1972-yil iyun oyida Stokgolm konferensiyasini tashkil etish arafasida “nazorat” atamasiga muqobil sifatida ishlatila boshlangan.

“Monitoring – inglizcha atama bo‘lib, “uzluksiz kuzatish” degan ma’nosini anglatadi. Monitoringga ijtimoiy boshqaruv nazariyasida eng muhim, boshqaruv sohasidagi nisbatan mustaqil bo‘lim sifatida qaraladi hamda ta’lim monitoringi doirasida pedagogik faoliyat natijalari yuzaga chiqariladi va baholanadi.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitish sofati monitoring tizimi samarali yo‘lga qo‘yilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim i vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasasining monitoring guruhi

tomonidan amalga oshiriladi; tashqi nazorat – ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta'lim i boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi; davlat-jamoatchilik nazorati – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta'lim i boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi; milliy va xalqaro darajada baholash – Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta'lim i boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat; tashqi nazorat; davlat-jamoatchilik nazorati; milliy va xalqaro darajada baholash.

O'qituvchilar yoki maktab ma'muriyati, o'quvchilarning o'zlari, ota-onalar va jamoatchilik vakillari o'quvchilarning bilimlarini o'quv maqsadlari asosida tekshiradilar. Mazkur yo'nalish o'ziga xos bir qator afzalliklarga ega bo'lib, baholash bevosita o'quvchining sinfda amalga oshirilgan ishlari bilan bog'liq, bunda o'qituvchi turli uslublardan (masalan og'zaki so'rov o'tkazish, amaliy mashq bajarish, test va h.k.) foydalanib, o'quvchi tomonidan bajarilgan ishlarga baho qo'yadi. Baholash jarayoni tizimli ravishda o'quv choragi va o'quv yili davomida olib boriladi. Bunday baholashda o'qituvchilar, maktab monitoring guruhi o'quvchilarning o'zlashtirishi sifati, o'quv yutuqlariga asosiy me'yor bo'lgan davlat ta'lim standartlariga taqqoslagan holda individul baho beradilar.

Baholashning ikkinchi turi hududiy xalq ta'lim i boshqaruvi idoralari tomonidan amalga oshiriladigan hududiy o'qitish sifati monitoringi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatiladi, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularning kelib chiqish omillarini aniqlanadi, boshqa maktablar hamda bartaraf etish chora-tadbirlari rejalashtiriladi.

Shu sababli zamonaviy shaxsga, raqobatbardosh mutaxassisga qo'yilgan talablarning ortib borishi eng avvalo ta'lim muassasalari va hududiy xalq ta'lim i boshqaruvi idoralaridagi alohida tuzilmalar tomonidan ta'lim sifati monitoringini tizimli va maqsadli amalga oshirishni talab etadi. Ta'lim muassasalarida monitoring – yaxlit tizimning holati va dinamikasini kompleks kuzatish, tahlil qilish, korrektsiyalash hamda prognozlash jarayoni hisoblanadi.

Baholashning keyingi uchinchi turi – davlat attestatsiyasi va ta'lim muassasalarining akkreditatsiyasi hisoblanadi. Ular davlat tomonidan yoki uning nomidan vakolatli tashkilotlar tomonidan o'tkaziladi. Ularda qatnashish huquqiga muayyan talablarga javob beradigan barcha o'quvchilar ega. Mazkur baholash muayyan ta'lim bosqichi yoki turi tugaganidan so'ng amalga oshiriladi. Ularning asosiy va ijtimoiy jihatdan muhim vazifalari bitiruvchilar va ta'lim muassasalarining

davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmalarni bajarish holatini tahlil qilish imkonini beradi.

Umummilliy baholash – barcha o‘quvchilarni yoki ma’lum bir guruhdagi o‘quvchilarni tanlab olish yo‘li bilan muntazam ravishda o‘quvchilar o‘quv yutuqlari darajasini milliy standartlarga nisbatan mosligi baholash hisoblanadi. Mazkur turdagi baholash o‘quv dasturlari asosida olinib, imtixonlardan farq qiladi. Birinchidan, alohida olingan o‘quvchilarning bilim va malakasi darajasi emas, balki tizimning ishlash natijalari o‘lchanadi. Ikkinchidan, milliy baholash natijalari muayyan yoshdagi yoki sinfdagi o‘quvchilarning umumiy o‘zlashtirish darajasining “rentgen surati” sifatida foydalaniladi va milliy standartlarning ko‘p muddatda monitoringini olib borishga xizmat qiladi. Tanlash yo‘li bilan o‘tkazilgan umummilliy baholash qisqa muddatlarda va iqtisodiy jihatdan arzonroq o‘tkazish imkoniyatini beradi. Uning natijalari ma’lum o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quvchilar o‘quv yutuqlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni berishi mumkin.

Xalqaro baholashni yaqin 15-20 yilda tashkil etish yo‘lga qo‘yilib, ularda bir necha mamlakatlar o‘quvchilarining o‘quv yutuqlari tanlov yo‘li bilan baholanadi. Bunday keng qamrovli tadqiqotlarning asosiy maqsadi qamrab olingan muayyan yoshdagi (masalan, 13 yoshdagi o‘quvchilar) yoki sinfdagi o‘quvchilarning bir yoki bir necha o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv yutuqlarini baholash va bir qator mamlakatlar kesimida qiyoslashdan iborat. Misol tariqasida matematika va tabiiy fanlardan o‘tkazib kelinayotgan - TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study –Xalqaro matematika va tabiiy fanlarning o‘rganishdagi tendensiyalari)ni keltirish mumkin. TIMSS ning birinchi xalqaro tadqiqotida 38 mamlakatning 4-, 8- va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bitiruvchilari (11- va 12-sinf o‘quvchilari) qamrab olingan. Oxirgi uchinchi tadqiqotida esa 46 mamlakat o‘quvchilari qatnashganlar.

Yana bir xalqaro o‘quvchilar ta’limiy yutuqlarini xalqaro baholash dasturi – PISA (Programm for International Student Assessment) tadqiqoti hisoblanadi. Bu tadqiqot birinchi marta 2000 yilda o‘tkazilib, unda 32 mamlakatning 15 yoshli o‘quvchilari qatnashgan. PISA da asosiy e’tibor o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar (fizika, ximiya, biologiya)dan olgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishlarini baholashga qaratilgan. Uchinchi xalqaro tadqiqot – PIRLS da turli mamlakatlar boshlang‘ich maktablari bitiruvchilarining matnni o‘qish va uni tushunish darajasi baholanadi.

Mazkur tadqiqotlarning maqsadi – o‘quvchilar yutuqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlash va ularni xalqaro miqyosda qiyoslash bo‘lib, uning natijalariga ko‘ra ta’lim siyosati masalalari hamda o‘quvchilar o‘zlashtirishdagi tafovutlarni yaxshiroq anglab etishga qaratilgan xalqaro muloqot olib boriladi. Xalqaro tadqiqotlar nufuzining oshib borishi bugungi dunyoda globallashuv

jarayonlari natijasida mustaqil hayotga kirib kelayotgan o'quvchilarga mehnat bozorida qanday bilim va ko'nikmalar kerakligi to'g'risidagi ijtimoiy buyurtmalarni hamda raqobatbardosh mutaxassislarga qo'yilgan talablarni kengayib borayotganligidan darak beradi.

Ta'lim sifati monitoringini olib borishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari talablarining bajarish dinamikasini tizimli kuzatish, ta'lim sifatigata'siretgan omillarni aniqlash, ta'lim muassasalari, hududiy xalq ta'lim i boshqaruvi idoralari, metodik xizmat va malaka oshirish tizining faoliyatini baholab, rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni belgilash, keyingi holatni bashoratlash natijasida ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Didaktik tashxis deganda nima tushiniladi?
2. Tashxislashning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Nazorat va hisobga olish deb nimaga aytiladi?
4. Nazoratning qanday vazifalari mavjud?
5. Tekshirish deb nimaga aytiladi? Tekshirishning qanday bo'g'inlari mavjud?
6. Baholash deb nimaga aytiladi? Baho deb nimaga aytiladi?
7. Tashxislashning tamoyillarini izohlang.
8. Nazoratning turlari, shakl va metodlarini bayon eting,
9. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini tushuntirib bering.
10. Ta'lim sifati monitoring qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

9-MAVZU. PEDAGOGIK MAHORATNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

Reja:

1. Pedagogik mahorat – pedagogik kategoriya sifatida.
2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.
3. Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari.
4. Pedagogik mahoratning tashkil etuvchi komponentlari. Tarbiyachilik mahoratining mohiyati.

Tayanch tushunchalar: mahorat, pedagogic mahorat, pedagogic faoliyat, pedagogic qobiliyat.

Pedagogik mahorat – pedagogik kategoriya sifatida Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo'lishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889-1939) nomi bilan bevosita bog'liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida, ya'ni faqat tarbiyasini

emas, ma'naviy qiyofasini ham yo'qotgan bolalar bilan ishlab, ularning benihoya hurmati va ishonchiga sazovor bo'ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo'lganligining o'zi ham A.S.Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho'qqisiga erishganligining yaqqol dalilidir. YUNESKO qarori bilan uning 100 yilligiga 1988 yil - «Makarenko yili» deb e'lon qilindi.

A.S.Makarenko bo'lajak pedagog talabalik davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o'rganishi zarurligini ta'kidlab, shunday deydi: «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin».

Buyuk pedagogning bu fikriga Ukraina pedagogika instituti olimlari katta mas'uliyat bilan qarashdi. Ular bir necha yillar davomida Makarenko pedagogik mahorati maktabini, mavjud bo'lgan ilg'or nazariya va amaliyotni atroflicha tahlil qilishdi. Natijada 1979 yili «Pedagogik mahorat asoslari» fani yaratildi va u barcha pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitila boshlandi. Bu fanning tuzilish prinsipining o'ziga xosligi shundaki, u pedagogda shaxs va jamoaga ta'sir eta olishni ta'minlaydigan va turli fanlarga bog'liq bo'lgan bilimlarni tanlab, ularni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham fan dasturiga pedagogik mahorat mohiyati, o'quvchiga ta'sir etish vositalari va usullari kabi pedagogik mahoratning odatdagi masalalaridan tashqari, teatr pedagogikasi va notiqlik san'ati haqidagi ma'lumotlar ham kiritilgan. Bu fanni o'rganish pedagogika, psixologiya, metodika va boshqa pedagogik fanlardan egallangan bilimlarga asoslanadi.

Pedagogik faoliyat bu mazmunini o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish tashkil qilgan faoliyatdir.

Shuni yodda tutish kerakki, pedagogik faoliyat bu bir tomonlama emas, balki ikkitomonlama (hamkorlikdagi) faoliyatdir. Unda ikkita faol tomon ishtirok etadi: o'qituvchi – o'quvchi (o'quvchi). Maqsad – o'quvchi, o'quvchi shaxsi, uning rivojlanishidir.

Mohir pedagog deb ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkillay oladigan, buning uchun o'quvchi psixologiyasini yaxshi bilgan, o'zida pedagog uchun zarur bo'lgan kasbiy fazilatlarni mujassam etgan, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar qonuniyatlari asosida samarali tashkillay oladigan va olib boradigan pedagogga ayta olamiz (shu sababli pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanlari bir o'quv faniga birlashtirilgandir).

Mahorat faoliyatda namoyon bo'ladi. Pedagogika fanida “pedagogik mahorat” tushunchasining turli ta'riflari mavjud:

- pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo'lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo'ladi. (N.V.Kuzmina., N.V.Kuxarev);
- “o'qituvchining ilmiy bilimlari, ko'nikmalari, metodik san'ati va shaxsiy fazilatlari sintezi” (A.I.Sherbakov);

- “pedagogik faoliyatni egallanganlikning yuqori darajasi, ixtisoslikka doir bilim, ko‘nikma va malakalar hamda kasbiy ahamiyatli sifatlar majmui” (Pedagogik lug‘at);

- “kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini ta‘minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o‘qituvchi faoliyatining gumanistik yo‘naltirilgani, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlari va pedagogik texnikasi” (I.A.Zyazyun);

- “**pedagogik mahorat** deganda o‘qituvchining pedagogik–psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy–estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi” (I.P. Rachenko).

- **pedagogik mahorat** – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi (N.N.Azizxo‘jaeva);

- “**pedagogik mahorat** – o‘qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchilarning ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta‘minlovchi faoliyatdir” (A.Xoliqov);

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, “pedagogik mahorat” tushunchasiga quyidagi tarzda umumlashgan ta‘rifni berish mumkin:

Pedagogik mahorat – bu o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, talabalarda (o‘quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalashga yo‘naltirilganligi;

- mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo‘lish;

- pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan uqib olish);

- pedagogik madaniyat va texnikani egallash, ya‘ni o‘z-o‘zini boshqara olish, o‘zaro ta‘sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

1-rasm. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari

N.M.Egamberdiyevaning fikricha, pedagog shaxsining insonparvar yo‘nalganligi quyidagilarda yorqin namoyon bo‘ladi:

I. Ta’lim maqsadi, o‘quv-tarbiya jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi sifatidagi shaxsga yangicha qarash: 1) shaxs pedagogik jarayonning obyekti emas, subyekti sifatida aks etadi; 2) shaxs – qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta’lim tizimi maqsadi; 3) har bir o‘quvchi qobiliyatli, ko‘plab o‘quvchilar iqtidorli; 4) shaxsning muhim sifatlari sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi.

II. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish: 1) pedagogik muhabbat, o‘quvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash; 2) o‘quvchiga yuksak ishonch bilan qarash; 3) hamkorlik, muloqot mahorati; 4) to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlashdan voz kechish; 5) ijobiy rag‘batlantirishning muhimligi; 6) o‘quvchi shaxsiga ta’lim subyekti, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat; 7) o‘qituvchi va o‘quvchi huquqlarini tenglashtirish; o‘quvchining erkin tanlashga bo‘lgan huquqi tushuniladi.

III. Zamonaviy sharoitda to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlashdan natija bermaydigan metod sifatida voz kechish. Majburlashsiz o‘qitish quyidagilar bilan tavsiflanadi: 1) majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik; 2) o‘qitishga tug‘ma qiziqishlarni ko‘payganligi; 3) majburlashning o‘rnini muvafaqqiyatga erishishga imkon beradigan istak bilan almashtirish; 4) o‘quvchilarni erkinlik va tashabbuskorlikka qo‘yib berilishi; 5) jamoa orqali bilvosita o‘quvchilarning qo‘llanilishi; 6) o‘quvchilarga ularning subyektivligi, o‘z-o‘zini namoyon etishi, ijtimoiylashuvi, madaniy tenglashuvi, hayotiy o‘z o‘rnini belgilashiga yordam ko‘rsatish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

IV. Individual yondashuvni yangicha talqin etish: 1) “o‘quv fanidan o‘quvchiga qarab borish emas, o‘quvchidan o‘quv faniga borish” tamoyilining bajarilishi; 2) o‘quvchilarning qobiliyatlari va mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish; 3) o‘rtacha o‘zlashtiruvchi o‘quvchiga yo‘nalganlikdan voz kechish; shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash; 4) shaxsni psixologik-pedagogik tashxis etish (qiziqishlari, qobiliyatlari, yo‘nalganligi, Men-qontseptsiyasi, xarakteri, fikrlash jarayonlarining o‘ziga xosligi)ning qo‘llanilishi; 5) shaxsning o‘quv-tarbiya jarayonidagi o‘ziga xosliklarini hisobga olish.

V. Ijobiy ma’nodagi “Men-kontseptsiyasi”ni shakllantirish: 1) pedagogik muloqotning o‘quvchilarda o‘ziga ijobiy munosabatni rivojlantirishning yo‘nalganligi; 2) hayotiy faoliyatning ijobiy yo‘l-yo‘riq va motivlarini shakllantirish.

Pedagogik mahorat o‘z ichiga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, maktab haqidagi, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy

pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik deganda esa, pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. N.Azizxo'jayeva takidlab o'tganidek, bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Pedagogik qobiliyatlar – ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar va o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zaruriy shakl, metod va vositalarni samarali qo'llay olishdir.

Pedagogik qobiliyatlarni shartli ravishda uch katta guruhga bo'lish mumkin: shaxsiy, didaktik va tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar.

Shaxsiy qobiliyatlarga quyidagilar kiradi: 1) ta'lim oluvchilarga ijobiy yo'nalganlik – ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishga, muloqot qilishga intilish, ularga nisbatan do'stona munosabat, xayrixohlik; 2) vazminlik, o'z hissiyotlarini nazorat qila olishi – har qanday vaziyatda o'zini yo'qotib qo'ymaslik. Lekin vaziyat talab qilganda o'qituvchi zaruriy tarzda o'z hissiyotlarini namoyish qiladi (quvonch, qayg'u, g'azab). Lekin vazminlik befarqlikka aylanib ketmasligi kerak; 3) o'z psixik holati, kayfiyatini boshqara olish – o'qituvchi hayotida, faoliyatida har qanday noxush holat ro'y bergan bo'lsa ham o'zini tetik tutishi kerak.

Didaktik qobiliyatlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: 1) tushuntirish qobiliyati – o'rganilayotgan materialni ta'lim oluvchilar uchun tushunarli qilib etkazish, buning uchun o'qituvchi ta'lim oluvchilar uchun yangi bo'lgan materialni “ularning ko'zlari bilan ko'ra bilishi kerak”; akademik qobiliyat – o'z fanini, sohasini chuqur bilishi, umumiy va ilmiy dunyoqarashning kengligi; nutq qobiliyati – o'z fikrlari, his-tuyg'ularini tushunarli qilib ifoda etishi, muloqotning noverbal vositalari: mimika va pantomimikalardan o'rinli foydalana olishi. Bunda suhbat predmetini bilish, etkazayotgan ma'lumotlariga nisbatan ishonch, nutqni “og'irlashtiruvchi” tuzilmalardan foydalanmaslik, qo'llanilayotgan atama va tushunchalarga izoh berish, nutq tezligi va ovoz balandligi nazarda tutiladi.

Tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi: tashkilotchilik qobiliyati – o'quvchilar jamoasini tashkillay olish va o'z faoliyatini tashkillay olish; rejalashtirish, nazorat qilish; kommunikativ qobiliyat –

o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda muloqotni to'g'ri tashkillash; pedagogik kuzatuvchanlik – o'quvchining ko'rinishidan undagi ichki kechinmalar, kayfiyatini bilib olish, sezgirlik; pedagogik takt – ta'lim oluvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatishda aniq vaziyatdan, ta'lim oluvchi shaxsi xususiyatlaridan kelib chiqish va uning nafsoniyatiga tegmaslik; suggestiv qobiliyat – ta'lim oluvchiga emotsional-irodaviy ta'sir o'tkazish, talab qo'yish va talabning bajarilishini qat'iy nazorat qilish (bir tomondan qo'rqitishsiz, qistovsiz – boshqa tomondan bo'shlik qilmasdan); pedagogik prognoz – o'z harakatlari natijasini, shaxsida bo'lib o'tadigan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish; diqqatni to'g'ri taqsimlay olish – bir paytning o'zida bir necha faoliyatni olib borish: materialni bayon qilish, o'z fikrlarini kuzatib borish, berilayotgan savollarga javob berish, ta'lim oluvchilar jamoasi hulqini nazorat qilib turish.

Pedagogik adabiyotlarda o'qituvchining kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi mahsulдор sabablar (omillar) umumlashtirilib pedagogik madaniyat nomi bilan qayd etiladi. Boshqa tushunchalar singari pedagogik madaniyatning ham bir necha xil ta'riflari mavjud. Biroq barcha ta'riflarda pedagogik madaniyat tushunchasi uch ilmiy jihatdan, ya'ni aksiologik, faoliyat va shaxsga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan talqin etilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aksiologik yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – tarbiya haqidagi fan sifatida pedagogika tayanadigan pedagogik qadriyatlar majmuidir. Ushbu qadriyatlar moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazariga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik faoliyatdagi tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi subyekt sifatida kasbiy etuk pedagog shaxsining muhim sifati. Faoliyatli yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik qadriyatlarning tadbiq etilishini ta'minlovchi, o'qituvchi kasbiy faoliyatining o'ziga xos usullari majmuidir.

Pedagogik madaniyatning mufassal tavsifi L.D.Stolyarenko tomonidan quyidagicha ochib berilgan: “Pedagogik madaniyat – bu umuminsoniy madaniyatning bir bo'lagi bo'lib, unda eng avvalo, avlodlar almashinuvi va shaxsning ijtimoiylashuvi kabi tarixiy jarayon uchun xizmat qilishda insoniyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy va moddiy qadriyatlar aks etgan”.

O'qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo'lishini taqozo etadi:

1) shaxsga yo'nalganlik: e'tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik tuyg'usining mavjudligi;

2) kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyjanoblilik, xolislik;

3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg'usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o'z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;

4) qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma'naviy ehtiyojlarning ko'pqirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo'lishi, tashqi ko'rinish va nutq madaniyati.

Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obyektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari — ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. A.Xoliqov tomonidan e'tirof etilganidek, o'qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi asrlar davomida yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning umuminsoniy g'oyasi sifatida xizmat qilib kelayotgan tarbiyaviy ishni amalga oshirish bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatning asosiy turlari sifatida tarbiyaviy ish va o'qitish aks etadi. Tarbiyaviy ish — bu tarbiyaning tizimlilik, to'raligi, uzviyligi va uzluksizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchilarning muaiyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir. Tarbiyaviy ishning asosiy xususiyati — zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat.

Tarbiyaviy ishlar asosida ikkita: faol va majmuaviy yondashuvlar yotadi. Yondashuvlarning birinchisi, faoliyatning bilish, mehnat, ijtimoiy, badiiy, sport va erkin muloqot kabi turli ko'rinishlarini tashkil etishni talab etadi. Ikkinchi majmuaviy yondashuv esa, faoliyatning barcha ko'rinishlarining yagona jarayonga ta'siri bilan tabiiy "ko'shilib" ketishida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy ishlar, ayni paytda, o'ziga axlokiy, estetik, hissiy va aqliy (intellektual) ta'sirlarni kamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo'nalishiga ishora qilsa, majmuaviy yondashuv — uning mazmun tabiatini (pedagogik maqsad (vaziyat, tarbiyaviy maqsadning asosiy va bog'liq tomonlarini shakllantirish)ni; rsjalashtirish; tashkil etish va

tayyorlashni; ishni bsvosita amalga oshirishni; erishilgan natijalar tahlilini) belgilaydi.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakatidir. O'rgatish – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyatini aks ettirsa, o'rganish anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni bo'lib, avval egallanganlari o'zgaradi.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatning o'zaro bir-biri bilan aloqador quyidagi uch tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadi: konstruktiv, tashkilotchilikka doir va kommunikativ. Konstruktiv faoliyat mazmunli (o'quv materialini tanlash va tizimlashtirish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv operativ (o'zining va o'quvchilarning harakatlarini rejalashtirish); konstruktiv-moddiy (pedagogik jarayonning o'quv-moddiy bazasini loyihalash) jihatlarni o'zida aks ettiradi. Tashkilotchilik faoliyati – o'quvchilarni faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish. Kommunikativ faoliyat – pedagogning ta'lim oluvchilar, o'qituvchilar jamoasi, jamoatchilik, mahalla va ota-onalar bilan munosabatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z

faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi».

3. Pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonda o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiqan o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarini «o'sib» uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish;

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim.

Qobiliyatning psixologik tavsifi. Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, bu xususiyatlarni xaddan tashqari keng to'ldirish imkoni oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi, hattoki

shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liq faoliyatning muvaffaqiyatli bajarish imkonini aslo yo'q emas.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir.

Ko'nikmalar – o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Malakalar – o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi.

Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi. Faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar to'g'risida mulohaza yuritish imkonini beradi.

Demak, shaxsniig faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofik; a) shaxsning muayyan sifatleri yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa-unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir; b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa-psixologik sifatlar, ya'ni qobiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir). Lekin xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqti cho'zilib ketadi, xolos.

Shunday qilib, qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan birga: a) ularni shaxslarning mavjud boshqa xususiyatlariga, aqliy sifatlarga, xotira xislatlarga xarakter fazilatlariga, hissiy kechinmalariga va boshqalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas; b) shuningdek, qobiliyatlarni shaxsning mazkur xususiyatlari bilan qatorga qo'yish, ularni ayniylashtirish ham nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Shuni ta'kidlash joizki, mulohaza bildirilgan sifatlardan ba'zi biri yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bera olsa yoki ularning ta'sirida vujudga kelsa, u holda shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb atash imkoniyati tug'iladi.

Biz qobiliyatni shaxsni tabiiy imkoniyatlari deb tushunishimiz mumkin emas, chunki, qobiliyatni biz "har bir insonning o'ziga xos psixologik xususiyatlari" deb aniqlashtirdik, shuning uchun bu har qanday shaxsda mavjud bo'lgan tabiiy

xususiyat deb xulosa chiqarish aslo mumkin emas. Tabiiy bo'lib faqat anatomo-fiziologik xususiyatlar, ya'ni qobiliyatning rivoji asosida yotgan iste'dod bo'lishi mumkin, qobiliyatning o'zi ham doimiy rivojlanish natijasida paydo bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, qobiliyat o'zining mavjudligi bilan dinamik tushunchadir. Qobiliyat faqat harakatda, faqat rivojlanishda paydo bo'ladi. Psixologik jihatdan qobiliyat haqida, o'zining rivojlanishdan oldin mavjud bo'lganligidek hamda qobiliyat o'zining to'la rivojiga etib, o'zining rivojlanishi to'xtashi haqida so'zlash aslo mumkin emas. Chunki qobiliyat doimiy rivojlanishda bo'lishi kerak.

Qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud deb, biz bu rivojlanishni u yoki boshqa amaliy yoki nazariy faoliyat jarayonida amalga oshishini nazardan chetda qoldirishimiz mumkin emas, albatta. Bundan xulosa qilinadiki, qobiliyat aniq faoliyatdan tashqarida paydo bo'lmaydi. Faqat uni psixologik tahlil yo'li bilan biz ularni bir-biridan ajrata olamiz. Qobiliyatni aniq faoliyat boshlanishidan oldin mavjud va faqat uning yakunida qo'llaniladi, degan xulosaga kelish aslo mumkin emas. Go'dakda absolyut eshitish qobiliyati, tovush balandligini bilish dunyoga kelishidan oldin mavjud bo'lmaydi. Ungacha faqatgina anatomo-fiziologik haqiqatdek iste'dod nishonasi mavjud bo'lgan. Gap qobiliyat faoliyatda namoyon bo'lishida emas, balki ularning shu faoliyatda yaratilishidadir.

Qobiliyatning rivojlanishi, umuman har qanday rivojlanish ham bir tekisda kechmaydi: uning harakat kuchi ziddiyatlikning kurashidir, shuning uchun rivojlanishning turli bosqichida qobiliyat va qiziqishlar o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Lekin bo'lishi mumkin bo'lgan bunday ziddiyatlarni tan olish, qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi qobiliyatdan mustaqil yoki aksincha, qobiliyat – qiziqishlardan paydo bo'lib qolmaydi.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga hos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

1) matematik qobiliyat: matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish - amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan o'tishlik, masala echishda fikr yuritishning epchilligi kabilar;

2) adabiy qobiliyat; nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, «til zehni», behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy

qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Rus olimi I.P.Pavlov o'z ta'limotida "badiiy", "fikrlovchi", "o'rta" tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal sistemasidan iboratligi to'g'risidagi ta'limotiga asoslanadi. Birinchi signallar sistemasi obrazlar emotsiyalardan va ikkinchi sigiallar sistemasi esa obrazlar haqida so'zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signallar sistemasi I. P. Pavlov tomonidan "signallarning signali" deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

1) shaxs psixik faoliyatida birinchi signallar sistemasining signallari nisbatan ustunlik qilsa, bu inson "badiiy" tipga taal-luqlidir;

2) mabodo "signallarning signali" nisbatan ustuvor bo'lsa-bu shaxs "fikrlovchi tipga" munosibdir;

3) agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo'lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) - bu inson "o'rta tipga" mansub odamdir.

4) Tipologiyaning o'ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. "Badiiy tip" uchun bevosita u taassurotlar, jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg'ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligiga xosdir.

2. "Fikrlovchi tip" uchun mavhumlarning, mantiqiy tizilma-larning, nazariy mulohazalarning, metodologik muammolarning us-tunligi muvofiqdir.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1.Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati. O'qituvchi o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.

2.Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati: Ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.

3.Eshitish va his qilish qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.

4.Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat. O'qituvchining o'z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtni

harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

5. Mantiqiy qobiliyat. Falsafiy mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi;

6. Shaxsning ichki qobiliyati. O'z-o'zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat'iyatli, har qanday vaziyatda o'z fikr-mulohazasini erkin bayon eta oladi.

Yaqqol qobiliyatlar tuzilishini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari, fazilatlar orasida ma'lum turkumi yetakchilik, ustuvorlik qilsa, ayrimlari yordamchilik vazifasini bajaradi. Ma'lumki, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida yetakchi xislatlar sifatida pedagogik odob (takt), bolalarni sevish, o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni boshqarish, kuzatuvchanlik, talabchanlik, bilimlarga chanqoqlik, bilimlarni uzatishga o'quvchanlik va shunga o'xshashlar tan olinadi. O'qituvchilik qobiliyatining yordamchi (ko'shimcha) fazilatlariga quyidagilar kiradi: artistlik, nutqiy qobiliyat, diqqatni taqsimlash, akademik qobiliyatlar va hokazo. Pedagogik qobiliyatlarning yetakchi (asosiy) va yordamchi (qo'shimcha) tarkiblari, jabhalari ta'lim jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni (birikuvni) yuzaga keltiradi hamda o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan hamkorlik, individual faoliyatini tashkillashtiradi. Qobiliyatlardan muayyan darajada umumiy va torroq ma'noda maxsus sifatlarni ajratish orqali ma'lum turkum tizimini yuzaga keltirish mumkin. Bundan kelib chiqqan holda qobiliyatlarni umumiy va maxsus qobiliyatlar guruhiga ajratish maqsadga muvofiq. Umumiy qobiliyatlar (sifatlar) maxsus qobiliyatlarga (sifatlarga) zid tarzda talqin qilish mumkin emas. Shaxsning umumiy qobiliyatlari hosil qiluvchi omillar yaqqol psixologik hodisa yoki voqelikdir. Maxsus qobiliyatlar ko'lam jihatdan torrok bo'lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o'zlarida mujassamlashtiradi.

Pedagogik qobiliyat va uning tuzilishi. Pedagogik qobiliyat – bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi.

Pedagogik psixologiyada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan.

Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlab o'tganidek, pedagogik jarayon o'qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o'quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog'liq. Bola shaxsining rivojlanishida o'qituvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o'qituvchining

tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo'yiladi, shuning uchun ijtimoiy-tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko'lamining ortishiga bevosita bog'liq.

XX asrning 70-80-yillarda o'qituvchining xarakter-xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o'rganildi. Jumladan, rus olimasi N.V.Kuzmina o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o'rnini va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. U o'z tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni gnostik (bilishga oid), proyektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan), konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chuqur psixologik ta'rif beradi. N.V.Kuzmina pedagogik qobiliyatning muhim alomatlari qatoriga kuzatuvchanlikni ham kiritadi, o'qituvchining bu hislati o'qituvchining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi A.I.Shcherbakov fikriga ko'ra, pedagogik faoliyat – bu o'qituvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat o'qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatga, mustahkam xarakterga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lishini taqozo qiladi. A.I.Shcherbakov o'qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi: 1) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat; 2) yo'nalishning aniq ifodalanganligi; 3) yuksak axloqiy hislarning mavjudligi; 4) yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik; 5) qat'iy va silliq xarakter; 6) pedagogik qobiliyatlar.

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

- 1) didaktik qobiliyatlar; 2) akademik qobiliyatlar;
- 3) pertseptiv qobiliyatlar; 4) nutq qobiliyatlari; 5) tashkilotchilik qobiliyati;
- 6) avtoritar qobiliyatlar; 7) kommunikativ qobiliyatlar; 8) pedagogik xayolot;
- 9) diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to'g'risida mukammal ma'lumotlar beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshishi ko'p jihatdan pedagogning maxsus pedagogik qobiliyatlarni egallaganligiga bog'liq: T.I.Gavakov pedagogik qobiliyatlarni quyidagi tarzda guruhlashtirishni taklif etadi: obyekt (ta'lim oluvchilar)ni his eta olish; kommunikativ (kishilar bilan aloqa o'rnatish, samimiylik, muloqotchanlik); pertseptiv (kasbiy etuklik, empatiya, pedagogik intuitsiya); shaxs dinamik (irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishlantirish qobiliyati); emotsional barqarorlik (o'z-o'zini boshqara olish qobiliyati); kreativ (ijodiy ishga qobiliyatlilik).

Maxsus qobiliyatlar ham o'qituvchining o'rgatuvchilik, ham tarbiyaviy ishiga taaaluqlidir. O'qituvchining o'qitish, o'qish va o'rgatishga doir qobiliyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: o'rganiladiganlarini ko'ra olish va his eta olish qobiliyati; o'quv materialini mustaqil tanlay olish, ta'limning samarali metodlari va maqbul vositalarini aniqlay olish; o'quv materialini tushunarli bayon eta olish, uning barcha ta'lim oluvchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash; ta'lim oluvchilarning individualligini hisobga olish bilan bog'liqlikda o'qitish jarayonini tashkil eta olish qobiliyati; o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati; ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishini tashkil etish qobiliyati; o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati; o'zining shaxsiy tajribasini boshqalarga uzatish qobiliyati; mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilik.

Tarbiyaviy ishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogik qobiliyatlar quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi: boshqa kishilarning ichki his-tuyg'ularini to'g'ri baholay olish, boshqalar haqida qayg'ura olish qobiliyati (empatiyaga qobiliyatlilik); taqlid uchun namuna bo'lishga qobiliyatlilik; tarbiyaviy jarayonda individual o'ziga xosliklarini hisobga olishga qobiliyatlilik; rag'bat va o'zaro bir-birini tushunish, muloqotni zarur uslubini tanlay olishga qobiliyatlilik; o'ziga hurmat bilan munosabatda bo'lish, tarbiyalanuvchilar orasida obro'ga ega bo'lish qobiliyati.

Pedagog olim I.P.Podlasiy pedagogik qobiliyatning tuzilishini quyidagi tarzda aniqlashtirgan:

- 1) tashkilotchilik – ta'lim oluvchilarni jipslashtirish, ularning faoliyatini rejalashtirish, jamoaviy ishga jalb etish, yakunlarini chiqarish;
- 2) diagnostik – o'quv materialini tanlay olish, o'quv materialini tushunarli, aniq, obrazli, ishonchli va tizimli bayon eta olish; o'quvchilarning bilishga qiziqishlari va intellektini rivojlantirishni rag'batlash, o'quv-biluv faolligini oshirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka qobiliyatlilik;
- 3) pertseptiv – ta'lim oluvchilarning ichki olamiga ta'sir ko'rsatish; ularning emotsional holatini xolis baholash, psixikasidagi o'ziga xosliklarni aniqlay olish ko'nikmasi;
- 4) kommunikativ – ta'lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o'rnatish ko'nikmasi;
- 5) suggestiv (suggestiya - ishontirish) – o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatish;
- 6) tadqiqotchilikka doir – pedagogik jarayon va vaziyatlarni anglash hamda obyektiv baholay olish ko'nikmasi;
- 7) ilmiy-bilishga doir – tanlangan ixtisoslikka doir belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallay olish qobiliyati;
- 8) gnostik – obyekt, jarayonni va o'z faoliyati natijalarini tadqiq etish hamda olingan natijalar asosida uni korrektsiyalay olish qobiliyati.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Didaktik qobiliyat – bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi zarurat tug'ilgan holatlarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi.

3. Pertseptiv qobiliyat – qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna olish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchi ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat – ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq, shuningdek, o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi, qobiliyatli o'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – sinf-guruh yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati - o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi – avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro'ga ega bo'lish o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazo), shuningdek,

o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, bu ishonchni o'quvchilarga ham yetkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

7. Kommunikativ qobiliyatlar – muomala va muloqot o'rnatish olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o'quvchilarga to'g'ri yondashish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Psixologik tashxis (diagnoz)ga doir qobiliyatlar – insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiyot etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – bir necha obyektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. O'quvchi, o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishining taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmunini va shaklini, o'z fikrini (yoki o'quvchi fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishini) ham kuzatib boradi.

10. Konstruktiv qobiliyat - o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o'quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

11. Gnostik qobiliyat – tadqiqotga layoqatlilik bo'lib, o'z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o'rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o'rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg'usi va iroda sifatlarining namoyon bo'lishidan iborat ekanligini ko'rsatdi. Pedagogik qobiliyatlar umumiy qobiliyat: masalan, adabiy va ilmiy ijod qilish, loyihalash qobiliyatlari bilan bog'langan. Ular o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bunday o'qituvchilar o'z o'quvchilarini (talabalarni) ana shu faoliyatga jalb qila borib, ularga ta'lim va tarbiya berishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchi xarakter-xislatlari bilan bog'liq. Uyushqoqlik, qat'iylilik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasining ortishiga olib

keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko'ngilchanlik, adolatsizlik pedagog faoliyat samarasini pasaytiradi.

Har bir o'qituvchi o'ziga xos individual-psixologik xislatlarga ega bo'ladi. Ulardan ba'zilar harakatchanroq, boshqalari sustkashroq, ba'zilar qattiqqo'lroq, boshqalari yumshoqroq bo'ladilar. Bu xususiyatlar yaxshi, ulardan oqilona foydalanishni bilish katta ahamiyat kasb etadi. Bundan o'qituvchiga his-tuyg'ular, emotsiyalar yot bo'lishi kerak, degan ma'no kelib chiqmaydi, aksincha u quvonishi ham, g'azablanishi ham, qayg'uga tushishi ham, xafa bo'lishi ham mumkin va lozim. Shu o'rinda rus pedagogi A.S.Makarenkoning quyidagi fikrlarini yana takror keltirish o'rinlidir: "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin". Bu yerda gap o'qituvchining qandaydir bir andozadagi (qolipdagi) shaxsga barovarlashtirish zarurligi to'g'risida emas, balki uning o'z individual sifatlaridan ustalik bilan foydalanishi, o'zida shaxsning zarur xislatlarini tarkib toptirishi, o'z kamchiliklariga barham berishi to'g'risida boradi.

O'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari tizimi. O'qituvchilik faoliyati "Inson-inson" kasb guruhiga kiradi. Pedagog professiogrammasiga e'tibor qaratilganda, biz mutaxassis yuksak axloqli, kuchli irodaga egalik, aniq maqsadga egalik, odamlarni tushuna olishi, e'tiborli bo'lishi, tasodifiy vaziyatlarga tez yo'nalgan bo'lishi, hissiy javobgarlikka ega bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

M.G.Davletshinning fikricha, pedagogik professiogramma (kasbiy tasnifnoma)da bo'lajak pedagoglarga xos quyidagi sifatlar aks etishi kerak:

- shaxsiy xislatlar (bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va boshqalar);
- kasbga xos bilimlarga egalik (ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi va boshqalar);
- o'z kasbiga xos xislatlar (hozirgi zamon pedagogikasining metodologik bilimlarni egallashi, kuzatuvchanlik, diqqat-e'tiborni taqsimlay olishi, pedagogik fantaziyaning rivolanganligi, pedagogik takt va hako'zolar);
- shaxsiy-pedagogik uddaburonlik (mashg'ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olish, o'quv maqsadlarini rejalashtira olish va boshqalar);
- muloqotga kirisha olish (kommunikativlik) malakaga egalik (bolalarni o'ziga alb etishni bilish, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilish, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilish va hako'zolar);

- gnostik (bilish) malakalariga egalik (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti daraasini aniqlay olish, o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natialarini tanqidiy tahlil qila olishi va boshqalar);

- ijodiy xislatlari (pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilish, o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati va hakovzolar).

E.M.Ivanov kasbiy faoliyatga individ va mehnat jamoasining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy o'zaro harakati usuli sifatida qaraydi. B.G.Ananov, K.K.Platonov va M.O.Ochilovlar kasbiy faoliyatda individ va xodim shaxsini shakllantirishga ta'sir etishda o'zaroaloqadorlikning mavjudligini qayd etib o'tishadi.

V.A.Slastyov, S.B.Elkanov, A.J.Ajibaevlar "pedagogik kasb tarbiyasi" tushunchasini quyidagicha izohlashadi: "Natijasi bo'lajak pedagog tomonidan kasbiy qadriyatlarni va ideallarni egallash, uning ma'naviy ehtiyojlarini va qiziqishlarini, ijtimoiy qimmatga ega motivlarni kengaytirish, hissiy, axloqiy va estetik tuyg'ularni, empatik qobiliyatlarni boyitish, amaliy pedagogik ko'nikma, malaka, odatlarni, o'z-o'zini refleksiya qilish tajribasini egallash kabi shaxs xususiyatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan tadrijiy dialektik harakatdir".

Pedagogik mutaxassislik – mazkur kasb doirasidagi, ta'lim natijasida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini tavsif etuvchi, hamda ularning qo'yilishi va o'zlashtirayotgan malakasiga muvofiq muayyan kasbiy-pedagogik vazifalarni hal etilishini ta'minlovchi faoliyat turi.

Pedagogik mutaxassislik – pedagogik ixtisos doirasidagi muayyan faoliyat turi. U aniq mehnat predmeti va mutaxassisning aniq funktsiyasi bilan bog'liq.

Pedagogik malaka – mutaxassisning ma'lum turdagi vazifani hal etishdagi imkoniyatlarini ifodalovchi kasbiy-pedagogik tayyorlanganlik darajasi va ko'rinishi.

Kasbiy faoliyat yaxlit tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o'zida uyg'unlashtiradi. I.P.Podlasiyning kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnifidan kelib chiqib, N.M. Egamberdieva pedagogik ta'limdagi kasbiy etuklik (professionallashuv), ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy ijodkorlikning zamonaviy yo'nalishlariga muvofiq keluvchi quyidagi muhim tuzilishli tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatadi:

- pedagogik madaniyat;
- pedagog ijodkorligi;
- pedagogik aql-idrok;
- kasbiy chuqur bilimga egalik;
- individual faoliyat uslubi;
- ijodiy tashabbusning rivojlanishi;
- individual faoliyat;

- insonparvarlikka yo'naltirilganlik;
- ijtimoiy faollik.

Istalgan kasbiy faoliyat zaruriy kasbiy sifatlarni shakllantirish tizimi asosida amalga oshadi. Bundan kelib chiqadiki, istalgan faoliyat belgilangan sifatlarga to'plamini talab etadi. A.V.Karpovning fikricha, kasbiy zaruriy sifat – bu uni belgilangan me'yor darajasida amalga oshirish uchun etarli va zarur faoliyat subyekti individual xususiyatidir. Uning ta'kidlashicha, kasb vazifasida faqatgina shaxsiy psixik emas, balki psixikadan tashqari – somatik, biologik, morfologik, tipologik, neyrodinamik xususiyatlar ham yuzaga chiqishi mumkin. Bundan tashqari olim kasbiy etuklikning tuzilishini ifoda etuvchi individual sifatlarga guruhini ham belgilab beradi:

- absolyut kasbiy zaruriy sifatlarga – o'rtacha darajadagi faoliyatni bajarish uchun zarur xususiyat;
- o'zida faoliyatning yuqori va sifat ko'rsatkichlariga erishish imkoniyatini aniqlab beruvchi muhim kasbiy zaruriy sifatlarga;
- u yoki bu faoliyatni amalga oshirishga motivatsion tayyorlik;
- anti kasbiy zaruriy sifatlarga – ularning rivojlanishining minimal darajasini taklif etuvchi yoki biror va shunga o'xshash faoliyatda qarama-qarshi ko'rsatkich sifatida yuzaga chiquvchi xususiyatlar.

N.M.Egamberdievaning fikricha esa, o'qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlari mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- 1) shaxsga yo'nalganlik: e'tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik his-tuyg'usining mavjudligi;
- 2) kasbiy-axloqiy sifatlarga: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyjanoblilik, xolislik;
- 3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg'usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o'z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;
- 4) qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma'naviy ehtiyojlarning ko'p qirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo'lishi, tashqi ko'rinish va nutq madaniyati.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatlari quyidagi turkumlash mumkin:

Pedagogning kasbiy zaruriy sifatlari: mehnatsevarlik, ishchanlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, maqsadni aniq belgilay olish, unga erishish yo'llarini tanlay olish, tashkilotchilik, qat'iyatlilik, adolatlilik, mahorat, pedagogik takt, talabchanlik, ilg'or

pedagogik texnologiyalarni egallash, o'z mehnati samaradorligini muntazam oshirib borish va boshqalar.

Pedagogning shaxsiy sifatlari: insoniylik, samimiylik, mehribonlik, sabr-chidamlilik, tartiblilik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, javobgarlik, burchga sadoqat, insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, iltifotlilik, qalban g'amxo'rlik ko'rsatish va boshqalar.

O'qituvchining kasbiy bilimlari darajasi. O'qituvchining pedagogik qobiliyati tizimida kasbiy bilimlar asosida shakllanadigan qoida va tamoyillarning anglanishi muhim ahamiyati ega. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, o'qituvchining kasbiy bilimlari darajasini quyidagi tarzda turkumlash mumkin: 1) metodologik – umumfalsafiy doirada rivojlanish qonuniyatlariga doir bilimlar, tarbiya maqsadining shartlanganligi va boshqalar; 2) nazariy – pedagogika va psixologiyaning qonunlari, tamoyillari va qoidalari hamda faoliyatning asosiy shakllari; 3) metodik – o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish darajasi; 4) texnologik – aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etish darajasi; 5) kasbiy fikrlash – pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan bilimlarni tanlash, tahlil etish va umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish qobiliyati; tanqidiy fikrlash – biror bir harakatga doir qaror qabul qilishda ratsional, refleksiv fikrlash; aqlning tanqidiyligi – bu insonning o'zining va boshqa fikrlarni obyektiv baholay olish, ilgari surilayotgan fikr va g'oyalarni har tomonlama va chuqur tahlil etish ko'nikmasi; ijtimoiy etuklik – jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyat, me'yori, ustanovka, xulq-atvor namunalarini egallaganlikning yuqori darajasi; faoliyat strategiyasi – istiqboldagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejalashtirish mahorati; kasbiy salohiyati – belgilangan darajada o'zining majburiyatlarini bajara olish qobiliyatini aniqlab beruvchi tabiiy va o'zlashtirilgan sifatlarning yig'indisi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik mahorat nima?
2. Pedagogik mahoratning shakllanish bosqichlari qanday bo'ladi?
3. Pedagogik faoliyat deganda nimani tushunasiz?
4. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. O'qituvchilik kasbiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
6. Pedagogik mahoratning qanday tarkibiy qismlari mavjud?

10-MAVZU. KORREKSION PEDAGOGIKA ASOSLARI (2s)

Reja:

1. Korreksion pedagogika fanining maqsadi.

2. Korreksion (maxsus) pedagogika.
3. Korreksion-pedagogik faoliyat.
4. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Aqliy rivojlanishi, eshitish, ko'rish, nutkida nuqsoni bor bolalar.

Tayanch tushunchalar:

Maxsus pedagogik defektologiya, anomil bolalar, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya, eshitishida nuqsoni bor bolalar, tug'ma nuqsonlar, ko'zi ojiz bolalar, zaif ko'ruvchi bolalar, kar – soqov bolalar, og'iz nutq nuqsonli bolalar, ruhan sust rivojlangan bolalar, aqli zaif bolalar, yordamchi maktab, oligofren bolalar, ruhiy ortopediya, sensomotor madaniyat, pedagogik xususiyat.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari.

Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsud) pedagogika (defektologiya — yunoncha defectus — nuqson, kamchilik, logos — fan. ta'limot) — rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega. Maxsus individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan.

Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:

Pedagogik lug'atda «korrektsiya» tushunchasi (yunoncha «korrektion» tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Ana shu lug'atda «korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'lig'i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi - belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora- tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan birqatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida

anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;

differensatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;

anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;

rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora- tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Korreksion pedagogikaning kategoriyalari. Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar etkaziladi. psixik funktsiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funktsiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

Anomal bolalarni tarbiyalash — korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarifi qo'llab- quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion - tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion — tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlaryaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» — o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funktsiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

Litimoiv reabilitatsiya (yunoncha «rehabilitas» — layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibalida buzilgan funktsiyalarning o'rnini to'ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizirida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

litimoiv adaptatsiya (yunoncha «adapto» - moslashish) - anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlarini tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati etmaydi. Ijtimoiy

adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

Oilaviy tarbiya rehabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish — murakkab ijtimoiy- pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bolgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl-, metod va vositalarini ishlab chiqish.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

Bolalarni rehabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik choratadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, etarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-

pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalos — noto‘g‘ri) bolalarga jismoniy yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti tarixi anomal bolalarga bo‘lgan munosabatlarning uzoq vaqt davomida evolyutsion tarzda shakllanib kelganligini ko‘rsatadi.

Antik davrda qadimgi Spartada bir necha yuz yilliklar davomida sog‘lom tana, kuch, chidamlilik yuqori o‘ringa qo‘yilib, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar yo‘q qilinardi. Mazkur davrda yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni qabila boshliqlariga olib kelardilar, ular bolalarni sinchiklab ko‘rib agarda ijtimoiy talablarga javob bera olsalar, ular ota-onalariga tarbiyalash uchun qaytarilar edi. Agarda bolada birorta nuqson topilsa uni qabila boshliqlari Tayget jarligiga tashlab yuborar edilar (eramizdan avvalgi 4-5 asrlar).

Evropada o‘rta asrlarda bolaning rivojlanishidagi har qanday nuqson qora, yovuz kuchlarning namoyon bo‘lishi sifatida e‘tirof etilib, psixik kasalliklari bo‘lgan kishilar inkvizitsiya gulxanida yondirilganlar.

Uyg‘onish davridan boshlab XIX asrning o‘rtalarigacha Evropa defektologiya fani va amaliyotida bolaning aqliy rivojlanishidagi nuqsonlar muammosi borasidagi qarashlarning evolyutsion xarakterini anglash mumkin.

Ruhiiy kasallarga nisbatan insonparvarlik vondashuvi ilk bor fransuz shifokori, psixiatri Filipp Pinel (1745— 1826-yillar) tomonidan ilgari surilgan. U ruhiy kasalliklarni klassifikatsiyalagan (turlarga ajratgan).

Rivojlanishida nuqsonlar bo‘lgan bolalarga nisbatan pedagogik yondashuv 18 asr oxirlari — 19 asr boshlarida yuzaga keladi. Aqli zaif bolalarni maxsus usullar vordamida o‘qitish va tarbiyalash g‘oyasini Iogan Genrix Pestalotssi (1746— 1827-yillar) asoslagan bo‘lsada, biroq, o‘z davrida bu fikr qo‘llab-quvatlanmadi. I.G.Pestalotssi «aqli zaiflar» bilan ishlash tamoyilining mohiyatini asoslab berdi: bolaning imkoni etgan bilimlarni berish, didaktik materiallardan foydalanishda aqliy va jismoniy tarbiya uyg‘unligiga erishish, ta‘limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog‘liq holda tashkil etish.

Aqli zaif bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga nisbatan tibbiy-pedagoeik yondashuv asoschisi fransuz psixiatri Jan Itar (1775—1838-yillar) hisoblanadi. U aqli zaifligi murakkab bo‘lgan bolaga ta‘lim va tarbiya berishga urindi. Garchi kutilgan natijaga erisha olmasada, bunday toifa bolalarni sezgi va motorika organlarini mashq qildirish yordamida rivojlantirish yo‘lini ko‘rsatib berdi.

Anatomik-fiziologik yondashuv rivojiga nemis psixiatri Emil Krepelin (1856 – 1926-yillar) katta hissa qo‘shdi.

Frantsuz psixologi Alfred Bine va vrach-psixiatr Tomas Sjmon test sinovlari metodini asoslaydilar. Shu bois ular intellektual zaiflikni o‘rganishning psixometrik yo‘nalishi asosch5kukkuqilari hisoblanadilar.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar asosida XX asr boshiga kelib quyidagi uch asosiy yondashuv qaror topdi:

Tibbiy-klinik yondashuv aqli zaiflarning etimologiyasini bilish, intellektining buzilishiga sabab bo‘lgan omillar, shuningdek, anatomik- fiziologik va genetik buzilishni o‘rganish g‘oyasini ilgari suradi.

Psixologik yondashuv psixikasi buzilgan bolalarning psixik faoliyati, emotsional holati hamda shaxsini o'rganishga yo'naltirilgan.

Pedagogik yondashuv intellekti buzilgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalashning pedagogik tamoyillari, metodlari, shuningdek, nuqsonlarni bartaraf etish yo'llarini o'rganish g'oyasiga tayanadi.

Rossiya korrektsion pedagogikasi tarixi Yevropa defektologik fani bilan uzviy bog'liq.

Petr I., Ekaterina I.I. lar anomal bolalar uchun davolash muassasalari, mehribonlik uylari va maxsus maktablarni barpo etish haqida farmon chiqarganlar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida anomal bolalarni o'qitish va tarbiyalashni yo'lga qo'yuvchi ko'plab jamiyat hamda ijtimoiy tashkilotlar tashkil etildi.

Sobiq Sho'ro davrida bolalikni himoya qilish va bolalar nuqsonlari bilan bog'liq muammolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

1918-yilda maxsus dekret qabul qilindi. Unda anomal bolalarga yordam berishda asosiy vazifa ularni alohida ajratish emas, balki ularni o'qitish va tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu yili Rossiyada birinchi maxsus ta'lim-tarbiya muassasasi (V.P.Kashenko uyi) tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasida korrektsion pedagogika (defektologiya)- ning rivojlanish tarixi Rossiya defektologiya fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni vaqtda u o'z xususiyatlariga ham ega. Bu xususiyatlar dinning o'zbek xalqi hayoti va turmushiga chuqur singganligi va o'zbek milliy mentaliteti bilan tavsiflanadi. O'zbek xalqi anomal bolalarga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lib, ularga rahmdillik, mehribonlik ko'rsatgan.

Ayni vaqtda respublikada anomal bolalar uchun maxsus o'quv muassasalari (ko'zi ojiz hamda kar bolalar uchun maktab-internatlar, aqli zaiflar uchun yordamchi maktab-internatlar) faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (1997-yil)ning 23-bandida psixik yoki jismoniy rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish va davolash maxsus (iqtisodlashtirilgan) ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilishi ta'kidlab o'tilgan.

O'tgan asrning 60—70-yillarida respublikada korrektsion pedagogika bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda defektolog pedagoglarni tayyorlash yo'lida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1967-yili Nizomiy noniidagi Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fakultetida defektologiya bo'limi ochilib, iqtisodlashtirilgan muassasalar uchun pedagog-defektologlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda respublika olini defektologlari ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida korrektsion-rivojlantirish sinflarini tashkil etish, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko'rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi muammolarni o'rganmoqdalar.

Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari. Olib borilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning soni ko'p bo'lib, ayni vaqtda yanada oshib bormoqda.

«Anomaliya» tushunchasi yunonchadan tarjima qilinganda me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanishni anglatadi.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jismoniy yoki psixik kamchiliklar (nuqsonlar) bo'ladi, ular bolalarning umumiy rivojlanishida chetlanishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Nuqsonning xususiyati, paydo bo'lishiga qarab ayrim kamchiliklarni to'la yo'qotish, ayrimlarini esa tuzatish, uchinchi xillarining o'rnini to'ldirish mumkin. Anomal bolaning rivojlanishida uni o'qitish va tarbiyalash asosiy muammo hisoblanadi.

Ayni vaqtda rivojlanishidagi chetlanishlarning klassifikatsiyasi bo'yicha yagona qarash mavjud emas.

M.A.Vlasova va M.S.Pevznerlar anomal bolalarning quyidagi guruhlarini ko'rsatadilar:

Sensor xislati etishmaydigan (noraso) bolalar (eshitish, ko'rish, nutqi qobiliyatlari, tayanch-harakat apparat va sensomotorikasining funktsiyasi buzilgan).

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar.

Astenik yoki reaktiv holati hamda nizoli tashvishlanishga ega bo'lgan bolalar.

Psixopatik xulqli bolalar (xulqning emotsional buzilishi).

Aqli zaif bolalar (debillik, imbetsillik, idiotiya darajasidagi oligofrenlar).Psixik kasallikning boshlang'ich ko'rinishi (shizofreniya, epilepsiya, isteriya va boshqalar) namoyon bo'ladigan bolalar.

N.Usanova anomal bolalarni quyidagi guruhlaiga ajratishni taklif etadi:

Organik buzilishlar sababli rivojlanishida chetlanish bo'lgan bolalar.

Funktsional etuk emasligi sababli rivojlanishida kamchilik bo'lgan bolalar.

Psixik deprivatsiyalar asosida rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar.

Defektolog V.S.Raxmanova rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni quyidagicha guruhlariga ajratishni taklif etadi:

Intellektual buzilishga ega bolalar (aqli zaif va psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar).

Nutqi buzilgan bolalar.

Sensorli nuqsonlarga ega bolalar (ko'rish va eshitish qobiliyatlari buzilgan)

Tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar.

Rivojlanishida kompleks buzilish bo'lgan bolalar.

Anomal bolalarda nutqiy qobiliyatning buzilishi umumiy qonuniyat hisoblanadi.

Bolaga korreksion ta'sir ko'rsatishning samaradorligi mavjud nuqson xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funktsiyalarining buzilganlik darajasi, bolaning yoshi, nuqsonlar o'rnini to'ldirishga imkon bermoqchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta'sir ko'rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog'liq. Anomal bolalarning ma'lum guruhi faqat psixologik-pedagogik ta'sirga muhtoj bo'lsalar, boshqa guruhlariga ularga esa davolash- sog'lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishini talab etadi. Rivojlanishdagi nuqsonlarning barvaqt diagnostika qilinishi ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishning garovidir.

Korreksion pedagogika turlari.

1.Defektologiya fani va uning dolzarb masalalari. Defektologiya fani – bu jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim – tarbiyasi bilan

shug‘ullanadigan fan. Defektologiya so‘zi lotin tilida *defektus* – nuqson, kamchilik, *logos* – ta’limot, o‘rganish degan ma’nolarni anglatadi. Jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsonlari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma’noni bildiruvchi anomal so‘zidan olingan). Hozirgi kunda chet davlatlarda ushbu bolalar maxsus yordamga muhtoj bolalar deb ham yuritiladi. Defektologiya fanining mavzui bahsi anomal bolalardir. Defektologiya fanining vazifasi – anomalialarning kelib chiqish sabablari, turlari, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o‘rganish, shular asosida differentsial va integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish, ularning ta’lim – tarbiyasi bilan shug‘ullanishdir. Defektologiya fanining maqsadi – anomal bolalar bilan differentsial va integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan shart – sharoitlarni o‘rganish, ulardagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, kompensatsiyalash, iloji boricha korrektsiyalash, ko‘zga ko‘rinmaydigan darajagacha kamaytirish yo‘llari, usullarini belgilash va o‘qitishuvchilarga ko‘rsatib berishdir. Anomalialarning harakteriga qarab, ba’zilari to‘liq bartaraf etiladi, ba’zilari korrektsiyalanadi, ya’ni qisman tuzatiladi, boshqalari esa kompensatsiya etiladi, ya’ni almashtiriladi. Agar bola nutqida qo‘pol kamchilik bo‘lsa, to‘g‘ri tashkil etilgan logopedik choralarni o‘z vaqtida ko‘rish yo‘li bilan ularni to‘liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo‘lgan bo‘lsa, (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi). Uni to‘liq bartaraf etib bo‘lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Defektologiya amaliyotida ana shunday anomalialar uchraydiki, ularni tuzatib ham korrektsiyalatib ham bo‘lmaydi. Masalan, tug‘ma ko‘rlik va tug‘ma karlik shular jumlasidandir. Bunda ko‘rish analizatorining vazifasi sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasi esa ko‘rish analizatoriga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash yo‘linibosish mumkin. Ko‘rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf oltita nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa imo – ishora, ya’ni daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Defektologiya nisbatan yosh fan. Atoqli psixolog L.V.Zankov, L.S.Vigotskiylar 1935 yildan hamkorlikda ishlay boshladilar. Ular anomal bolalalar bilan rivojlantiruvchi ta’limni olib borish kerakligini, korrektsiya, kompensatsiya usullari va bularni amalga oshirish yo‘llarini ko‘rsatib berdilar. L.S.Vigotskiy “Defektologiyaning asosiy muammolari” kitobida anomal bolaga nafaqat “salbiy”, balki “ijobiy” tomonlarini o‘rganib, aniqlab shularga tayangan holda va potentsial imkoniyatlarni inobatga olib turib, ta’lim – tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi.

O‘zbekistonda defektologiya fani 1967 yildan boshlab rivojlandi. Chunki shu yili Nizomiy nomidagi TVDPI ning pedagogika va psixologiya fakultetida oligofrenopedagogika bo‘limi tashkil etildi. 1972 yilda oligofrenopedagogika kafedrası o‘z faoliyatini boshladi. 1983 yilda surdopedagogika bo‘limi qo‘shildi. 1984 yilda esa mustaqil kunduzgi va sirtqi defektologiya fakultetlarida oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog, logoped mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlarni tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Hozirgi kunda oligofrenopedagogika

va logopediya, defektologiya fanining klinik asoslari va surdopedagogika kafedralari qo'shib, maxsus pedagogika va metodika kafedrasiga aylantirildi, o'z faoliyatini pedagogika va defektologiya fakultetida amalga oshirmoqda.

Defektologiya faning rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi: *surdopedagogika* (lotincha, surdus – kar, gung so'zidan olingan), eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; *tiflopedagogika* (yunoncha tiflos – ko'r, so'qir so'zidan olingan), ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; *oligofrenopedagogika* (yunoncha – oligos kam, fren – aql so'zlaridan olingan) aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; *logopediya* (yunoncha logos – so'z, padeo – tarbiyalash so'zlaridan olingan) – og'ir nutqiy nuqsонlarni o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan.

2. Sensor nuqsonli bolalar.

1. Eshitish va nuqsonlari bor bolalar

Nutq – murakkab ruhiy faoldiyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman, barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizator bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi. Eshituv analizatorining rivojlanishi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq. Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishi, tovush tarkibini farqlay bilish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega.

Ikkala signal sistemasi, shuningdek, idrok va so'zning o'zaro aloqada bo'lishi aqliy rivojlanishning negizini tashkil etadi.

Defektologlarning ma'lumotlariga ko'ra, eshitishda nuqsonlari bor bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo'lganligi va og'ir – engilligiga bog'liq. Surdopedagogikada eshitishda nuqsonlari bor bolalar soqov, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bolalar guruhiga bo'linib o'rganiladi. Tug'ma yoki hali tili chiqmagan, go'daklik davridayoq ikkala quloqning mutlaqo eshitmasligi kar – soqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so'ng yaxshi eshitmaydigan bo'lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchilar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topgandan so'ng vujudga kelsa ham, nuqson tufayli eshitishda xos kamchiliklar bo'laveradi.

Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin.

Kar – soqov bolalarning 25 – 30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi.

2. Ko'rish nuqsonlari bor bolalar

Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar guruhlariga bo'linadi. Ko'r bolalarning ko'rish qobiliyati keskin kamaygan (total ko'rlik) yoki korrektsiya qo'llanilganda (ko'zoynak tutilganda) ham ko'rish o'tkirligi 0,04 gacha pasaygan, ya'ni bunday bolalar amalda ko'r bo'ladi. Zaif ko'ruvchi bolalarda ko'rish o'tkirligi 0,05 dan to 0,04 gacha bo'lishi mumkin. Ushbu guruhdagi bolalar tevarak – atrofni ko'rish analizatori orqali idrok etadi.

Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Tug'ma nuqsonlar sabablari orasida irsiy kasalliklar, homilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha va boshqa kasalliklar bilan kasallanishi sabab bo'lishi mumkin.

Orttirilgan ko'rish anomaliyalari traxoma, chechak, so'zak, ko'z sili, qizamiq, skarlatina va boshqa kasalliklar oqibatida paydo bo'lishi mumkin. Aholiga davolash – profilaktika, oftalmologiya yordamining yaxshilanishi hamda tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilganligi munosabati bilan zaif ko'ruvchi bolalar ancha kamaydi.

Ko'rish nuqsonlari zo'rayib boradigan va turg'un (muqim) bo'ladi. Zo'rayib boradigan xili kun sayin og'irlashib, bora – bora ko'rlikka olib keladi. Muhim xili esa turg'un bo'ladi, bolaning ko'rish darajasi bir xilda turaveradi. Ko'rish qobiliyatining zo'rayib boradigan xili kuksuv, ya'ni glaukoma kasalligi (ko'z ichki bosimining ko'tarilib turishi) ko'ruv nervi atrofiyasi, to'r parda distrofiyasiga bog'liq bo'lib, bolaning har qanday rivojlanish davrida vujudga kelishi mumkin. Gigienik talablarga rioya qilmaslik refraktsiya anomaliyalari bilan bog'liq bo'lgan ko'z kamchiliklari zo'rayib borishiga ham olib keladi.

Ko'zi ojiz bolalar ko'r tug'ilgan va ko'r bo'lib qolgan bolalar deb ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga tug'ilgandan va tug'ilgandan so'ng to uch yoshgacha bo'lgan davr ichida ko'rish qobiliyati zaif bolalar kiritilsa, ikkinchisiga keyinchalik ko'zi ojiz bo'lib qolgan bolalar kiritiladi. Ko'z ojizlik qanchalik kech paydo bo'lgan bo'lsa, bolaning tevarak – atrof haqidagi tasavvurlari shunchalik boy va ularni mustahkamlash, takomillashtirish shunchalik oson bo'ladi.

Ko'zi ojiz bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab – internatlar mavjud. Bu joylarda ishlar kompensatsiya, korrektsiya yo'nalishida amalga oshiriladi.

3. Og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar

Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalarga og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar ham kiritiladi. Nutq nuqsoni logopediya fanida muayyan tilning me'yoridan chetga chiqish deb ta'riflanadi. Nutq nuqsoni o'z – o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi. Nutq nuqsoni gapiruvchining yoshiga mos kelmaydi. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'ladi. Og'ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga balki, umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatali.

Hozirgi kunda nutq nuqsonlarining turli klassifikatsiyalari mavjud. Nutq nuqsonlari asosan 3 ta katta guruhga ajratiladi. Fonetika – fonetik xarakterli nuqsonlar, sistemali nutq buzilishlari va yozma nutq nuqsonlari. Fonetika – fonematik nuqsonlarga tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar, ovoz nuqsonlari, nutq

sur'ati, tempi, ritmi va ravonligidagi kamchiliklar, nutqni idrok etishni buzilish oqibatida sodir bo'lgan nuqsonlar kiritiladi.

Sistemali nutq buzilishlarida kishining butun nutq sistemasi shakllanmaganligi natijasida u gapirmaydi. Bunday nuqsonli kishilarda qulog'i yaxshi eshitadi, oligofreniya yo'q. Sistemali nutq buzilishida nutqning umumiy rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Yozma nutq nuqsonlari o'qish va yozish malakalarini katta qiyinchiliklar bilan yoki umuman, o'zlashtira olmaydigan kishilarda kuzatiladi. Logopediya fanida ushbu nutq sistemasida nuqsonlar quyidagi terminlar bilan yuritiladi: fonetiko – fonematik xarakterli nuqsonda tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar dislaliya, rinolaliya, dizatriya, anatriya, ovoz nuqsonlaridan afoniya, disfoniya, fanasteniya, rinofaniya, laringomir-lashgan ovoz kiradi. Nutq sur'ati, tempi, ritmi, ravonligining buzilishiga – taxilaliya, bradilaliya, logonevroz, qoqilib gapirish kiradi. Nutqni idrok etish nuqsonlari zaif etuvchi aqlan zaif, fonematik eshitishi buzilgan kishilarda kuzatiladi. Natijada bolaning talaffuzi, ovozi, nutq sur'atida ma'lum o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Sistemali nutq nuqsonlariga alaliya va afaziyalar kirs, yozma nutq nuqsonlariga agrafiya, aleksiya, disgrafiya, dislektsiyalar kiradi.

4. Ruhan sust rivojlangan bolalar

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida ruhan sust rivojlangan bolalar ham uchray turadi. Ularning bilish faoliyati markaziy nerv sistemasidagi modda almashinuvi buzilishidan kelib chiqqan. Engil potologik o'zgarishlar vaqtinchalik buzilgan bo'ladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar aqliy darajasi jihatidan ikki guruhga bo'linadi.

1. Engil nuqsoni bor bolalar bular maxsus sharoitda 1-3 yil ta'lim – tarbiya olganlaridan so'ng o'qishni umumta'lim maktabining tegishli sinfida davom ettirishlari mumkin.

2. Ruhiy jihatdan rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar – bular o'rta maktabni bitirgunga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

So'nggi yillarda olimlar ruhiy sust rivojlangan bolalarni klinik – psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar:

1. Konstitutsional;
2. Somatogen;
3. Psixogen;
4. Tserebral shakli.

Konstitutsional xilni xarakterlovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlariga nisbatan 1-2 yosh kichik ko'rinadi. 7 yashar bola o'zini 5 yashar bolaga o'xshab tutadi va ta'lim olish uchun hali "etilmagan" bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, unda o'qishga qiziqish yo'q. Ish qobiliyati past.

Somatogen xilida surunkali infektsiyalar, allergik holat, tug'ma porog va shu kabi kasalliklar ayniqsa tez uchray turganligi tufayli bolada asteniya holati kuzatiladi. Bola o'z kuchiga ishonmaydigan, tez charchaydigan, injiq, qo'rqq bo'ladi, hech narsaga qiziqmaydi.

Psixogen xilida bola noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi. Natijada u ham ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga qo'shilib qoladi. Psixogen xilida bolalarning 50% dan nerv sistemasida organik jarohatlanish kuzatiladi, shuning uchun u nisbatan turg'un bo'ladi. Bu narsa bolaning bilish faoliyati, his – tuyg'ulari, irodaviy holatlarining rivojlanmasligiga olib keladi, organik infantalizm kuzatiladi. Bola yo ko'tarinki ruhda, o'zidan yosh bolalarga o'xshab, yo aksincha kayfiyati past bo'lib, mayus tortib yuradigan, ishni mustaqil hal qila olmaslik tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqish holatlari kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar maxsus yordamga muhtoj, ular maxsus muassasalarda yoki differentsial ta'limga jalb etilishi kerak.

3. Oligofrenopedagogika fanining bahsi va undan foydalanish uslublari

Oligofrenopedagogika – aqli zaif bolalarni tarbiyalash va o'qitish haqidagi fan bo'lib, defektologiya bir qismini tashkil qiladi. Pedagogikaning umumpedagogik va didaktik printsiplarini qo'llash shakli zaif bolalar tarbiyasida o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Ta'limiy materiallarni tanlash, mehnat tayyorgarligini aniqlash, aqli zaif bolalarni mehnat faoliyatiga jismoniy rivojlantirish ishlari tuzatish mazmun kasb etishi kerak. Korrektsiyalash deganda aqli zaif bolalarning jismoniy va ruhiy nuqsonlarini to'g'rilash, yumshatish, hayotga moslashtirish tushuniladi. Tuzatish ishlarida nuqsonli bolaning rivojlanish imkoniyatlariga asoslanadi.

Bosh miyaning organik buzilishi natijasida bilish faoliyatlarining turg'un pasayishi kelib chiqadi. Aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ularni o'rganishning nazariy masalalari qator fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Oligofrenopedagogika umumiy psixologiya, logopediya, pediatriya, nevropatologiya, anatomiya, fiziologiya, genetika, bioximiya va boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lib, ularning yutuqlaridan keng foydalanadi.

Oligofrenopedagogika maorif hodimlarini, ota – onalarni, defektologiya fakulteti talabalarini yordamchi maktablardagi ta'lim – tarbiya ishining o'ziga xos tomonlari, aqli zaif bolalarning bilim egallash xususiyatlari haqidagi tegishli ma'lumotlar bilan qurollantiradi. Har bir fanda bo'lganidek, oligofrenopedagogika ham o'ziga xos rivojlanish, shakllanish tarixiga ega. Aqli zaif bolalar ta'lim – tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanish ishlariga ikki yuz yildan oshgan bo'lsada, bir tizimda atroflicha bir butun, tugallangan ishlar XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Kuzatuv va qidiruv ishlarini uzoq muddatliligi tajribalarning sekin – asta to'planganligi, ayrim nazariy xulosalarga kelishi uchun vaqt talab qilinganligi sababli oligofrenopedagogika fanini izchil tarixi nisbatan qisqargan.

Oligofrenopedagogika fanining dastlabki boshlang'ich davri aqli zaiflikni o'rganish asosan 1926 yillarga to'g'ri keladi. L.S.Vigotskiy Oligofrenopedagogika fanining asoschisi hisoblanadi. U o'z maslakdoshlari bilan hamkorlikda aqliy nuqsonga ega bo'lgan bolalarga ta'lim – tarbiya berishni nazariy hamda amaliy asoslab bergan.

Pedagogika hodisalari va jarayonlarini bilishning empirik bosqichi pedagogik faktlarni to'plash, tanlash, taqqoslash, fikran tahlildan o'tkazish va sintez qilish, tadqiqot bosqichida olingan pedagogik faktlarni miqdor va sifat jihatidan qayta ishlashni anglatadi. Bu bosqichda kuzatuvlar, so'rov metodlari, aqli zaif o'quvchilar

faoliyati natijalarini va o'quv tarbiya muassasalarining hujjatlarini o'rganishda keng foydalanadi.

Kuzatish tadqiqotchi tomonidan pedagogik jarayonni, uning ayrim turlari va jihatlarini maxsus dastur bo'yicha, tabiiy sharoitlarda uzoq yoki kamroq muddat mobaynida uyushgan idrok etishdir. Bu kuzatishlar umumiy va axlohida tipik va tasodifiy narsalarni aniqlab olish, pedagogik ta'sir o'tkazishning tegishli vositalarini belgilash imkonini beradi.

So'rash metodlari intervyu olish va anketa to'ldirish bilan ifodalanadi. Intervyu oldindan belgilangan reja asosida o'tkaziladi. Anketa so'rov formasi bo'lib, unga yozma javob beriladi. Bunda anketa puxta o'ylab tuzilgan savollardan tashkil topgan bo'lishi lozim.

Aqli zaif o'quvchilar faoliyati natijalari va yordamchi maktab muassasa – hujjatlarini o'rganish. O'quvchilarning yozma va boshqa ishlarini tahlil qilish natijasida o'quvchilar faoliyatining sabablari va uslublari haqida ko'p qirrali material olinadi, ularning o'rganilayotgan pedagogik hodisaga nisbatan munosabatini aniqlash imkoni tug'iladi. Aqli zaif o'quvchilarning shaxsiy varaqalari tibbiyot kartalari, majlislar va kengashlar protokollari, sinf daftarlari va hisobot materiallari bilan tanishuv tadqiqotchini foydali ma'lumotlar bilan qurollantiradi.

Pedagogik tajriba u maxsus uyushtirilgan va qat'iy hisobga olib boriladigan shartlarda ta'lim va tarbiyaning u yoki bu metodi, usulini tajriba tariqasida qo'llash va sinab ko'rish kemakdir. Pedagogik tajribaning asosiy funktsiyasi pedagogik ta'sir o'tkazishning ayrim elementlari va ularning natijalari o'rtasidagi sabab – oqibatli aloqalarni aniqlashdan iborat.

Tajriba o'tkazishdan avval pedagogik ishning u yoki bu metodi, usuli samarali ekanmi yoki yo'qligi to'g'risidagi ilmiy g'oya yaratiladi. Tajriba aqli zaif o'quvchilarning oddiy hayoti va faoliyati sharoitida o'tkazilishi mumkin, bu tabiiy tajriba deb ataladi. Eksperiment natijalari ommaviy tusda amaliyotga tavsiya etilishidan oldin tadqiqotning boshqa metodlari bilan ham tekshirib ko'rilgan bo'lishi kerak.

Oligofrenopedagogikaning nazariy asoslarining ishlab chiqilishida 1918 yilda bo'lib o'tgan maorif ijtimoiy ta'minot xodimlarining birinchi butun Rossiya s'ezdida, 1920 – 1921 yillarda bo'lib o'tgan bolalar orasidagi nuqsonli va qarovsizlikka qarshi kurashga bag'ishlangan s'ezd materiallari, 1924 yilda bo'lib o'tgan voyaga etmaganlarni ijtimoiy huquq tomonidan himoya qilish (SPON) 11 s'ezdi hujjatlari juda katta ahamiyat kasb etdi. Bu s'ezd va kengashlarda V.M.Bonch – Bruevich (Belichki - na) A.I.Elizarova, V.P.Kashenko, A.I.Graborov, L.S.Vigotskiy va boshqalarning ma'ruzalarida aqli zaif bolalar ta'lim – tarbiyasining muhim etakchi tamoyillari ochib berildi. Jamoa bo'lib harakat qilish asosida nuqsonli bolalar ta'lim – tarbiyasining yangi maqsad, vazifalari va asosiy tamoyillari aniqlandi. Maxsus pedagogikaning nazariy asoslari 1925 yilda A.N.Graborov tomonidan, N.F.Kuzmina, F.M.Novik tomonidan yozilgan oligofrenopedagogika o'quv qo'llanmasi nashr qilindi. Oligofrenopedagogika – aqli zaif bolalar ta'limi, tarbiyasi hamda ular taraqqiyotidagi ruhiy, jismoniy nuqsonlarni korrektsiyalovchi fan sifatida yuzaga keldi. Oligofrenopedagogika inson haqidagi fanlarning taraqqiyoti bilan, ayniqsa, umumiy pedagogika, umumiy psixologiya maxsus

psixologiya, anatomiya, fiziologiya fanlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning qonuniyatlariga tayanadi. Bu fanlarning maqsadi, vazifalari ham birdir. Shu bilan birga oligofrenopedagogika umumiy pedagogikaning maqsad va printsiplariga bo‘ysingan holda o‘zining maxsus vazifalarini amalga oshiradigan usul va printsiplarni ishlab chiqadi. Tarbiya va ta‘limning ko‘pgina masalalarini o‘qituvchi pedagogik psixologiya va yosh psixologiyasiga oid ko‘pgina bilimlardan foydalanishi kerak.

Aqli zaif o‘quvchilarni turli yoshdagi psixologik xususiyatlarini, bilimlarini, malakalarini o‘zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini, ularni mehnatga, mehnat faoliyatiga nisbatan tayyorlashni, ular shaxsini kamol topib borish qonuniyatlarini o‘rgatadi.

Oligofenopedagogika – aqli zaif bolalar ishtirok etadigan pedagogik jarayon bilan bog‘liqdir. Bu holat bolaning yoshligidagi anatomik, fiziologik, ruhiy ma‘lumotlarning zarurligini taqozo etadi. Ayniqsa aqli zaiflikning sabablari rivojlanishida klinikasiga oid materiallar talab etiladi. Shu sababli origofenopedagogika aqli zaif bolalar ta‘lim – tarbiyasi masalalarini ishlab chiqishda anatomopatologik, patofiziologik, patopsixologik ma‘lumotlarga tayanish lozim. Ayniqsa, asab kasalliklari, ruhiy kasalliklar, bolalar psixonevrologiyasi, aqli zaiflik klinikasi, genetika, maxsus psixologiya ma‘lumotlariga asoslanish kerak. Bu ma‘lumotlar aqli zaif bolalar ta‘lim – tarbiyasida ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashga yordam beradi.

Oligofrenopedagogikaning hozirgi paytdagi vazifalari

Aqli zaif o‘quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalash, o‘quv tarbiya jarayonida takomillashtirishning katta potentsial imkoniyatlari mavjuddir. Ana shu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish yo‘llari va metodlarini tushuntirib berish aqli zaif o‘quvchilarni o‘qitish nazariyasining muammolaridan biri hisoblanadi.

Aqli zaif o‘quvchilarda shaxs ma‘naviy va irodaviy fazilatlarini shakllantirishga, mehnatsevarlikni, o‘qish istagini tarbiyalashga, bilish faolligini va mustaqilligini shakllantirishga, shaxsni takomillashtirishga, o‘qitishning tarbiyaviy ta‘siri, o‘quv materialining izchilligi, sistemaliligi didaktikani rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridir.

Oligofrenopedagogikaning vazifalaridan biri aqli zaif o‘quvchilarning umumiy rivojlanishini aktivlashtirishdan, rivojlanishning umumiy ta‘lim darajasini oshirish uchun maxsus shart – sharoitlar yaratishdan iboratdir. Bu o‘rinda tabiat, hodisalarini bevosita kuzatish, bolalarning shaxsiy tajribasiga tayanish, o‘quv materialini tanlash va bayon etishning izchil mantiqqa egaligi katta ahamiyat kasb etadi. Boshqa bir vazifa aqli zaif o‘quvchilarda abstrakt tafakkur hosil qilish imkoniyatlarini qidirishdan iboratdir.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta‘lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda.

Maxsus ta‘lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta‘lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta‘lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta‘lim muassasalarida qondirib bo‘lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta‘lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida,

shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Biroq inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inklyuziv» va «integratsiyalashgan» atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.

Integratsiyalashgan ta'lim bu - diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

A) Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

B) Funksional integratsiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

V) Ijtimoiy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab – quvvatlaydi.

G) Jamiyatga integratsiya qilish kabilar.

Integratsiyalashgan ta'lim tizimining bir qator quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud:

Umumta'lim muassasalarda kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyati bo'lmaydi.

Umumta'lim maktab pedagogi maxsus metodikani bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirmaydi.

Umumta'lim maktablarida tiflo, surdotexnik vositalar, maxsus tibbiyot uskunalari bo'lmaydi.

Sinfda o'quvchilar soni 25 tadan 35 tagacha yetadi va oqibatda ularning barchasiga ko'p vaqt ajrata olmaydi.

Umumta'lim maktablarda o'quvchilarda maxsus malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislar bo'lmaganligi sababli, imkoniyat topish qiyin.

Umumta'lim maktablarida alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsilashgan ta'lim tizimidan o'zining mazmun – mohiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi.

Inklyuziv ta'lim bu - davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Oliy ta'lim tizimiga kiritilgan «Inklyuziv ta'lim tizimida rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish xususiyatlari» kursi inklyuziv ta'lim tizimining mohiyati, mazmuni, maqsadi va jabhalarini ochib beradi va bu haqidagi nazariy ma'lumotlar bilan talabalarni qurollantiradi.

Inklyuziv ta'lim tizimida rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish xususiyatlari kursining predmeti inklyuziv ta'lim tizimi va uning mazmunidan iborat.

Bu kurs o'zining mazkur predmetiga asoslangan holda maqsad qo'yadi. Mavjud maqsadlari shundan iboratki, bu kurs inklyuziv ta'limning mazmun mohiyatini ochib berish bilan bir qatorda kerakli tavsiyalar ham ishlab chiqadi. Tavsiyalarda barcha bolalarning ta'lim olish muhitini o'rganib maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limiy ehtiyojlariga umumiy baho beriladi. Asosiy ma'no shundaki, sog'ligining yomonlashuvi yoki rivojlanishining orqada qolishi sababli alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ham umumiy ta'lim jarayoniga kushish mumkin. Inklyuziv ta'lim ta'lim berishning diqqat markazida bola turadi (o'quv rejasi emas) deb bu jarayonga yondashadi. Ushbu yondashuvlar bolalar har xil sharoitda o'qiydi, rivojlanadi, ma'lumotni har xil tezlikda qabul qiladi degan e'tirofga asoslanadi. Ular har bir bolaning shu qatorda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim muhitini yaratib berishga qaratilgan.

Mazkur tavsiyalarning maqsadi - maktablarni maxsus ehtiyojli bolalarning ehtiyojlariga javob beradigan qilib moslashtiradigan jarayonni qo'llab–

quvvatlash. «Moslashtirish» deganda nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga bemalol borib kelishi, balki shu qatnashdan qandaydir foyda olishi va optimal o'quv rejasining mavjudligidir. Maktab muhiti moslashuvchan bo'lib, bola ta'limdagi tartibga moslashishi kerak deb taxmin qilinmasdan, alohida har bir bolaning ehtiyojlarini qondirishi kerak.

Inklyuziv ta'lim kursi o'z maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator quyidagi vazifalarni hal etadi:

- talabalarga inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish;

- inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;

- inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni hal etish yo'llarini izlab topish;

- inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning asoslarini o'rganish;

- inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini tahlil qilish;

- O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasidagi nazariy, amaliy va huquqiy ahvolni o'rganish;

- inklyuziv ta'lim muasasalarining maqsad va vazifalarini belgilash;

- resurs o'qituvchining ish faoliyati va maqsadi bilan tanishish;

- inklyuziv ta'lim muasasalarining xodimlari vazifalari bilan tanishish;

- inklyuziv ta'lim muasasalari mutaxassislarining ota-onalar bilan hamkorligining yo'lga qo'yilganlik darajasini aniqlash;

- inklyuziv ta'lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlarni o'rganish;

- inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlarini, amaliyotga joriy etish yo'llarini o'rganish, ish tajribalarini tahlil qilish kabilardan iborat.

Nazorat uchun savollar:

1. Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalarini izhlang.
2. Inklyuziv ta'lim haqida nimalarni o'rgandingiz?
2. Integratsiyalashgan ta'lim va inklyuziv ta'lim o'rtasidagi farqlar nimada?
3. "Inklyuziv ta'lim" kursining predmeti va maqsadi nimalardan iborat?

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot. O'zbekistonda ta'lim tizimi (2s).

Reja:

1. O‘zbekistondagi ta’lim tizimi haqida tushuncha.
2. Ta’lim tizimi rivojlanishiga tasir etuvchi omillar.
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonun.
4. Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi.
5. Mustaqillik yillarida ta’lim tizimidagi islohotlar.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:

- O‘zbekistondagi ta’lim tizimi mazmun-mohiyatini tahlil qilish;
- ta’lim tizimi rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni tasniflash;
- Ta’limning uzviyligi va uzluksizligini aniqlashtirish mazmun-mohiyatini yoritish;
- Pedagogika fanining vazifalarini tahlil qilish.

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Blits –so‘rov”** interfaol usulidan foydalaniladi.

1. Qaysi biri qiyin – mashg‘ulotning boshlanishimi yoki yakuni?
 - a) o‘qituvchi uchun;
 - b) tinglovchilar uchun.
2. Mashg‘ulot jarayonida pauza davomiy bo‘lishi mumkinmi?
3. Ishlash uchun nima samarali: o‘qituvchi butun guruhga savol bilan murojaat qilishimi yoki alohida o‘quvchiga?
4. Mashg‘ulotni qanday tashkil etish ma’qul: tinglovchilarni fikriy faoliyatini bitta tor doiradagi savolni muhokama qilishga qaratishmi yoki ularni xilma-xil faoliyat turlariga jalb etishmi?
5. Agar tinglovchilar o‘quv materialini birinchi martaning o‘zida anglab va tushunib olishgan bo‘lsa, uni bir necha marotaba o‘qib chiqishga yo‘naltirish kerakmi?

2-topshiriq:

Pedagogika so‘zining lug‘aviy ma’nosi.....


.....

.....

3-topshiriq: Pedagogkianing asosiy kategoriyalari

	Kategoriya	Ta’rifi
1	Shaxs	Psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo’lgan jamiyat a’zosi.
2	Tarbiya	
3	Ta’lim	
4	Bilim	
5	Ma’lumot	
6	Ko‘nikma	
7	Malaka	
8	Kompetensiya	
9	Shakllantirish	
10	Rivojlanish	

4-topshiriq: Pedagogika fannining strukturasi



5-topshiriq: Pedagogikaning fanlar tizimini yoriting.

6-topshiriq: Tayanch tushunchalar mazmunini yoriting.

2-topshiriq. Pedagogika fani nimani o‘rganadi? Quyidagi javoblarni taqqoslang va izohlang.

Topshiriq	Izoh
1. Pedagogika bola rivojlanishi qonuniyligini o‘rganadi va uning tarbiya yo‘llarini aniqlaydi.	
2. Pedagogika - bu o‘qish - o‘qitish, tarbiya qilish , o‘rgatish to‘g‘risidagi fan.	
3. Pedagogika — bu tarbiyachining tarbiyalanuvchiga, uning dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ta’sir ko‘rsatish san’ati.	
4. Pedagogika o‘sib kelayotgan avlodni o‘qitish, o‘rgatish savollarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.	
5. Pedagogika insonni tarbiyalash to‘g‘risidagi fan.	

3-topshiriq. Nostandart testni yeching.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini aniqlang.

T.r	Ta’rif		Tushuncha
1	Aniq maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir hisoblanib, ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan jarayondir.	A	Ma’lumot
2	Maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o‘tkaziladigan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradigan,	B	Tarbiya

	bilish qobiliyatlarini o`stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.		
3	ta`lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko`nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.	C	Ta`lim
1-B, 2-C, 3-A			

3-mashg`ulot: Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari (2s).

Reja:

1. Pedagogika fanining vazifalari fanlari tizimi.
2. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari.
3. Pedagogika tarbiya haqidagi modul.
4. Pedagogikaning predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari.
5. Asosiy pedagogik kategoriyalar.
6. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.
7. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish.
8. Pedagogik tadqiqot metodlari tizimi va ularga tavsif.

1-topshiriq:

Bo`lajak lavozimga tayyorgarlik ko`rishga yordam beradigan kasbiy ko`nikmalar ta`rifini keltiring.

Namuna:

№	Kasbiy ko`nikma	Ta`rif
1.	<i>Ijodkorlik (Creativity)</i>	Yangi g`oyalarni yaratish, istiqbollarni o`zgartirish va muammolarga noyob yechimlarni ishlab chiqish
2.	<i>Tanqidiy fikrlash (Critical thinking)</i>	
3.	<i>Hamkorlik (Collaboration)</i>	
4.	<i>Muloqot (Communication)</i>	

5.	<i>Axborot va media savodxonligi (Information and media literacy)</i>	
6.	<i>Texnologik savodxonlik (Technological literacy)</i>	
7.	<i>Ijtimoiy ko'nikmalar (Social skills)</i>	
8.	<i>Yetakchilik (Leadership)</i>	
9.	<i>Moslashuvchanlik (Adaptability)</i>	
10.	<i>Global xabardorlik (Global awareness)</i>	
11.	<i>Qaror qabul qilish (Decision making)</i>	
12.	<i>Muammoni hal qilish (Problem solving)</i>	

2-topshiriq:

Mavzuga oid tushunchalarga ta'rif bering.

1. *Nazariya*

2. *Konsepsiya* -

3. *Kategoriya* -

3-topshiriq:

Maqola va tezisning farqini keltiring!

Namuna:

Maqola	Tezis
--------	-------

Nazariy tahlil, amaliy natija	asosiy fikr, prinsip
olim tomonidan biron bir muammoni o'rganadigan, ma'lum bir ilmiy usulni qo'llagan holda olib boradigan tadqiqot	

4-topshiriq:

O'quv loyihalari mazmun mohiyatini izohlang. Jadvalni to'ldiring!

Namuna:

Loyihani bajarish bosqichlari	Talaba faoliyati	Pedagog faoliyati	Metod va usullar
Izlanishga doir	Muammoni muhokama qiladi; maqsadni belgilaydi va reja ishlab chiqadi; tadqiqot o'tkazadi	Talabalarga muammolarni taklif etadi va muhokama qiladi; loyiha maqsadlarini tushuntiradi	Muammoli suhbat; hikoya; maslahat; mustaqil ish; ekskursiya
Tashkiliy			
Texnologik			
Yakuniy			

5-topshiriq:

Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) mazmuniga ta'rif bering!

1. Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) -

2. Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) - _____

4-mashg'ulot: Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari (2s).

Reja:

1. Shaxs haqida tushuncha.
2. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Inson kamoloti va shaxsning rivojlanishida muhitning roli.
4. Insonning kamol topishida tarbiyaning roli.

1-topshiriq:

Prinsip nima? Unga ta'rif
bering! _____

O'qitish va o'qish jarayonlariga ta'rif bering!

O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi
vazifalari _____

2-topshiriq:

Mavzu yuzasidan manbalar ustida ishlash va uning bosqichlari mazmunini
ochib bering.

Bosqichlari	Mazmuni
<i>Kitob bilan ishlashning birinchi bosqichi</i>	
<i>Kitob ustida ishlashning ikkinchi bosqichi</i>	
<i>Kitob ustida ishlashning uchinchi bosqichi</i>	

3-topshiriq:

Nuqtalar o'rniga bakalavrlar tayyorlash malaka amaliyotlari ta'rifiga mos
atamalarini keltiring!

Atamalar: *bitiruv oldi amaliyoti; pedagogik amaliyot; ishlab chiqarish
amaliyoti.*

Namuna:

o'quv (tanishuv) amaliyoti – iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot,
muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar
bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

..... – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni
mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish,
tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga
qaratiladi;

..... – ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va
muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga

moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma’lumot to‘plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

..... – kasb ta’limi yo‘nalishlari uchun qo‘llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

4-topshiriq:

1.	Didaktik tahlil	A	darsning <u>aniq maqsad va vazifalariga</u> , <u>darsning mazmuniga</u> , darsda o‘quvchilar faoliyatining namoyon bo‘lishi <u>va uning boshqarilishiga</u> , o‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga darsning ta’siri, darsda o‘qituvchi shaxsi va faoliyatining tarbiyaviy ta’siriga, darsning natijalariga psixologik baho berishdan iborat.
2.	Psixologik tahlil	B	darsdagi hamma jihatlarining qisqa va yengil ko‘rinishidagi tahlildir
3.	Umumiy <u>pedagogik tahlil</u>	C	ta’lim turlari samaradorligi va uni belgilovchi qonunlar va qoidalarning darsda qanchalik to‘g‘ri hamda mukammal bajarilganini tahlil qilish demakdir.

5-mashg‘ulot. O‘qitish jarayoni, ma’lumot mazmuni va ta’lim mazmuni haqida tushuncha (2s).

Reja:

1. O‘qitish jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar.
2. Ta’lim tushunchasi va mohiyati.
3. O‘qitish jarayoni yaxlit tizim sifatidagi tavsifi.
4. Pedagog va tarbiyalanuvchilarning ta’lim jarayonidagi faoliyatlari.
5. Dars – ta’lim tashkil etishning asosiy shakli.
6. Ma’lumot mazmuni va ta’lim mazmuni haqida tushuncha.
7. Ma’lumot mazmunini tanlashga oid nazariyalar.
8. Ta’lim mazmuni va uni moddiylashtirish yo‘llari.

Mavzu yuzasidan blits – so‘rov savollarigi javob berish. Mavzuga oid kichik esse yozish.

Mashg‘ulot maqsadi:

- Ta'limni tahlil qilish;
- Ta'lim printsiplarini tasniflash;
- Mashg'ulotning da'vat, anglash va fikrlash bosqichida qo'llaniladigan o'qitish strategiyalari va interfaol metodlarni qo'llash qoidalarini aniqlashtirish.

Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanadi.

Topshiriq.

Muhokama guruhleri. Bu topshiriqda tinglovchilar kichik guruhlarda o'qituvchi bilan ishlash uchun tayyorgarlik ko'radilar. Bu uchun ma'ruzalarda ham qo'llanilishi mumkin.

Topshiriq: Tinglovchilarga muhokama uchun savolar topshiriladi. Tinglovchilar savollar bazasidan 4 tadan savolni tanlab ularga ijodiy tayyorlanadilar va og'zaki javob beradilar.

Savollar bazasi:

1. Ta'lim jarayoni qanday funktsiyalarni bajaradi?

Ta'lim jarayoni:

- 1) ta'lim berish;
- 2) tarbiyalash;
- 3) rivojlantirish kabi funktsiyalarni bajaradi.

2. Ta'lim jarayonining ta'lim berish funktsiyasi nimadan iborat?

Ta'lim jarayonining ta'lim berish funktsiyasi o'quvchilarga ilmiy bilimlarni berish, ularni tabiiy va ijtimoiy borliq, shaxslararo munosabatlar, shaxsning rivojlanish qonuniyati mohiyatini anglatuvchi ma'lumotlar bilan tanishtirish orqali ularda mavjud bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikma, malakalarini shakllantirishdan iborat.

3. Ta'lim jarayonining tarbiyalash funktsiyasi qanday ma'noni anglatadi?

Ta'limning tarbiyalash funktsiyasi ta'lim jarayonida o'quvchilarning ongini rivojlantirish asosida ularda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni, faoliyat ko'nikma, malakalarini shakllantirish, ularni ijtimoiy haetga samarali tayirlashni bildiradi.

Turli ijtimoiy tuzum va sharoitda ham ta'limning tarbiyalash funktsiyasi yaqqol namoyon bo'lib kelgan.

4. Ta'lim jarayonida o'qituvchi qanday vazifalarni bajaradi?

Ta'lim jarayonida o'qituvchi rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, natijalarni baholash va tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradi.

5. O'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini boshqarish qanday ma'noni anglatadi?

O'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini boshqarish muayyan mavzu bo'yicha ichki nazorat ishlarini o'tkazish maqsadida tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlarining ilmiy-pedagogik va amaliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishi, olib borilishi, natijalarning tahlil etilishini anglatadi.

6. O'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini boshqarish qanday bosqichlarda tashkil etiladi:

O'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

- 1) rejalashtirish;
- 2) tashkil etish;
- 3) boshqarish;
- 4) nazorat qilish;
- 5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

7. Ta'lim jarayoni bo'yicha natijalarni baholash va tahlil qilishda o'qituvchi nimaga e'tibor qaratishi lozim?

Ta'lim jarayoni bo'yicha natijalarni baholash va tahlil qilishda o'qituvchi ta'lim jarayonining qanday kechganligini bilish, yutuqlar omillarini o'rganish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini belgilashga e'tibor qaratishi lozim.

Tinglovchilarning nazariy bilimlarini tekshirish va mustahkamlash.

6- amaliy mashg'ulot: Tarbiya nazariyasi va usullari (2s).

Reja:

1. Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilmasi.

2. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari .
3. Tarbiya tamoyillari va ularga qo'yiladigan talablar tavsifi
4. O'zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari.
5. Tarbiyada ibrat-namuna ko'rsatishning tutgan o'rni. Ishontirish metodlari,hikoya,
6. munozara, suhbat, ma'ruza va boshqalar. Tarbiya usullari muhokama ,ishonch bildirish, tushunish, hamdarlik bildirish, rag'batlantirishi tanqid va boshqalar.
7. Ijtimoiy hulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari.Bolalar hayotini uyushtirish va ular bilan hamkorlik qilishning mohiyati .

Mavzu yuzasidan blits – so'rov savollarigi javob berish. Mavzuga oid kichik esse yozish.

Mashg'ulot maqsadi:

- O'quv material, uning tarkibi va shakllari, ma'lumot va ta'lim mazmunini tahlil qilish;
- Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik kontseptsiyalarni tasniflash;
- Mashg'ulotning da'vat, anglash va fikrlash bosqichida qo'llaniladigan o'qitish strategiyalari va interfaol metodlarni qo'llash qoidalarini aniqlashtirish.

Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanadi.

Topshiriq.

Bilim o'zlashtirilayotganda psixikaning namoyon bo'lish shakllari

Psixik jarayon	Psixologik holatlar	Shaxsning xususiyatlari
Bilish jarayoni	Xissiy irodaviy	Individuallik
Sezgilar	Emotsiyalar	Yo'nalishlar
Idrok	E'tiqodlilik	Temperament
Xotira	Bardamlilik	Xarakter
Tafakkur	Tetiklik	Qobiliyatlar
Xayol	Apatiya	Iqtidor
Nutq	Qiziquvchanlik	Aqliy salohiyat
Diqqat	Qayratlanish	Xulq motivatsiyasi
	Ishonchililik	Ish uslubi
	Ijodiy ruxlanish	Mas'uliyat

KROSSVORDni yeching.

1. O'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

3. Pedagogik jarayonning asosiy elementlaridan biri.

6. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining uchinchi bosqichi.

8. Pedagogik jarayonning asosiy elementlaridan biri.

9. Pedagogik jarayonning asosiy elementlaridan biri.

.....


1. O'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlik.

2. Ta'lim-tarbiya va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlardan biri hisoblanadi.

4. Yaxlit pedagogik jarayon, uning maqsad-vazifalari, mazmuni, shakl va metodlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi va u jamiyatning mafkurasi va siyosatiga bog'liqligi yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlardan biri hisoblanadi.

5. Ta'lim jarayonini boshqarishning to'rtinchi bosqichi.

7. Pedagogik jarayonning asosiy elementlaridan biri.



1-topshiriq. Shaxsning biologik va psixologik rivojlanishini tahlil qilib bering.

2-topshiriq. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tasniflash

3-topshiriq. “Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuvi bilan aloqadorligi” mavzusida referat yozing.

4-topshiriq. Suhbat va ma'ruza metodlari vositasida dars konspekti tuzishni rejalashtiring.

5-topshiriq. O'zingiz istagan o'quv predmetidan simulyativ o'yindan foydalanish rejasini tuzing.

6-topshiriq. O'rtoqlaringizning birontasi bilan bilimlarni og'zaki bayon etish metodlari to'g'risida suhbatlashing.

8-amaliy mashg'ulot: Yaxlit pedagogik jarayon (2s).

Reja:

1. Pedagogik jarayon va uning tuzilishi
2. Yaxlit pedagogik jarayon
3. Pedagogik jarayon qonuniyatlari.
4. Yagona pedagogik jarayonning etaplari.

1-topshiriq. “Ta'limda didaktik o'yinlar” mavzusida munozara o'tkazishga tayyorlaning.

Qavs ichida nazorat metodlari nomi berilgan (oraliq, bayon, individual, guruh, og'zaki, yozma, joriy, diktant, yakuniy, tabaqalashtirilgan, insho, jamoa). Ularni jadvaldagidek uch guruhga ajratib yozing.

Vaqtga ko'ra	O'quvchilar miqdoriga ko'ra	Nutq shakliga ko'ra

2-topshiriq. A) berilgan terminlar orasidan dars turlari, dars tiplarini tasniflang. Yangi bilim berish darsi; Kirish darsi; BKM larni mustahkamlash darsi; Nazorat darsi; Aralash dars; Labaratoriya darsi; Amaliy dars.

b) berilgan terminlar orasidan bilimlarni og`zaki bayon qilish metodlarining nomini bildirgan so`zlarni ajratib yozing: hikoya, illustratsiya, tasvir, suhbat, demonstratsiya, ma`ruza, mashq, evristik suhbat.

3-topshiriq. O`zingiz tanlagan o`quv predmetidan tanlangan mavzuda suhbat va ma`ruza metodidan foydalanish tartibini tushuntiring.

4-topshiriq. Qavs ichida keltirilgan ta`lim metodlarini (suhbat, diktant, hikoya, ma`ruza, individual nazorat, frontal nazorat, tasvir, mashq, joriy nazorat, orliq nazorat, yakuniy suhbat, evristik suhbat, yakuniy nazorat) jadval bo`yicha ikki guruhga ajratib yozing.

O`zaro ta`sirni tashkil etish va boshqarish metodlari	O`zaro ta`sir natijasini nazorat qilish metodlari

4-topshiriq. Suhbat va ma`ruza metodlari vositasida dars konspekti tuzishni rejalashtiring.

5-topshiriq. O`zingiz istagan o`quv predmetidan simulyativ o`yindan foydalanish rejasini tuzing.

9-amaliy mashg`ulot: O`qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida (2s).

Reja:

1. Ta`lim jarayoni yagona tizim sifatida.
2. Ta`lim tamoyillari.
3. Ta`lim jarayonining mazmun – mohiyati.
4. Ta`lim jarayoni – yagona dinamik tizim sifatida.
5. Ta`lim – borliqni bilishning o`ziga xos shakli sifatida.

1-topshiriq. O`rtoqlaringizning birontasi bilan bilimlarni og`zaki bayon etish metodlari to`g`risida suhbatlashing.

2-topshiriq. “Ta`limda didaktik o`yinlar” mavzusida munozara o`tkazishga tayyorlaning.

3-topshiriq. Berilgan terminlar orasidan bilimlarni ogʻzaki bayon qilish metodlarining nomini bildirgan soʻzlarni ajratib yozing: hikoya, illustratsiya, tasvir, suhbat, demonstratsiya, maʼruza, mashq, evristik suhbat.

4-topshiriq. Oʻzingiz tanlagan oʻquv predmetidan tanlangan mavzuda suhbat va maʼruza metodidan foydalanish tartibini tushuntiring.

5-topshiriq. Qavs ichida keltirilgan taʼlim metodlarini (suhbat, diktant, hikoya, maʼruza, individual nazorat, frontal nazorat, tasvir, mashq, joriy nazorat, orliq nazorat, yakuniy suhbat, evristik suhbat, yakuniy nazorat) jadval boʻyicha ikki guruhga ajratib yozing.

Oʻzaro taʼsirni tashkil etish va boshqarish metodlari	Oʻzaro taʼsir natijasini nazorat qilish metodlari

10-amaliy mashgʻulot. Taʼlim metodlari va vositalari (2s).

Reja:

1. Taʼlim metodlari va usullari tushunchalari.
2. Zamonaviy didaktikada taʼlim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar.
3. Taʼlim metodlarining mohiyati.
4. Taʼlim metodlarini tanlab olish shartlari.
5. Taʼlim vositalari va ularning funktsiyalari.

1-topshiriq. Oʻzingiz tanlagan oʻquv predmetidan tanlangan mavzuda suhbat va maʼruza metodidan foydalanish tartibini tushuntiring.

2-topshiriq. Qavs ichida keltirilgan taʼlim metodlarini (suhbat, diktant, hikoya, maʼruza, individual nazorat, frontal nazorat, tasvir, mashq, joriy nazorat, orliq nazorat, yakuniy suhbat, evristik suhbat, yakuniy nazorat) jadval boʻyicha ikki guruhga ajratib yozing.

Taʼlimning metodlari	anʼanaviy	Taʼlimning metodlari	noanʼanaviy

2-topshiriq. Suhbat va ma`ruza metodlari vositasida dars konspekti tuzishni rejalashtiring.

3-topshiriq. O`zingiz istagan o`quv predmetidan simulyativ o`yindan foydalanish rejasini tuzing.

4-topshiriq. O`rtoqlaringizning birontasi bilan bilimlarni og`zaki bayon etish metodlari to`g`risida suhbatlashing.

5-topshiriq. “Ta`limda didaktik o`yinlar” mavzusida munozara o`tkazishga tayyorlaning.

11-amaliy mashg`ulot. Ta`limni tashkil etish shakllari va turlari (2s).

Reja:

1. Sharq mutafakkirlari ta`lim metodlari haqida.
2. Ta`lim turlari.
3. Ta`limni tashkil qilish shakllari haqida tushuncha.
4. Ta`limni tashkil qilishning an`anaviy sinf-dars shakli

1-topshiriq. Berilgan terminlar orasidan bilimlarni og`zaki bayon qilish metodlarining nomini bildirgan so`zlarni ajratib yozing: hikoya, illustratsiya, tasvir, suhbat, demonstratsiya, ma`ruza, mashq, evristik suhbat.

2-topshiriq. O`zingiz tanlagan o`quv predmetidan tanlangan mavzuda suhbat va ma`ruza metodidan foydalanish tartibini tushuntiring.

3-topshiriq. Qavs ichida keltirilgan ta`lim metodlarini (suhbat, diktant, hikoya, ma`ruza, individual nazorat, frontal nazorat, tasvir, mashq, joriy nazorat, orliq nazorat, yakuniy suhbat, evristik suhbat, yakuniy nazorat) jadval bo`yicha ikki guruhga ajratib yozing.

O`zaro ta`sirni tashkil etish va boshqarish metodlari	O`zaro ta`sir natijasini nazorat qilish metodlari

4-topshiriq. Toifalash jadvalini to`ldiring.

Ta'lim metodlari	Ta'limni tashkil qilish shakllari	Ta'lim vositalari

12-amaliy mashg'ulot. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish (2s).

Reja:

1. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.
2. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari.
3. Ta'lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari.
4. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari.
5. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

1-topshiriq. Tushunchalarni moslang.

1.	Boshqarish	mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir	A)
2.	Menejment	ma'lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir	B)
3.	ta'lim menejmenti	bunda axborotlarni olish va tahlil qilishda jarayon boshlanadi va tugallanadi	C)
4.	Axborot-tahlil funksiyasi.	“maqsadga muvofiqlik” so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega; ... bu fan va san'at	D)
5.	Boshqaruv metodlari	iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy, ijtimoiy-	E)

		psixologik va axborotlar to'plash	
1-	2-	3-	4- 5-

2-topshiriq. Toifalash jadvalini to'ldiring.

tashxislash	baholash	tekshirish

3-topshiriq. Ta'lim muassasasini boshqarishda vasiylik homiylik kengashlari vazifalarini yoriting.

4-topshiriq. Quyidagi vaziyatda keys turini aniqlang:

Yuqori sinf o'quvchilaridan bir yigit sinfdosh qizga maktub jo'natdi. Maktubda unga bo'lgan hissiyotlarini bayon etib, uni uchrashuvga taklif etganligi bayon etilgan edi. Qiz bu maktubni olgach uylariga borib buvisiga ko'rsatdi. Buvisi maktubni o'qigach sinf rahbarga telefon qilib, bo'lib o'tgan voqeani tushuntirdi va shu yigitning ota-onasini chaqirtirib jazo ko'rish kerakligini talab etdi. Sinf rahbari vaziyatni yumshatish uchun qizning buvisiga kerakli chora ko'rishini aytib tinchlantirdi. Oradan bir kun o'tib qizning buvisi yana telefon qildi va qayta yigitning ota-onasini chaqirtirish kerakligini ta'kidladi. Bu vaziyatda sinf rahbari sifatida qanday yo'l tutar edingiz? Javobingizni pedagogik nuqtai nazardan asoslang.

1. *Bevosita obyektida olib boriladigan.*
2. *Syujetli.*
3. *O'tmish va bugungi kunni bog'lash asosidagi keys.*
4. *Savolli.*
5. *Topshiriq tarzidagi.*
6. *Bosma.*
7. *Muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlash.*
8. *Hikoya.*
9. *Esse.*
10. *Ko'p obyektli.*

A) 1,3,5,6,8

B) 1,2,3,4,7,9

V) 6,3,10,4,2,7

G) 10,7,4,1,2,8

1. Quyidagi vaziyatda keys turini aniqlang:

Kollejga yangi ishga kelgan Gulnozani 2-kurs “Qandolatchi” guruhiga murabbiy etib tayinlashdi. Guruh davomat va o‘zlashtirish masalasida qoloq ko‘rsatkichlarga ega edi. Xususan, guruhda darslarga surunkali qatnamaydigan 3-4-nafar o‘quvchilar bo‘lib, ular bilan ishlash juda og‘ir edi. Kunlardan bir kuni ana shunday o‘quvchilarning birini uyiga suhbatga bordi. Eshikni ochgan ota guruh murabbiysini xushlamay kutib oldi va nima gapligini so‘radi. Gulnoza uning o‘g‘li mashg‘ulotlarga qatnashmay kelayotganligi, davomati va o‘zlashtirishi qoniqarsiz ekanligini tushuntirdi. Gulnoza hali gapini tugatmasdan ota “Nima sizlarni kollejingizni tugatganidan keyin meni o‘g‘lim olim bo‘larmidi va yoki kelajagini ta‘minlab berasizlarmi. Men uni kelajagini ta‘minlayman. Demak, men nimani to‘g‘ri deb bilsam shuni qilaman” dedi. Bu uchrashuvdan so‘ng Gulnoza bildiki.... Mazkur vaziyatni “Guruh murabbiysi” va “Ota-ona” ishtirokida baholang.

1. *Bevosita obyektda olib boriladigan.*
 2. *Syujetli.*
 3. *O‘tmish va bugungi kunni bog‘lash asosidagi keys.*
 4. *Savolli.*
 5. *Topshiriq tarzidagi.*
 6. *Bosma.*
 7. *Muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlash.*
 8. *Hikoya.*
 9. *Esse.*
 10. *Ko‘p obyektli.*
- A) 1,3,5,6,8
B) 1,2,3,5,6,10
V) 6,3,10,4,2,7
G) 10,7,4,1,2,8

13-amaliy mashg‘ulot. Xalqaro baholash dasturlari (2s)

Reja:

1. Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati.
2. Xalqaro baholash dasturlari turlari.

1-topshiriq: Klasterni bajaring.

Maqsad: Xalqaro baholash dasturlarining turlari, ularning maqsadlari va bir-biridan farqli jihatlari bo‘yicha fundamental bilimlarni tekshirish va tizimlashtirish.

Shart: Quyidagi jadvalni to‘ldiring va undan foydalanib, xalqaro baholash dasturlarining turlari bo‘yicha umumiy klaster (sxema) yarating.

Dastur nomi	To'liq nomi (ingliz va o'zbek tillarida)	Qaysi yosh/sinf o'quvchilari ni qamrab oladi?	Qaysi yo'nalishlarni (savodxonlik ni) baholaydi?	Davriyligi (necha yilda bir o'tkaziladi?)
PISA				
TIMSS				
PIRLS				
TALIS				

Savol: Nima uchun bir mamlakatning o'zida bir vaqtning o'zida ham PISA, ham TIMSS dasturlari qo'llanilishi mumkin? Ularning asosiy farqi nimada?

2-topshiriq:

"Case"ni bajaring.

Maqsad: Xalqaro baholash dasturlarining ta'lim tizimidagi ahamiyatini chuqur anglash, natijalarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Shart: Quyidagi vaziyatni (keysni) o'qing va berilgan savollarga tahliliy munosabat bildiring.

Vaziyat: "X" davlati uzoq yillar davomida o'z ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat yodlash (reproduktiv) qobiliyatini baholab kelgan va barcha imtihonlarda yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Biroq, ushbu davlat ilk bor PISA xalqaro baholash dasturida ishtirok etganda, natijalar juda past bo'lib chiqdi. O'quvchilar hayotiy muammoli topshiriqlarni bajara olishmadi.

Savollar:

Sizningcha, ushbu davlat ichki imtihonlarida nima uchun yuqori natija bo'lganu, PISAda past natija qayd etilgan? Muammo nimada?

Ushbu vaziyatda xalqaro baholash dasturining ahamiyati nimadan iborat? U davlatga qanday signal berdi?

Agar siz ushbu davlatning Xalq ta'limi vaziri bo'lsangiz, PISA natijalaridan kelib chiqib, ta'lim tizimini isloh qilish uchun qanday dastlabki 3 ta qadamni qo'ygan bo'lar edingiz?

3-topshiriq: "PISA/TIMSS namunasida topshiriq loyihalash"

O'zingiz mutaxassis bo'lgan fan (matematika, fizika, ona tili, biologiya va h.k.) doirasida xalqaro dasturlar (masalan, PISA) talablariga mos keladigan bitta matnli/muammoli topshiriq tayyorlang. Topshiriq quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak:

Hayotiy vaziyat. O'quvchi kundalik hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan real voqea, jadval, diagramma yoki matn.

Topshiriq. Matn yoki ma'lumotlarga tayanib, o'quvchidan mantiqiy fikrlash, tahlil qilish yoki xulosa chiqarishni talab qiladigan savol.

Baholash meoni (Rubrika): Savolga qanday javob berilsa "to'liq ball", qanday bo'lsa "qisman ball" va qaysi holatda "0 ball" berilishi aniq ko'rsatilishi shart.

4-topshiriq: "Debat:

Guruh ikki jamoaga bo'linadi (yoki yozma ravishda esse shaklida bajariladi) va quyidagi tezis yuzasidan o'z argumentlarini taqdim etadi:

1-jamoa ("Ekspertlar"): "Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) ta'lim sifatini oshirish, davlatlararo raqobat muhitini yaratish va ta'limni modernizatsiya qilish uchun eng mukammal va zarur vositadir."


2-jamoa ("Skeptiklar"): "Xalqaro baholash dasturlari ta'limning asl mohiyatini yo'qotadi. Maktablar faqat "test topshirish" va reytingda yuqori o'rin olish uchun o'qitishga o'tib ketadi (teaching to the test), bu esa har bir davlatning milliy xususiyatlariga zarar yetkazadi"

Vazifa: Har bir tomon o'z pozitsiyasini dalillar, xalqaro tajribalar (masalan, Finlyandiya, Singapur yoki Janubiy Koreya tajribasi) asosida asoslab berishi va yakuniy xulosaga kelishi lozim.

5-topshiriq. Xalqaro baholash dasturlari turlarini yoriting

TIMMS	PISA	TALIS

6-topshiriq. Xalqaro baholash dasturlarini VEEN diagrammasida qiyosiy tahlil qiling



14 –amaliy mashg‘ulot. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat (2s).

Reja:

1. Qobiliyatning psixologik tavsifi.
2. Pedagogik qobiliyat va uning tuzilishi.
3. O‘qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari tizimi.

"O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat" mavzusi bo‘yicha talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan **5 ta topshiriqlar tizimi**:

1-topshiriq: "Atamalar tahlili"

1. Quyidagi tayanch tushunchalarning psixologik ta‘rifini o‘z so‘zingiz bilan yozing va ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatuvchi ierarhik zanjir (klaster) yarating:

- *Layoqat (Nishona)*
- *Qobiliyat*
- *Iqtidor*
- *Geniallik (Dohilik)*

Savolga javob bering: Tug‘ma layoqat (masalan, kuchli xotira yoki baland ovoz) o‘z-o‘zidan pedagogik qobiliyatga aylanadi-mi? Layoqatning qobiliyatga aylanishida ijtimoiy muhit va mehnatning roli qanday?

2-topshiriq: "Pedagogik qobiliyatlar tizimi"

Mashhur psixologlar (masalan, N.V. Kuzmina, V.A. Krutetskiy) tomonidan tasniflangan pedagogik qobiliyatlar tuzilishini chuqur tahlil qilish.

Quyidagi jadvalni to‘ldiring. Har bir qobiliyat turining mazmunini ochib bering va o‘qituvchi faoliyatida qanday namoyon bo‘lishiga bitta real misol keltiring.

T/r	Pedagogik qobiliyat turi	Qobiliyatning qisqacha tavsifi	Maktab hayotidan (amaliyotdan) jonli misol
1.	Didaktik qobiliyat	Murakkab mavzuni sodda va tushunarli tilda o‘quvchiga yetkazib bera olish.	<i>O‘qituvchi kimyodagi qiyin reaksiyani hayotiy pishiriq tayyorlash jarayoniga o‘xshatib tushuntirdi.</i>

T/r	Pedagogik qobiliyat turi	Qobiliyatning qisqacha tavsifi	Maktab hayotidan (amaliyotdan) jonli misol
2.	Akademik qobiliyat		
3.	Perseptiv qobiliyat		
4.	Nutq qobiliyati		
5.	Tashkilotchilik qobiliyati		
6.	Avtoritar qobiliyat		
7.	Kommunikativ qobiliyat		
8.	Pedagogik fantaziya (prognostik)		

3-topshiriq: "Pedagogik vaziyatlar (Keyslar) tahlili" (Qo'llash va muammoli ta'lim)

Maqsad: O'qituvchining qobiliyatlari va kasbiy fazilatlari real pedagogik nizolar hamda muammoli vaziyatlarda qanday aks etishini baholash.

Shart: Quyidagi vaziyatlarni o'qing va berilgan savollarga psixologik nuqtayi nazardan yechim toping.

1-vaziyat: Yangi mavzu tushuntirilayotganda sinfdagi yetakchi o'quvchi: *"Ustoz, bu mavzuni tushunish bizga nega kerak? Baribir hayotda ishlatmaymiz-ku"*, deb e'tiroz bildirdi va dars ritmini buzdi.

Savol: O'qituvchi bu vaziyatda o'zining qaysi fazilati va qobiliyatini (masalan, pedagogik takt, didaktik qobiliyat) ishga solishi kerak? U qanday javob bersa to'g'ri bo'ladi?

2-vaziyat: O'qituvchi dars o'tayotganda orqa partada o'tirgan o'quvchining ko'zlaridagi ma'yuslikni, diqqati tarqoqligini sezdi. U o'quvchiga tanbeh bermay, darsdan so'ng asta suhbatga tortdi va uning oilaviy muammosi borligini bildi.

Savol: Bu vaziyatda o'qituvchining qaysi qobiliyati (perseptiv, kommunikativ yoki sugestion) yetakchilik qildi? O'qituvchining empatiya hissi uning kasbiy mahoratiga qanday ta'sir qiladi?

4-topshiriq: "Professional portret: Ideal o'qituvchi modeli" (Sintez va loyihalash)

Maqsad: O'qituvchining kasbiy (pedagogik) va shaxsiy (insoniy) fazilatlari tizimini modellashtirish.

Shart: Eganing (o'qituvchining) ideal qiyofasini yaratish uchun Ven diagrammasi yoki Infografika shaklida "O'qituvchi fazilatlari modeli"ni loyihalashtiring. Loyihada quyidagi ikki guruh fazilatlari o'rtasidagi farq va mushtaraklik aks etishi kerak:

1. **Kasbiy-pedagogik fazilatlar:** Eruditsiya, pedagogik mahorat, fanni mukammal bilish, pedagogik takt, adolatlilik, metodik tayyorgarlik.

2. **Shaxsiy fazilatlar:** Bolalarga muhabbat, bag'rikenglik (tolerantlik), optimizm, xushchaqchalik, mas'uliyatlilik, o'z ustida ishlashga intilish.

• **Topshiriq yakunida xulosa yozing:** Agar o'qituvchida shaxsiy fazilatlar (bolaga muhabbat) kuchli bo'lsa-yu, kasbiy fazilatlar (fanni bilish) past bo'lsa, yoki aksincha bo'lsa, ta'lim jarayonida qanday muammolar kelib chiqadi?

5-topshiriq: "Pedagogik deonologiya va refleksiya" mavzusida Esse yozing.

Maqsad: Pedagogik odob-axloq, kasbiy burch (deonologiya) va shaxsiy faoliyatni tahlil qilish (refleksiya) ko'nikmasini rivojlantirish.

Shart: Quyidagi mavzulardan birini tanlang va 150-200 ta so'zdan iborat tahliliy esse yozing:

1-mavzu: *"O'qituvchining pedagogik takti — kasbiy madaniyat va qobiliyatlar ko'zgusi sifatida".*

2-mavzu: *"Pedagogik qobiliyat tug'ma iqtidor natijasimi yoki tinimsiz mehnat mahsulimi?"*.

Esseni baholash mezonlari:

- Mavzuning psixologik va pedagogik asosda ochib berilishi;
- Shaxsiy fikr va hayotiy (yoki pedagogik faoliyatdan) misollar keltirilishi;
- Pedagogik etika va deonologiya qoidalariga rioya qilinganligi;
- Xulosaning aniqligi va amaliy ahamiyati.

15-amaliy mashg'ulot. Kommunikativ malakalar va ta'sir etish (2s)

Reja:

1. Kommunikatsiya metodlari.
2. O'qituvchining kommunikativ malakasi.
3. Kommunikativ ta'sir etish yo'li.
4. O'qituvchining kommunikativ madaniyati.
5. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari.

1-topshiriq. Quyidagi “Blits-so‘rov” texnologiyasini bajaring:

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Tushunchalar	Tushunchalarga izoh
					Tyutor	Ta’lim mazmunini yaratuvchi, modullarini ishlab chiquvchi
					Mentor	O‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o‘tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassis
					Fasilitator	Masofadan o‘qitish dasturlarini yaratuvchisi va bajarilishini ta’minlovchi
					Konsultant	Darsda ko‘makchi, yo‘naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi
					Moderator	Ustoz, o‘rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda)
					Trener	Ta’lim oluvchilarning to‘liq o‘zlashtirishlari uchun yordam ko‘rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg‘ulotni olib boradi, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish)
					Innovator	Maslahat beruvchi, tushuntiruvchi, qo‘shimcha ma’lumot beruvchi
					Assistent	Nazariy ma’lumotlar bilan tanishtiruvchi
					Kouch	Kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish
					Lektor	Yangiliklarni ta’lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy qiluvchi

					Sekretar	Tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etuvchi
					Ekspert	Kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish
					Spekter	Mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlash, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turish

2-topshiriq. Jadvalni mos javoblarni qo‘yib to‘ldiring.


Atama		Ta’rif	
?		Millatning yagona tili, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezoni	
?		shaxs yoki ijtimoiy guruhning milliy o`z-o`zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy-ma'naviy meros, o`z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo`shgan hissasi, o`zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro`-e'tiboridan fahrlanish hissini ifodalovchi tushuncha	
?		shaxsning muayyan millat vakili ekanligini ifodalovchi holat, maqom	
Milliy mansublik		Milliy g‘urur (iftixor)	Milliy ong

3-topshiriq. “Bugungi yoshlar -Uchunchi renesans yaratuvchisi” mazusida suhbat uyushtirish, zamonaviy maktab taraqqiyotining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish, o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talabalarni va shart-sharoitlarni aniqlash.

4-topshiriq. Televidenie orqali ta’lim sohasidagi prezident chiqishlari yozilgan videolavhalar bilan tanishish. Ko‘rilgan lavhadagi faktlarga asoslanib, ta’limdagi islohatlarni aniqlash.

5-topshiriq. “Qanday” organayzerini to‘ldiring.

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



16-amaliy mashg'ulot. Inklyuziv o'qitish (2s)

Reja:

1. Inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asoslari.
2. Inklyuziv ta'lim tamoyillari. Muvaffaqiyatli inklyuziya resurslari.
3. Inklyuziyaning komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari.
4. Inklyuziv ta'lim variantlari: doimiy, to'liq; doimiy, noto'liq; vaqtinchalik, qisman; epizodik; masofaviy ta'lim.

1-topshiriq. Toifalash jadvalini to'ldiring.

Surdopedagogika	Korreksion pedagogika	logopediya

2-topshiriq. Inklyuziv ta'lim vazifalarini yoriting.

3-topshiriq: Quyida berilgan so'zlar ishtirokida kichik Esse yozing.

Millat iftixori, o'zlikni anglash, sharaflar, milliy ong, axloq-odob, zohiriy va botiniy sifatlar, ma'naviy qiyofa, oila tarbiyasi, an'anava udumlar .

Esse – frantsuzcha tajriba, dastlabki loyiha, shaxsning biror mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda tinglovchi o'zining mavzu bo'yicha ta'surotlari, oyasi va qarashlarini erkin tarzida bayon qiladi. Esse yozishda xayolga kelgan dastlabki fikrini zudlik bilan qoozga tushirish, iloji boricha ruchka (qalam) ni qog'zdan uzmasdan – to'xtamasdan yozish, so'ngra matnni qayta tahlil qilib, iakomillashtirish tavsiya etiladi. Esseni muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag'shlab yozish tavsiya etiladi. Ayniqsa talabalarga

o'zlariga yoqqan mavzu (tushuncha) bo'yicha esse yozdirish ham yaxshi natija beradi.

Talab: Har bir talaba "**Barkamol shaxsning ma'naviy qiyofasi**" mavzusiga kichik Esse yozadi. Vaqt me'yori o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Esse mazmunini og'zaki bayon qiladi.

17-amaliy mashg'ulot. Pedagogik mahorat va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati (2s)

Reja:

1. Pedagogik mahorat – pedagogik kategoriya sifatida
2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.
3. Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari.
4. Qobiliyatning psixologik tavsifi.
5. Pedagogik qobiliyat va uning tuzilishi.
6. O'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlar tizimi.

1-topshiriq: "Pedagogik mahorat formulasi" (Tushunish va tizimlashtirish darajasi)

Maqsad: Pedagogik mahoratning kategoriyaviy mohiyatini hamda uning tarkibiy qismlarini tizimli tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Shart: O'quv adabiyotlarida pedagogik mahorat asosan 4 ta asosiy komponent (tarkibiy qism) birligida ko'riladi:

1. *Pedagogik yo'naltirilganlik (shaxs xislati, bolaga muhabbat).*
2. *Kasbiy bilimlar (fanni va metodikani mukammal bilish).*
3. *Pedagogik qobiliyatlari (persektiv, didaktik va h.k.).*
4. *Pedagogik texnika (nutq, mimika, pantomimika, emotsiyalarni boshqarish).*

Vazifa: * Ushbu 4 ta komponentning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi **konseptual sxema (yoki infografika modeli)** chizing.

Muammoli savolga javob bering: Agar o'qituvchida kasbiy bilimlar (2-komponent) va pedagogik texnika (4-komponent) juda kuchli bo'lsa-yu, lekin unda pedagogik yo'naltirilganlik, ya'ni bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabati (1-komponent) mutlaqo rivojlanmagan bo'lsa, uni "yuksak mahoratli pedagog" deb atash mumkinmi? Fikringizni asoslang.

2-topshiriq: "Faoliyat strukturasi va Qobiliyatlar kesishmasi" (Tahliliy va qiyosiy daraja)

Maqsad: Pedagogik faoliyat turlari (tuzilishi) va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik qobiliyatlar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni aniqlash.

Shart: Pedagogik faoliyat tuzilishi jihatidan konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ bosqichlarga bo'linadi. Quyidagi jadvalni to'ldirish orqali faoliyat turi bilan unga mos keladigan psixologik qobiliyatlar va o'qituvchi fazilatlarini o'zaro muvofiqlashtiring.

Pedagogik faoliyat turi (bosqichi)	Ushbu faoliyatning mazmuni nimadan iborat?	Uni muvaffaqiyatli bajarish uchun qaysi pedagogik qobiliyatlar kerak?	O'qituvchidan qanday kasbiy va shaxsiy fazilatlar talab etiladi?
1. Konstruktiv (loyihalash) faoliyati	Dars rejasini tuzish, materialni tanlash, o'quvchilarning imkoniyatlarini oldindan loyihalash.	<i>Didaktik qobiliyat, pedagogik fantaziya (prognostik).</i>	<i>Eruditsiya, ijodkorlik, mas'uliyat, keng dunyoqarash.</i>
2. Tashkiliy faoliyat			
3. Kommunikativ faoliyat			

3-topshiriq: "Pedagogik texnika va mahorat maktabi" (Amaliy-vaziyatli loyihalash)

Maqsad: O'qituvchining shaxsiy-kasbiy fazilatlari hamda pedagogik texnikasi (nutqi, o'zini tutishi) qiyin pedagogik vaziyatlarda qanday aks etishini amaliyotda qo'llash.

Shart: Quyidagi real pedagogik keysni tahlil qiling va undagi muammoni bartaraf etish bo'yicha "Mahoratli o'qituvchi yo'riqnomasi"ni ishlab chiqing.

Vaziyat: Yosh o'qituvchi dars o'tayotganda sinfda kuchli shovqin ko'tarildi. O'quvchilar uni tinglashni xohlashmayapti. O'qituvchi asbiylashib, ovozini boricha balandlatdi (baqirdi) va darsni to'xtatib, o'quvchilarni kundaligiga "2" baho qo'yish bilan qo'rqita boshladi. Biroq bu usul vaziyatni yanada og'irlashtirdi, sinfda o'qituvchiga nisbatan norozilik va kulgi uyg'ondi.

Ekspertlik vazifasi:

1. Ushbu o'qituvchida pedagogik mahoratning qaysi tarkibiy qismlari (qobiliyat yoki kasbiy fazilatlar) yetishmayapti?

2. O'qituvchi ovozini balandlatganda pedagogik texnikaning qaysi qonuniyatini buzdi?

3. **Yechim loyihasi:** Ushbu vaziyatda haqiqiy pedagogik mahoratga ega o'qituvchi sinf diqqatini jalb qilish uchun qanday yo'l tutishi kerak edi? (Ovoz toni, mimika, perseptiv qobiliyat va pedagogik taktdan foydalanish bo'yicha kamida 3 ta amaliy qadamni yozing).

4-topshiriq: "Kasbiy va shaxsiy fazilatlar balansi" (Refleksiya va baholash darajasi)

Maqsad: O'qituvchi shaxsining kasbiy va insoniy qiyofasini modellashtirish, pedagogik etika (deonologiya) nuqtayi nazaridan o'z-o'zini baholash ko'nikmasini rivojlantirish.

Shart: Mashhur pedagog V.A.Suxomlinskiy: *"Yomon o'qituvchi haqiqatni shunchaki ma'lum qiladi, yaxshi o'qituvchi esa uni topishga o'rgatadi"*, degan edi. Bugungi zamonaviy ta'limda o'qituvchining kasbiy (fanni bilishi) va shaxsiy (bolani tushunishi, empatiya) fazilatlarini muvozanati qanchalik muhim?

Vazifa: Quyidagi mavzulardan birini tanlab, **"Mening pedagogik mahorat va fazilatlar haqidagi falsafam"** mavzusida kichik esse (150-200 so'z) yozing:

1-mavzu: "O'qituvchining shaxsiy fazilatlarini kasbiy bilimlaridan ustun tura oladimi?"

2-mavzu: "Pedagogik mahorat — tug'ma iqtidor akademik qobiliyatmi yoki o'z ustida ishlash san'atimi?"

Esseni baholash mezonlari:

Pedagogik mahorat kategoriyasining ilmiy va hayotiy bog'liqlikda ochilishi; O'qituvchi faoliyatining o'ziga xos qiyinchiliklari va go'zalligining tahlil qilinishi; Shaxsiy kasbiy pozitsiyaning aniq ifodalanishi va xulosalarning kreativligi.

2.3 SEMINAR MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.

1-mavzu. Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari (2s).

Reja:

1. Pedagogikaning metodlari.
2. Pedagogikaning tarmoqlari.
3. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
4. Zamonaviy pedagogikaning metodologiyasi. Pedagogikaning ilmiy - tadqiqot metodlari.

1-topshiriq: "Pedagogika fanlararo integratsiyada" (Konseptual tahlil va model yaratish)

Maqsad: Pedagogikaning boshqa fanlar (falsafa, psixologiya, anatomiya va fiziologiya, sotsiologiya, kibernetika) bilan aloqadorligini aniqlash hamda uning tarmoqlari qanday vujudga kelganini tushunish.

Shart: Pedagogika boshqa fanlar bilan aloqaga kirishib, o'zining yangi tarmoqlarini (masalan, yosh davrlari pedagogikasi, maxsus pedagogika, professional ta'lim pedagogikasi va h.k.) rivojlantiradi.

Vazifa: * Quyidagi fanlararo bog‘liqlik "zanjiri"ni tahlil qiling va so‘roq belgilari o‘rniga mos keluvchi **pedagogika tarmog‘ini** yoki **aloqador fanni** yozing:

☐ *Falsafa + Pedagogika* $\rightarrow$ Pedagogika g‘oyaviy-metodologik asosga ega bo‘ladi.

☐ *Psixologiya + Pedagogika* $\rightarrow$ Bolaning ruhiy qonuniyatlariga tayanadi.

☐ *Anatomiya va fiziologiya + Pedagogika* $\rightarrow$ [?] (O‘quvchining jismoniy va gigiyenik rivojlanishini hisobga oladi).

2-topshiriq: "Pedagogik eksperiment loyihasi" (Sintez va tadqiqotchilik yondashuvi)

Maqsad: Talabalarda pedagogik tadqiqot metodlarini amaliyotda qo‘llash, eksperiment bosqichlarini loyihalash ko‘nikmasini shakllantirish.

Shart: Siz maktabda "**O‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmasini interfaol metodlar orqali rivojlantirish**" mavzusida ilmiy izlanish olib bormoqchisiz. Quyidagi bosqichlar asosida kichik eksperiment rejasini (matrisasini) tuzing:

1. **Gipoteza (Ilmiy taxmin):** Agar darslarda muntazam ravishda [falonchi] interfaol metodlardan foydalanilsa, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi [faloncha] darajada ortadi.
2. **Eksperiment ob‘ekti:** Qaysi sinflar tanlanadi? (Masalan: 8-"A" — eksperimental sinf, 8-"B" — nazorat sinfi).
3. **Konstatatsiya (aniqlovchi) bosqichi:** Eksperimentdan oldin o‘quvchilarning dastlabki bilim/ko‘nikma darajasini qaysi metodlar (test, anketa yoki suhbat) orqali aniqlaysiz?
4. **Formirovaniye (shakllantiruvchi) bosqichi:** Eksperimental sinfda qanday yangicha pedagogik texnologiyani qo‘llaysiz? Nazorat sinfidachi?
5. **Nazorat (tekshiruv) bosqichi:** Yakuniy natijani qanday baholaysiz va samaradorlikni qay tarzda isbotlaysiz?

3-topshiriq: "Metodologik tahlil: An‘anaviylik va Zamonaviylik" (Baholash va tanqidiy fikrlash)

Maqsad: Zamonaviy pedagogika metodologiyasining asosiy yondashuvlari (tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli, kompetensiyaviy) haqida xulosa chiqarish va an‘anaviy metodologiyadan farqini baholash.

Shart: Quyidagi ikki xil metodologik yondashuv aks etgan pedagogik qarashlarni o‘qing va ularni qiyosiy tahlil qilib, esse yoki argumentatsiyalangan javob shaklida o‘z munosabatingizni bildiring.

- **1-yondashuv (An'anaviy-znaniyeviy):** "Pedagogik tadqiqot va ta'limning bosh maqsadi — o'quvchiga fanga oid tayyor ilmiy bilimlarni, qonun-qoidalarni tizimli ravishda o'rgatish hamda ularning xotirasida saqlanish darajasini tekshirishdan iborat."
- **2-yondashuv (Zamonaviy-kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan):** "Pedagogik tadqiqot va ta'limning markazida o'quvchi shaxsini rivojlantirish, unga bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini (kompetensiyalarini) shakllantirish va o'z ustida mustaqil ishlash metodologiyasini o'rgatish turishi kerak."

Savollar:

1. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik tadqiqotlar nima sababdan 2-yondashuvga ko'proq urg'u bermoqda? Jamiyatdagi qaysi global o'zgarishlar (axborot asri, sun'iy intellekt va h.k.) pedagogika fani metodologiyasining yangilanishini talab etmoqda?
2. 2-yondashuv asosida tadqiqot olib borayotgan olim qaysi metodlarga (masalan, keys-stadi, loyihalar metodi, portfolio) ko'proq tayanishi lozim deb o'ylaysiz?

2-mavzu. Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari(2s)

Reja:

- 1.Shaxs haqida tushuncha.
- 2.Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
- 3.Inson kamoloti va shaxsning rivojlanishida muhitning roli.
- 4.Insonning kamol topishida tarbiyaning roli.

1-topshiriq: "Biologik, Ijtimoiy va Pedagogik omillar balansi" (Tushunish va tizimlashtirish darajasi)

Maqsad: Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar (irsiyat, muhit, tarbiya va faoliyat) o'rtasidagi bog'liqlik va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tizimlashtirish.

Shart: 1. Quydagi jadvalni to'ldiring va har bir omilning shaxs rivojlanishidagi o'rnini qisqacha izohlang. 2. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi to'rtala omilning o'zaro aloqadorligini ko'rsatuvchi **klaster yoki diagramma** sxemasini chizing.

2-topshiriq: "Eksperimentlar tahlili: Muhitmi yoki Irsiyat?" (Tahliliy va tanqidiy fikrlash darajasi)

Maqsad: Shaxs shakllanishida muhit va irsiyat muammosiga oid ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish.

Shart: Psixologiya va pedagogika tarixidagi quyidagi ikki real manbaga tayangan holda berilgan savollarga javob bering.

- **1-fakt (Maugli hodisasi):** Hayvonlar orasida o'sib ulg'aygan bolalar (masalan, Amala va Kamala) odamlar muhitiga qaytarilgach, ularga gapirishni, tik yurishni va insoniy xulq-atvorni o'rgatish juda qiyin kechgan, ko'pchiligi yoshligida vafot etgan.
- **2-fakt (Egizaklar tadqiqoti):** Bir xil genotipga ega bo'lgan (identik) egizaklar tug'ilgandanoq ikki xil ijtimoiy muhitda va farqli oilalarda tarbiyalangan. Yillar o'tib ular o'rganilganda, xarakterida farqlar bo'lsa-da, intellektual salohiyati va temperamentida juda ko'p o'xshashliklar aniqlangan.

Savollar:

1. "Maugli hodisasi" shaxs shakllanishida qaysi omil (irsiyat yoki ijtimoiy muhit) mutloq ustun ekanligini isbotlaydi? Nima uchun biologik odam ijtimoiy muhitsiz "shaxs"ga aylana olmaydi?
2. Egizaklar tadqiqoti irsiyatning o'rni haqida qanday xulosaga kelishga asos bo'ladi?
3. Pedagog sifatida ushbu ikki omilning o'zaro ta'sirini qanday baholaysiz? (Xulosangizni asoslang).

3-topshiriq: "Keys-stadi: Tarbiyaning yetakchilik roli" (Muammoli va amaliy yondashuv)

Maqsad: Shaxs kamolotida tarbiyaning maqsadga yo'naltirilgan va o'zgartiruvchi kuch sifatidagi rolini amaliy pedagogik vaziyat orqali tushunish.

Shart: Quyidagi vaziyatni o'qing va maktab amaliyoti nuqtayi nazaridan yechim taklif qiling.

Vaziyat: 7-sinf o'quvchisi Sanjar nosog'lom oilaviy muhitda yashaydi (ota-onasi doimo janjallashadi, bolaning tarbiyasi va o'qishi bilan hech kim qiziqmaydi). Sanjar maktabda ham o'zini tajovuzkor tutadi, darslarni qoldiradi, tengdoshlari bilan tez-tez urishadi. Ko'pchilik o'qituvchilar: *"Buning qonida bor, otasiga tortgan, baribir odam bo'lmaydi (irsiyat va salbiy muhit nazarda tutilmoqda)"*, deb Sanjardan qo'l siltashgan. Biroq, yangi tayinlangan sinf rahbari Sanjardagi tashkilotchilik qobiliyatini sezib, uni sinf sardori etib tayinladi va unga maktab tadbirlarini tashkil qilishni ishonib topshirdi.

Savollar:

1. Boshqa o'qituvchilarning "baribir odam bo'lmaydi" degan fikri shaxs rivojlanishi qonuniyatlariga ko'ra to'g'rimi? Ular qaysi xatoga yo'l qo'ymoqda?
2. Sinf rahbarining harakatida tarbiyaning va maqsadli **faoliyatning** roli qanday namoyon bo'ldi?
3. Sanjarning kelgusi rivojlanishida ijtimoiy muhit (oilalar) ta'sirini yengib o'tishda maktab tarbiyasi qanchalik muvaffaqiyat qozonishi mumkin? Buning uchun yana qanday choralar ko'rish kerak?

4-topshiriq: "Inson – Individuallik – Shaxs" (Atamalar ierarxiyasi va model yaratish)

Maqsad: "Inson", "individual xususiyat", "shaxs" va "boshqaruvchi subyekt" tushunchalarining falsafiy-pedagogik farqlarini anglash.

Shart: Quyidagi jummalarni mantiqiy ketma-ketlikda davom ettiring va ushbu tushunchalarning qamrov doirasini ko'rsatuvchi kontsentrik doiralar (Venn diagrammasi kabi ichma-ich joylashgan doiralar) modelini loyihalashtiring:

- *"Inson bo'lib tug'ilinadi, ..."*
- *"Individual xususiyatlar (ko'z rangi, xarakter) himoya qilinadi, ..."*
- *"Shaxs bo'lib esa ..."*


Loyiha savoli: Nima uchun har qanday odamni biologik mavjudot (inson) deb ayta olamiz, lekin har qanday insonni ijtimoiy mavjudot (shaxs) deb ota olmaymiz? Bola necha yoshdan boshlab "shaxs" sifatida shakllana boshlaydi?

3-mavzu. Didaktika - ta'lim nazariyasi (2s).

Reja:

1. Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta'lim mazmuni. Ta'limni tashkil etish shakllari, metod va vositalari.
2. Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayoni umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limidir. Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
3. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar. Ta'lim tushunchasi va mohiyati.
4. Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatidagi tavsifi.

